

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI**

**R.NIYOZMETOVA, J.SAMIGOVA, M.MIRMAXSUDOVA**

# **O‘ZBEK TILI**

(Akademik litsey rus guruhlari  
uchinchi bosqich o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma)

**III**

**«NAVRO‘Z» nashriyoti  
Toshkent - 2015**

**KBK 83. 12 (5 O'zb)**

**M.40**

**UDK: 515. 10. 2.**

*Oliy va o'rtta va o'rtta maxsus kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari  
bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash  
(20.08.2013 yil, №312)nashrga tavsiya etgan*

- Mualliflar:** **Roza Xasanovna Niyozmetova** - pedagogika fanlari  
doktori, professor  
**Mavluda Buriyevna Mirmaxsudova**- pedagogika fanlari  
nomzodi  
**Jamila Abdullayevna Samigova**- oliy toifali  
o'qituvchi
- Taqrizchilar:** **R. Rasulov** – TDPU professori, filologiya fanlari doktori  
**T.Yusupova** – O'zDJTU dotsenti, pedagogika fanlari  
nomzodi
- Muharrir:** **Zahro Ibragimova** — ToshTYMI qoshidagi Mirobod  
akademik litsey bosh o'qituvchisi

Mazkur oquv qo'llanma akademik litseylarning rus guruhlarini o'quvchilarining o'zbek tilidan og'zaki va yozma nutqini boyitish, o'zbek adabiyoti namunalari bahramand qilish maqsadida tayyorlangan. Qo'llanma ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan "O'zbek tili" namunaviy o'quv dasturi (236 soat) asosida tayyorlangan. Asosiy e'tibor o'quvchilarning mustaqil ravishda o'zbekcha matn ustida ishlashlari, topshiriqlarni ijodiy bajarishlariga, grammatik bilimlarni amaliy egallashlariga qaratilgan. Shunga ko'ra turli mazmundagi adabiy-badiiy matnlar bilan ishlashga oid topshiriqlar, yozma nutqni o'stirish bo'yicha mashqlar, bog'lanishli matn tuzish, bayon va insho yozish kabi yozma ish shakllariga, hamda izohlangan qoidalarga keng o'rin berilgan.

Berilgan adabiy materiallar va ular yuzasidan berilgan savol va topshiriqlar o'quvchilarning badiiy asarlarni idrok etishiga yo'naltirilgan.

Mazkur qo'llanma mualliflari p.f.n. Mavluda Mirmaxsudova va oliy toifali o'qituvchi Jamila Samigova tomonidan ToshTYMI qoshidagi Mirobod akademik litseyida amaliyotga tatbiq etilib, tajriba-sinovdan o'tkazilgan.

**ISBN 978-9943-381-20-9**

## 1-mashg'ulot

### Mustaqillik odimlari



1991-yil 6-sentabr O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish to'g'risidagi Farmoni e'lon qilindi.

1991-yil 24-sentabr Toshkent shahrida o'zbeklar (turkistonliklar) ning birinchi xalqaro anjumani bo'lib o'tdi.

1993-yil 31-avgust Toshkentda Amir Temur haykali ochildi.

1993-yil 2-sentabr "Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

1993-yil 28-sentabr O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida nutq so'zladi.

1993-yil 24-oktabr O'zbekiston Respublikasida BMTning birlashgan vakolatxonasi ochildi.

1994-yil Mirzo Ulug'bek yili deb e'lon qilindi.

1995-yil 29-dekabr O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrirda) e'lon qilindi.

1996-yil 29-avgust O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov "Mustaqillik" ordeni bilan mukofotlandi.

1996-yil 1-sentabr Toshkent shahrida Xalqaro olimpiya shuhrati muzeyi ochildi.

1996-yil 18-oktabr Toshkentda Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Samarqand va Sahrisabz shaharlarida Sohibqiron Amir Temur haykali ochildi.

1997-yil 24-aprel "Inson huquqlari bo'yicha vakillik (ombutsman) to'g'risida Qonun" e'lon qilindi.

1998-yil 13-yanvar "Alpomish" dostonining 1000 yilligini nishonlash to'g'risidagi qaror qabul qilindi.

1998-yil 24-sentabr O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilini nishonlash to'g'risida"gi Qarori chiqdi.

1999-yil 1-2-may Toshkentda dunyoning 48 davlatlari sportchilari ishtirokidagi milliy kurash bo'yicha birinchi jahon chempionati bo'lib o'tdi.

2000-yil 12-may "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuining ochilish marosimi bo'ldi.

2001-yil 1-may "Qatag'on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to'g'risida"gi Prezident Farmoni e'lon qilindi. 31-avgust Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni deb belgilandi.

2004-yil 25-mart O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xoja Ahror Valiy tavalludining 600 yilini nishonlash to'g'risida" Qarori qabul qilindi

2007-yil Toshkent Islom madaniyati markazi deb e'lon qilindi.

### **Topshiriq.**

1. Berilgan ma'lumotlarni yozing va yodda tuting.
2. "Mustaqillik odimlari" mavzusida matn tuzing.

### **Aytgil, do'stim**

Boshing egib, ta'zim ayla, shukrona ayt,  
Seni guldek erkalagan chaman uchun.  
Osmonlarda yurgan bo'lsang, tuproqqa qayt,  
Aytgil, do'stim, nima qildik vatan uchun?

Ko'zi qora, yuragi oq shu el uchun,  
Tuproq uchun, shu yurt uchun, chaman uchun.  
Ulug' inson boshlab bergan shu yo'l uchun,  
Aytgil, do'stim, nima qildik vatan uchun?

Eldan ketib, el bo'lganni kim biladi?  
Don axtargan go'shtxo'rlarga yem bo'ladi.  
Dil qonasa, ona tuproq em bo'ladi,  
Aytgil, do'stim, nima qildik vatan uchun?

Qachongacha qorning o'ylab o'tadirsan?  
Qachongacha ko'kdan chalpak kutadirsan?

Axir vatan bitta, sen ham bittadirsan,  
Aytgil, do'stim, nima qildik vatan uchun?

Buncha bino qo'yma zarrin choponlarga,  
Saratonda yaproq bo'lg'in deqqonlarga,  
Suyangani tayoq bo'lg'in cho'ponlarga,  
Aytgil, do'stim, nima qildik vatan uchun?

Hech kimdan kam emassan, kam bo'lmagaysan,  
Yerda qolsang oftob bo'lib kulmagaysan.  
Qachon belni mahkam tortib bog'lagaysan,  
Aytgil, do'stim, nima qildik vatan uchun?

Shu soylardan suvlar urgin yuzingga sen,  
Bir bor nazar solgin bosgan izingga sen,  
Shu savolni berib ko'rgin o'zingga sen,  
Aytgil, do'stim, nima qildik vatan uchun?

*Iqbol Mirzo*

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Shoir o'z she'rida kimga murojaat etadi?
2. She'r mazmunini o'z so'zingiz bilan gapirib bering.
3. Bu she'rdan qanday xulosa chiqarish mumkin?
4. She'rni yod oling.

### **Qo'shma gaplar**

(Сложные предложения)

Сложные предложения состоят из двух или нескольких частей, соединенных между собой союзами или бессоюзной связью в целостное структурно-смысловое и интанационное единство. *Например:* Iyul oyining quyoshi hamma yoqni olov seli bilan to'ldirgan; havo allaqanday oq alanga bilan jimgina yonganday... (O.)—Июльское солнце залило степь огненным зноем, раскаленный воздух струился бесцветным, чуть заметным глазу пламенем... Uning mo'ljali besh-olti kilometr yurib qaytish edi, biroq yangi mashina... havasini keltirdi.

(A.Q.)—Сначала он хотел проехать несколько километров просто так,... но новая машина ... тянула прокатиться с ветерком.

В первом сложном предложении в структурно-смысловое единство входит две части соединенные между собою бессоюзной связью: 1) iyul oyining quyoshi hamma yoqni olov seli bilan to'ldirgan, 2) havo allaqanday oq alanga bilan yonganday. во втором — две части, соединенные между собою союзами biroq: 1) uning mo'ljali besh-olti kilometr yurib qaytish edi; 2) yangi mashina havasini keltirdi.

**1-mashq.** *Gaplarni sodda gaplarga ajratib kochiring va bosh bo'laklarini toping. Sodda gaplarning bog'lanishiga e'tibor bering.*

1. Uzoqdan ko'ringudek bo'lsa, kattay-u kichik ... salom berib turadi.(O'.U.) 2. Iqbolxon o'g'lining yomon ish qilganini eridan chalachulpa eshitgan bo'lsa-da ... ammo uning aybi u qadar og'imasdir, deb o'ylardi. (O'.U.) 3. Yong'oqning yana bitta fazilati bor: qorinni to'q tutadi.(O'.U.) 4. Har kimning ko'ziga cho'p solishi mumkin, har kim har kimga xiyonat qilishi mumkin, faqat ona o'z bolasiga hech qachon xiyonat qilmaydi.(O'.H) 5. Ismat dalaga chiqsa-yu, pochmani Qunduzoy tashisa bo'lmaydimi? (A.Q.)

## **2-mashg'ulot**

### **Xalq sayllari**

#### **Sumalak sayli**

**Topshiriq.** Navro'z bayramida pishiriladigan taomlar ro'yxatini yozing.

Sumalak xalqimizning ardoqli shodiyonasi—Navro'zning ko'rkidir. Sumalak— Navro'zning shoh taomi bo'lib, u ilk ko'klam darakchisi, hosildorlik, to'kin-sochinlik, ahillik, tansihatlik va ezgulik timsolidir.

Sumalak nomli tansiq va shifobaxsh taomning kelib chiqishi tarixi o'z ajdodlarimizning ibtidoiy yig'im-terimchilkdan dehqonchilikka o'tish davrlariga borib taqaladi. Tarixchilarning ta'kidlashicha, bundan 3000 yil ilgari ham O'rta Osiyo aholisi o'rtasida bahorni kutib olish, qishloq xo'jalik ishlarini boshlash arafasida endi unib chiqqan ko'm-ko'k o'to'lanlardan maxsus taomlar tayyorlab yeyish odati bo'lgan.

Tabiiyki, "sumalak" so'zining ma'nosi va bu g'aroyib ne'matni tayyorlash udumining tarixiy asoslari ko'pchilikni qiziqtiradi.

Buyuk tilshunos Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devonu lug'at-it turk" asarida yozishicha, "suma" ivitilgan bug'doy nomi. U quritib tuyiladi, so'ng undan ugra oshi pishiriladi. Sharbat qilish uchun undirilgan arpaga ham "suma" deyiladi. Demak, "suma" — ivitilgan bug'doy yoki arpa ma'nosini anglatuvchi qadimgi turkiy so'zdir. Shu boisdan sumalak pishirish udumi O'rta Osiyoda yashagan turkiy qavmlar orasida qadimdan keng rasm bo'lgan, deb xulosa chiqarish mumkin.

Ma'lum bo'lishicha, dastlab sumalakni bug'doydan emas, balki ... arpa maysasidan qilishgan ekan. Mahmud Qoshg'ariy "Sharbat qilish uchun undirilgan arpa ham qo'llanilishini alohida ta'kidlagan bo'lsa, Beruniy yozib qoldirgan afsonada odamlar "Barokatga erishish uchun tos yoki boshqa idishlarga arpa ekkani"ligi ma'lum qilingan.

Sumalak Muhammad payg'ambar yashagan davrda ham ma'lum bo'lgan. Beruniy bergan ma'lumotlarga qaraganda, Muhammad payg'ambarga sumalak keltirib berishganda, u bu nima ekanligini so'raydi. Unga "sumalak - Navro'z taomi" deb tushuntirishadi. Shunda payg'ambarimiz sumalakni tatib ko'rib, "Har kuni Navro'z bo'lsin!" deydi.

Ayrim tarixchilar "sumalak" forscha "Samoni" — bug'doy maysasi so'zidan kelib chiqqan, deb ham ta'kidlashadi. Shuningdek, "sumalak" "si malak" so'zidan olingan degan taxminlar ham bor. "Si malak — o'ttiz pari, o'ttiz farishta" degani. Sumalak pishayotganda, qozon boshida o'ttiz malak o'ttirar emish. Ular yordamida sumalak pishar ekan. Tong mahali, hamma charchab, uxlab qolganida, farishtalar sumalakka tuz soladilar va u shirin bo'ladi.

Demak, sumalak pishirish udumi ramziy ma'noda "uyquga ketgan" o'simliklar dunyosining erta ko'klamda qayta uyg'onishi haqidagi qadimiy xalq qarashlari asosida kelib chiqqan.

Naql qilishlaricha, tongga yaqin sumalakni kovlayotganlarni uyqu elitib, ular pinakka ketgan paytda osmon-u falakdan uchib kelgan maloyikalar qozonga tuz tashlab ketarmish. Sumalakka tuz solinmasligi va uning quyosh chiqqan paytda suzilishi qadimgi udumlar bilan bog'liqdir.

## **2-mashq.** *Topishmoqlarni daftaringizga yozing va yod oling.*

Gulsiz bo'lar mevasi,

Shirin-shakar donasi (*anjir*).

Usti osh, ichi tosh, tosh ichida yana osh (*o'rik*).

Mevasi har narsadan oldin pishar,

Qoqsangiz tagiga duv-duv tushar.

Barglari jonsizga jon kiritar,  
Elu xalqqa shoyi, atlas kiygizar (*tut daraxti*).

Pak-pakana bo‘yi bor,  
Yetti qavat to‘ni bor (*piyoz*).

Bir barmoqcha bo‘yi bor,  
Qizil bahmal to‘ni bor (*garimdori*).

To‘rt birodar asl, soz,  
Mehmon bo‘lar birma-bir,  
Qancha qilma iltimos,  
Birga kelmas baribir (*4 fasl*).

Ildizi oltin qoziq,  
Yerdan olinar qazib.  
Yuvsang bo‘lar cho‘g‘ olov,  
Usiz pishmaydi palov (*sabzi*).

Shoxlardagi oq munchoq,  
Duv to‘kildi bahorda,  
Yesang uni shu choq,  
Ta‘mi asal, top o‘rtoq (*tut*).

## Qo‘shma gap turlari

(Типы сложного предложения)

Структурно-семантические отношения между частями сложного предложения выражаются при помощи различных союзов или бессоюзной связью. По этому признаку все сложные предложения разделяются на союзные и бессоюзные. *Например*: Yomonlik o‘ldi, yaxshilik tug‘ildi.— Плохое умерло, родилось хорошее. Goh quyosh chiqadi, goh yomg‘ir yog‘adi.— То светит солнце, то идет дождь.

Союзное сложное предложение предложение может быть сложносочиненным. (*bog‘langan qo‘shma gap*) или сложноподчиненным (*ergashgan qo‘shma gap*). Части сложноподчиненных предложений связываются между собой сочинительными союзами, сложноподчиненных — подчинительными союзами, союзными словами и грамматическими формами. *Например*: Yo‘lchi ... onasining salomini topshirdi, ammo kekkaigan xotin uning so‘zini



tinglamadi, eriga qarab so‘zladi.(O.)— Йулчи ... передал привет матери: но спесивая старуха, даже не слушая гостя, обратилась к мужу. Bada orasi juda issiq, go‘yo quyoshning butun olovi beda ichiga yashiringanday... (O.)— В клевернике — духота: казалось весь свой жар в течение дня солнце скапливало именно здесь.

Сложным называется предложение, состоящее из двух или нескольких предикативных частей, образующих смысловое, структурное и интонационное единство. *Например:* Biz turli mamlakatning fuqarolarimiz.

Сложные предложения могут быть сложносочиненными (bog‘langan qo‘shma gap) и сложноподчиненными (ergashgan qo‘shma gap), а также бессоюзными (bog‘lovchisiz qo‘shma gap).

### **Bog‘langan qo‘shma gaplar** (Сложносочиненные предложения)

Сложносочиненными называются такие сложные предложения, предикативные части которых соединены в одно смысловое и структурное целое сочинительными союзами и некоторыми частицами.

При помощи следующих союзов и частиц выражаются различные отношения между частями сложносочиненного предложения:

Va, ham, hamda: *Cholning gapi hammani xayratda qoldirdi va o‘tirganlardan hech kim bir narsa demadi.*

Ammo, lekin, biroq, balki, esa: *Rejani ortig‘i bilan bajardik, ammo xali dalada paxta ko‘p.*

Yo, yoki, yohud, goh, ba‘zan, dam, na: *Bugungi majlisda yo sen, yo Sodiq gapiradi.*

-U,-yu, -da: *Doklad tugadi-da, kurs ishi muhokama qilindi.*

**3-mashq.** *Quyidagi soda gaplardan tegishli bog‘lovchilar yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar tuzing, zarur tinish belgilarini qo‘ying.*

1. Qo‘rboshining chap ko‘zi yumuq. O‘ng ko‘zida qandaydir yomon o‘t yonib turardi. 2. Men o‘zimning kimligimni sizga aytib berdim. Siz o‘zingizning kimligingizni aytib bermadingiz. 3. Yaxshi nom chiroyli so‘zlar uchun berilmaydi. Mehnat natijasi uchun beriladi. 4. Narigi uydan musiqa ovozi eshitilar. Qizlarning kulgisi jaranglar edi. 5. Yigitlarda shuncha hunar bor ekan. Bilmay yurgan ekanmiz.

## O'zbekiston

**Topshiriq:** Savollarga javob bering.

1. O'zbekistonning o'tmishi haqida nimalar bilasiz?
2. Sobiq Ittifoq davrida O'zbekiston aholisi va milliy boyliklariga qanday munosabatda bo'lingan?

Bu yurtni qadimda o'z yurti Turon, arablar Movaraunnahr, keyinroq Turkiston, podsho Rossiyasi O'rta Osiyo deb atab kelishgan. U O'rta Osiyoning markaziy va shimoliy qismida joylashgan. Maydoni jihatidan Fransiyaga teng, aholisi 20 milliondan oshiq va uning 70 foizini o'zbeklar tashkil etadi.

Avlodlari turklar bo'lgan o'zbeklar diyori necha asrlar chet el bosqinchilari tomonidan talandi, vayronaga aylantirildi. O'zaro feodal urushlar, mustamlakachilik siyosati, Oktabr to'ntarishidan keyingi markazga qaramlik va asosiy xom ashyo manbaiga aylanish xolatlari O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini sekinlashtirdi. Shunga qaramasdan, bu yurt xalqi madaniy merosi, ilg'or ma'naviyatini saqlab qoldi.

1991 – yil 1-sentabrda O'zbekiston respublika deb e'lon qilindi. O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida jahon mamlakatlari tan olishdi. Endilikda uning rivojlangan, sanoati yuksak davlatlar, ayniqsa, Turkiya, Eron, Olmoniya bilan iqtisodiy aloqalar kengayib bormoqda.

O'zbekistonda 1992 – yilda 12 ta viloyat, 100 ga yaqin shahar, 97 ta shaharcha, 143 ta qishloq tumani bor edi.

**Topshiriq:** Savollarga javob bering.

1. O'zbekistan Respublikasi qayerda joylashgan?
2. O'zbekistonning poytaxti qaysi shahar?
3. O'zbekistonda qancha aholi yashaydi?
4. O'zbekistonda qaysi millat vakillari bor?
5. O'zbekistondagi qaysi shahar va qishloqlarni bilasiz?
6. Respublikamiz qanday boyliklarga ega?
7. Respublikamizning qadimiy va navqiron shaharlari qaysilar?
8. O'zbekiston o'zining qanday boyliklari bilan mashhur?

### **Lug'at**

mustaqil til sifatida —	в качестве самостоятельного языка
shakllana boshlamoq —	формироваться
umumxalq —	всенародный

vujudga kelmoq —	быть созданным, появиться, возникнуть осуществиться
adabiy til —	литературный язык
rivojlanishda —	развитии
amaliy isbotlamoq —	практически обосновать
nazariy asoslab bermoq—	теоретически обосновать
til masalalariga bag'ishlangan —	посвященный вопросам языка

### Suhbat tashkil etish uchun namuna

- O'zbekistonda bog'lar ko'pmi?
- Ha, O'zbekistonda bog'lar ko'p, ko'kalamzor respublika.
- Unda qanday daraxtlar o'sadi?
- Unda mevali va mevasiz daraxtlar o'sadi.
- Qanday mevali daraxtlarni bilasiz?
- Olma, o'rik, shaftoli, nok, gilos, olcha, olxo'ri, yong'oq, behi kabi mevali daraxtlarni bilaman.
- Mevasiz daraxtlardan-chi?
- Mevasiz daraxtlardan terak, tol, qayrag'och, archalarni bilaman.
- O'zbekistonda uzumzorlar, olmozorlar, anorzorlar va anjirzorlar bormi?
- O'zbekistonda uzumzorlar, mevazorlar hamma viloyatlarda uchraydi.


### Suhbat uchun savollar

- Siz qaysi shaharda yashaysiz?
- Shahringizda qanday madaniy muassasalar bor?
- Sanoat korxonalari, oily o'quv yurtlari ham bormi?
- Klublar, kinoteatrlar va konsert zallari-chi?
- Shaharingizda qanday sport inshootlari mavjud?

## 3-mashg'ulot

### Navro'z tantanalari

*Atrof yam-yashil bahor chog'ida  
O'sibdi gullar, Vatan bog'ida.  
Bahorni maqtab, qushlar sayraydi.  
Bahor qo'ynida, barcha yayraydi.  
Gullar sayliga qv nab yelamiz.  
To'yib husnidan o'ynab kulamiz.*



Navro‘z xalqimizning ona-Yerga, u barpo etgan ehsonlarga muhabbat bilan munosabatda bo‘lish kerakligini uqtirgan, targ‘ib etgan. Navro‘z dehqonlarning bahorda dastlabki dala ishlarini boshlashlari bilan bog‘liq marosimdir. Navro‘z kelgach, yerlarni shudgorlash, don, ekin ekish boshlanadi.

Navro‘z kunlari mamlakatlar, shohlar orasida har qanday urushlar, janjalli masalalarga chek qo‘yilgan, kishilar orasidagi xafachiliklar unutilgan. Navro‘z kunlari butun xalq xushchaqchaqlik bilan xordiq chiqargan. Matr oyining boshlanishi bilan qariyalar yangi mavsum rejalari xususida fikrlashganlar, ko‘plab masalalar xususida maslahatlashib olganlar. Navro‘z bayrami 21-mart kunlari xalqimiz katta tayyorgarlik bilan o‘tkazadigan bahor bayrami hisoblanadi. Navro‘z bayramiga bahor oylarida o‘tkaziladigan barcha udum, marosimlarni kiritish mumkin. Navro‘z quyoshning saraton burjiga kirish paytiga to‘g‘ri kelar edi. So‘ngra u orqaga surilgach, bahorda keladigan bo‘ldi. Endi u butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya‘ni bahor yomg‘irining dastlabki tomchisi tushishidan gullar ochilguncha, daraxtlar gullashidan mevalar yetilguncha, o‘simlik unib chiqa boshlashidan takomillashgunicha davom etgan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro‘z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan, deb hisoblanadi. Biz Navro‘z bayramini tayyorlash va o‘tkazish jarayonida uning asrlar osha bizga qadar yetib kelgan xalqchil an‘analarini tiklashimiz, uni zamonamiz, xalqimiz

manfaatlari, hayoti, maqsad-umidlari bilan bog‘liq holda rivojlantirishimiz lozim.

## **Bog‘lovchisiz qo‘shma gap**

(Бессоюзное сложное предложение)

Части бессоюзного сложного предложения в узбекском языке связывается друг с другом без помощи союзов или союзных слов, то есть по смыслу, интонацией.

Простые предложения в составе бессоюзного сложного предложения выражают одновременные или последовательные действия. При этом содержание простых предложений сравниваются между собой, или последнее поясняет содержание первого. *Например:* Havo musaffo, osmon tiniq. — Свежий воздух, яснонебо. Men his qilaman: yuzlarimda qonlarim izi... — Я чувствую: вся кровь моя в лицо мне кинулась...

Содержание компонентов бессоюзных сложных предложений выражается в устной речи равноправной интонацией, на письме — знаками препинания.

**4-mashq.** *Qo‘shma gap turlarini aniqlang. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni ko‘chiring va sodda gaplar o‘rtasidagi munosabatni tushuntiring.*

1. Rahmat olgan omondir, La‘nat olgan yomondir. (Maqol) 2. Ishlaring yomon bo‘lsa ham, chidamli bo‘l. (Maqol) 3. Qo‘zing og‘risa, qo‘lingni tiy, iching og‘risa, nafsingni tiy. (Maqol) 4. Yo‘lbarsdan po‘st qolar, odamdan nom. (Maqol) 5. Jon do‘sting jondan kechsa ham, mol do‘sting moldan kechmas. (Maqol) 6. Do‘st ko‘p — boylik ko‘p. (Maqol) 7. Odamning qo‘li gul — cho‘lni bo‘ston qiladi. (Maqol)

**5-mashq.** *Matni ifodali o‘qing.*

### **Yulduzli tunlar**

(asardan parcha)

Yigirma uch yoshli Humoyunning yigit yuragi kasallikni axiri yengdi. Oradan bir hafta o‘tgach, u kasal ko‘rishga kelganlarni o‘rnidan turib qabul qildi. Yana ikki kundan so‘ng otasini borib ko‘rish uchun o‘zi uydan chiqdi.

Bobur kutubxonaning xonai xosida qadimiy bir qo‘l yozmani o‘qib o‘tirgan edi. Humoyun uning qarshisida tiz cho‘kib:

— Men sizning iltijongiz bilan shifo topmishmen! — dedi.

— O‘zimga kelganimdan beri xudodan tilaymenki, siz men uchun qilgan tasaddiqni dargohida qabul etmasin! Bu ulug‘ davlatni barpo

etdingiz, hammamizning suyangan tog'imiz o'zingizsiz! Parvardigor bizga rahm qilsin!

— Mana, shukur, yuribmen-ku, o'g'lim. Hozirgi isitma-yu uyqusizlik menda bulturdan beri bor.

— Ruhoniylar: Hazratim o'g'liga kelgan naqd ajalni o'zlariga oldilar", — deb ko'nglimga g'ulg'ula solmoqdalar!

— Sen nechun ularga ishonursen? Boshimizga og'ir kun tushganda shayxulislom menga o'z hukmini o'tkazmoqchi bo'ldi. Mana, xayriyat, tuzalib ketding. Agar o'shanda uning gapiga kirib, ko'hinur olmosini tasadduq qilsam, ruhoniylar g'olib chiqmasdimi? Humoyunni biz qutqarib qoldik, podshohdan ham biz zo'rmiz!" deb tantana qilmasmidi? Seni bir umrga qarzdor qilib qo'yasmidi?

— Ilohim, siz haqingizdagi karomatlari ham yolg'on chiqsin!

— Har qalay, sen bir narsani unutma. Ruhoniylar podshohning tepasiga chiqib olsa, tamom! Samarqanddagi Abdullatifning inqirozi-yu, otaga qarshi qilich ko'tarishi shundan boshlangan.

— Toki tirikmen, bu o'gitingizni yodimdan chiqarmasmen!... Endi... hazratim, Saibhal chegarasida yana tajovuzlar bo'lmoqda emish. Men ertaga jo'nab ketay, ijozat bering.

Bobur hozir aytmoqchi bo'lgan so'ziga alohida e'tibor talab qilib, bir lahza jim turdi.

— Humoyun, Bayda menga zahar bergandan beri hech o'zimga kelolmaymen. Qolgan kuchim ijodga yetsa ham xo'p gap. Endi davlat yukini sen yelkangga olmog'ing kerak. Mayli, Saibhalga borib, chegarani tinchitgin-u, o'rningga Hindubekni hokim qilib, darhol Agraga qaytgin.

\* \* \*

Yong'ir fasli o'tib, osmon yana bulutlardan tozalandi, tunlar salqin bo'lib qoldi. Bobur uyqusiz tunlarda boqqa chiqar va yulduzlarni tomosha qilgisi kelib, osmonga qarardi. Lekin tanida isitmaning balandligidan osmondagi yulduzlar joyidan ko'chib, girdobga tushib aylanib ketayotganday ko'rinar, ko'ngli behuzur bo'lib, osmondan darhol ko'zini olardi.

Kunduz saroyda davlat ishlarini qilgan paytlarida goh shayxulislomni, goh nufuzli a'yonlarni uchratar, ular Boburga avvalgidan ham pastroq, egilib ta'zim qilishar, lekin o'lishi muqarrar bo'lgan bemorga qaraganday musibatli ko'zlar bilan qarashar, muomalalaridagi alohida muloyimlik ham shundan dalolat berar edi. Ularning e'tiqodiga binoan, Bobur o'z hayotini o'g'liga qurbon qilgan, shuning uchun Humoyun tuzalib

ketgan, endi ko'zga ko'rinmas ajal qilichi Boburning boshi ustida osilib turar edi.

Ochiq aytilmaydigan, haddan ortiq mayin gaplar, ta'zim tavozelar ostiga yashiriladigan bu mash'um ishonch Boburga juda og'ir ta'sir qilar, atrofida aylanib yurgan o'lim sharpasini uning o'zi ham sezganday bo'lar edi.

Mezon o'tib, qavs oyi kirganda Boburning kasalligi battar og'irlashdi. Biror joyida shish yoki yara yo'q, nuqul ichi kuyadi, isitmasi ko'tarilib, uxlay olmaydi, rangi kun sayin so'lib boradi. Mavlono Yusufiy mamlakatning eng mashhur tabiblaridan uch-to'rttasini chaqirtirib maslahatlashdi. Bemorning tomiridan qon olib ko'rishdi, qoni rangi sog'lom odamnikidek tiniq emas, allanechuk iriganga o'xshab qolgan edi.

Tabiblar o'zlari kengashib, Malika Bayda bergan zaharning qonda asorati qolgan", degan xulosaga keldilar va qonni tozalaydigan dorilardan, anor suvidan ko'proq berishni buyurdilar.

Lekin bu narsalarning hech biri kor qilmadi. Bobur holsizlanib yotib qolgach, Humoyunga chopar yuborishdi.

Humoyun kelsa, otasi o'z xobgohida baland oq to'shakda terga botib yotibdi. Rangi sap-sariq bo'lib ketgan. Boburning bosh tomonida Xonzoda begim pat yelpig'ich bilan uning yuzini yelpiyapti. Oyoq tomonida Mohim begim g'am-g'ussaga botib, haykalday beharakat o'tiribdi.

Humoyun tiz cho'kib, otasining to'shagini quchoqladi. Boburning ozg'in qo'lini o'pib ko'rishdi, so'rashdi, so'ng otasining bu ahvoliga o'zi sababchi bo'lganday yonib gapirdi:

— Nechun bizga bunchalik jon fido qildingiz, hazratim?

Bobur majolsiz tovush bilan:

— Sen buni o'zingdan ko'rma, — dedi. — Illat qonda emish. Bilmadim... Har qanday olov ham yonib-yonib axiyri bir kun... — Bobur „o'chadi" demoqchi bo'ldi-yu, lekin ayollarni ayadi: — alangasi pasayadi. Men umr bo'yi ayovsiz yondim.

— Biz uchun ham kuyib-yongansiz! Endi bu qarzlarni uzishga mening butun umrim yetmagay!

— Qarzingni menga uzolmasang... farzandlaringga uzarsen...

Bobur to'xtab-to'xtab so'zlayotgan bo'lsa ham, ko'nglidagi gaplarni ravon aytayotgani Humoyunni umidlantirdi. U otasining so'zini bo'lmay, jim quloq sola boshladi.

— Temuriylarning ko'pchiligi... fidoyilikni unutib ... yo'q bo'lib ketdi. O'g'il otani o'ldirdi. Og'a iniga xiyonat qildi... Oqibatda... bari razolatning qurboni bo'ldi.. Undan ko'ra... yaxshilikning fidosi bo'lgan

yaxshi emasmi?.. Mana, amming Xonzoda begim... Samarqandda meni qutqarib, o'zini asoratga soldi. Bu fidoyilik meni hamisha... shunday bo'lishga undab keldi... Sen ham endi inilaring-u... avlodlaringni mardlikka... fidoyilikka o'rgatgin.

Bobur to'shakning orqa tomonidagi harir oq pardaning ortiga boshini burib qaradi. Parda ortida odam borligini Humoyun endi payqadi.

— Tohirbek, juzdonni keltiring, — dedi Bobur.

Shu vaqtgacha qimir etmay o'tirgan Tohir endi tez o'rnidan turdi-yu, tokchadagi katta charm juzdonni ichida yangi muqovalangan qo'lyozmasi bilan ikki qo'llab ko'tarib keldi.

— Badaxshonda, "Vaqoye"ni so'ragan eding, — dedi Bobur Humoyunga. — Mana, yozib tugatdim, ol.

Tog'lar orasida Boburning: Bu kitob bitganda mening umrim ham tugagay!" — degani Humoyunning yodiga tushdi. U juzdon ichidagi kitobni olib peshonasiga surib o'par ekan, ko'zidan tirqirab yosh chiqib ketdi. Yirik bir yosh tomchisi zarhal muqova ustiga tomib tushganini Bobur ham ko'rdi.

—Sendan iltimosim, — deb davom etdi Bobur. — Buni avlodla-ring ham o'qisin... xatolarimni takror etmanglar. Yaxshi ishlarim... oz bo'lsa, ko'paytiringlar. Bu kitobdan nusxalar ko'chirtirib, Samarqandga... Toshkentga... Andijonga... munosib odamlarga yuboringin... Men tug'ilgan yurt bilan aloqani uzmanglar, bitgan kitoblar... ikki oradagi aloqaning rishtalari bo'lsa...

(*Pirimqul Qodirov*)

### **Matnga doir lug'at:**

xonai xos; xobgoh	—спальня, мольба
dargoh	— дом, дворец
Ko'hinur olmosi	— алмаз Кухинура
karomat	— чудо, предсказание
ruhoniylar	— духовенство
inqiroz	— упадок
o'git	— добрый совет
girdob	— пучина
mezon	— мизон (название седьмого месяца)
qavs	— кавс (название девятого месяца)
asorat	— осложнение
hazrat	— величество
majolsiz	— бессильный, слабый
illat	— болезнь, недуг



razolat —  
“Vaqoye” —

подлость, низость  
прежнее название «Бабур-наме»

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Humoyun otasining kasalligiga nima uchun o‘zini sababchi deb biladi?
2. Boburning kasal paytidagi ruhiy holatini tasvirlab bering.
3. Bobur sog‘lig‘i haqida tabiblar qanday xulosaga keldilar?
4. Bobur o‘limi oldidan Humoyunga qanday vasiyat qildi?
5. Bobur “O‘g‘il otani o‘ldirdi” deganda kimni nazarda tutadi?
6. Eng oxirgi jumalarni o‘qing va mazmunini tushuntiring.

## **4-mashg‘ulot**

### **Bayram libosini kiyamiz**



## **Kiyinish madaniyati**

Hadislarda yurish-turish, pokiza va chiroyli kiyinish, ovqatlanish va safar qilish, mehmondo‘stlik, ozodalik kabilarga juda katta e‘tibor berilganki, bunday hadislar yoshlarni ovqatlanish odobiga, pokiza yurishga, mehmondo‘stlikka undaydi:

-Liboslaringizni chiroyli qilinglar, ot-ulovlaringizni yaroqli tutinglar, yuzdagi holdek odamlarga namuna bo‘linglar!

-Oddiy kiyinish ham iymondandir.

-Omonatga olib kiyingandan ko‘ra, qirq yamoqli bo‘lsa-da, o‘z kiyimida yurgan yaxshi.

-Kim soch qo'ygan bo'Isa, uni e'zozlab toza va tartibli tutsin!  
-Mo'min mo'minning ko'zgidir. Unda biror kamchilik yoki nuqsonni ko'rib qolsa, darhol tuzatib qo'ysin.

### **Topshiriq.**

1. Matnni qayta hikoya qiling.
2. Kiyinish madaniyati haqida fikr bildiring.
3. Qayerga qanday kiyinib borish mumkin emas?
4. O'zingizga yoqqan liboslar eskizini chizing.
5. Pokiza kiyinish deganda nimani tushunasiz?
6. Libos va bosh kiyimlar nomi yordamida krossvord yoki klasster tuzing.

**6-mashq.** *Xadislardan namunalarni o'qing va yodda tuting. Miqdor va miqdor darajasini ifodalovchi so'zlarni ajratib yozing.*

-Esnasa, og'zini qoli bilan to'ssin.

-Tez yurish mo'minning chiroyini ketkazadi.

-Taomning barakasi— undan oldin va keyin qo'l yuvishdir.

-Uyqudan uyg'ongan odam qo'lini to uch marta yuvmaguncha idishga tiqmasin, chunki qo'li qayerlarda tunaganini bilmaydi.

-Qo'llarida ovqatdan qolgan yog' qoldiqlari bilan yotib uxlagan odamga biror kasallik yopishsa, o'zidan ko'rsin.

-Odam tanasida qorindan yomonroq idish yo'qdir. Inson bir necha osham ovqat bilan kifoyalanadi. Agar zarur bo'Isa, qorinning uchdan birini ovqatga va yana uchdan birini suvga, qolgan uchdan birini nafas olishga ajratsin.

-Odamlar bilan do'stlashish aqlning yarmiga teng.

-Kim-kimni do'st tutsa, shu sevgisini bildirib qo'ysin.

-Insonning kamol topishida to'g'rilik, rostgo'ylik, kamtarlik, yuvoshlik sifatleri haqidagi hadislar ham mavjuddir.

-Kimki o'zini kamtar tutsa, uning martabasi va obro'si ziyoda bo'lur.

-Kimgaki aql-u idrok nasib etilgan bo'Isa, demak, u omadlidir.

-Baxtli odam fitna-fasodlardan chetlab yuruvchi va musibatga sabr qiluvchi kishidir.

-Tinchlik va xotirjamlik ikki ne'matdirki, bundan ko'p odamlar mahrumdirlar.

**7-mashq.** *Miqdor va miqdor darajasini ifodalovchi gaplarni ajratib, daftaringizga yozing.*

### **Amir Temur o'g'itlari**

1. Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab tadbirsiz loqayd kishilardan yaxshidir.

2. Bir ishga kirishmay turib, undan qutulib chiqish yo'llarini mo'ljallab qo'y.

3. Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni, bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin.

4. Har kimning qadr-qimmatini, tutgan mavqeini va har narsaning o'lchovini belgilab olishing va shunga muvofiq ish yurutishing kerak.

5. Yaxshini – yomon kunda sina.

6. Sodiq va vafodor do'st ulkim, o'z dostidan ranjmaydi, do'stining dushmanini o'z dushmani deb biladi. Agar kerak bo'lsa, do'st uchun jonini ham ayamaydi.

7. Aqlli dushman, johil-u nodon do'stdan yaxshiroq.

8. Agar dushmaning bosh urib panohingga kelsa, rahm qilib yaxshilik va muruvvat ko'rsat.

9. Chin do'st uldirki, do'stidan hech qachon ranjmaydi, agar ranjisa ham, uzrini qabul qiladi.

10. Bugungi ishni ertaga qo'yma.

**8-mashq.** *O'qing, fe'llarning qaysi zamon, shaxs va sonda ekanligini izohlang.*

1. Men bu yil hamma fanlardan faqat "besh" bahoga o'qimoqchiman. 2. Siz shaxmat to'garagiga qachon yozilmoqchisiz? 3. U senga bu to'g'rida gapirmoqchi emas. 4. Yozda ota-onam, men va ukam So'qoqda dam olmoqchimiz. 5. Bir kalima shirin so'z qilichni qinga kiritar. 6. Dushmandan qo'rqma, munofiqdan qo'rq. 7. Do'stlik - sinovda chiniqadi. 8. Eng baland minora ham yerdan ko'tariladi. 9. Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi. 10. Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar. (A.Temur).

## 5-mashg'ulot

### Navro'z bayramida tashkil etiladigan xalq o'yinlari

#### *Ma'lumot*

Milliy qadriyatlarimiz sirasiga urf-odatlar qatori folklor o'yinlari ham kiradi. Xalq o'yinlaridan "ko'pkari", "uloq", "kurash", sayllar va aytishuvlar kiradi.

#### *Savol va topshiriqlar:*

1. Milliy kurash o'yinlariga nimalar kiradi?
2. "Kupkari" o'yinlari qanday tartibda tashkil etiladi?
3. "Uloq" o'yini haqida ma'lumot bering.
4. "Xalq o'yinlari" mavzusida insho yozing.

**9-mashq.** *Qavs ichidagi fe'llardan kelasi zamon maqsad fe'llari yasang va rus tiliga tarjima qiling.*

1. Men Usmon Nosirning "Yurak" she'rlar to'plamini (sotib olmoq)  
2. Bog'imizga ko'p mevali daraxtlardan (ekmoq). 3. Sen o'zbek tili o'qituvchimiz aytgan to'garakka qachon (yozilmoq)? 4. Odil shaxmat to'garagiga (yozilmoq). 5. Siz sayohatga qachon (bormoq)? 6. Sayyora bugun kutubxonaga (bormoq) emas.

**10-mashq.** *Gaplarni lug'at yordamisiz rus tiliga tarjima qiling.*

1. Chorasi bo'lmagan ishga kirishma, chunki undan qutulib bo'lmaydi.  
2. Kuch – adolatdadir. 3. Bir kunlik adolat – yuz kunlik toat- ibodatdan afzal. 4. Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukur. 5. Filning dumi bo'lguncha, chumolining boshi bo'l. 6. Adovat emas, adolat yengadi (A.Temur).

**11-mashq.** *Nuqtalar o'rniga quyida berilgan qo'shma fe'llarni to'g'ri qo'llab o'qing va ko'chirib yozing.*

«O'zbek tili» kitobingizni bering, yangi matnni .... Aytning, Natasha uchinchi paragrafni .... 3. Siznikiga juma kuni .... 4. Bu lazzatli taomni ... . 5. Matn mazmunini o'zbek tilida ... . 6. Topshiriqni ular o'z vaqtida....

Nuqtalar o'rniga qo'yish uchun so'zlar: *ko'chirib olmoq, yozib olmoq, kela olmoq, eb olmoq, so'zlay olmoq, bajara olmoq.*

## 6-mashg'ulot

### “Xalq bayrami” mavzusida insho yozish

(rasmlar asosida)

**12-mashq.** *Matn asosida savollar tuzing. Ajratib yozilgan so'zlardan lug'at tayyorlang.*

#### Bola yig'isi

Onamning jahli chiqqanini kamdan-kam ko'rardim. Ammo bu gal juda qattiq achchiqlandi. **Opamnikiga** ketayotgan edik. Tor ko'chaga burilishimiz bilan yig'i ovozi eshitildi. Ko'cha chetida uch yoshlardagi bola yerga dumalab tajanglik bilan **chinqirar**, oppoq ko'ylagi, ishtonchasi qora tuproqqa belangan edi.

—Mashinani to'xtat, o'g'lim, — dedi onam xira tortgan ko'zlarini o'sha tomonga tikib.

—Nima edi?

—To'xtata qol, bolam, — deya onam **ma'yus jilmaydi**.

Ikkilanibroq to'xtatdim.

Onam inqillab-sinqillab eshikni ochib tushdi. Uvishgan **oyoqlarini uqalagancha** oqsoqlana-oqsoqlana orqaga, bola yigiyotgan tomonga qarab ketdi. Men ham beixtiyor ergashdim. Bola hamon yerga dumalar, har dumalaganda quloqni teshib yuborgudek chinqirar edi. Uning tepasida o'zi ham o'pkasini arang bosib turgan yoshgina juvonga endi e'tibor berdim.

— Jinni bo'lib qolgan bu, — dedi juvon yig'lamoqdan beri bo'lib. — Morojniy ober, dedi. Olib bersam bunaqa qilyapti.

Bola hamon chinqirib yig'lar, xarxasha qilar edi:

— Issiq manoj! Issiq manoj obering!

— Unaqasini qayoqdan topaman!? — Juvonning toqati toq bo'ldi shekilli, **dumalayotgan** o'g'lini yerdan yulqib ko'tardi. Orqasiga bir-ikki shapatiladi.

— Hoy, qizim, bola-ya bu, bola-ya! — onam chumchuqdek chirqillab juvonga yopishdi. — Kel, jonim, — dedi bolani bag'riga bosib. — Kela qol, o'zim senga issiq morojniy olib beraman.

Bola **yig'idan to'xtamadi**. Ammo avvalgidek tipirchilamasdi. Uning shunchalik jahlini chiqargan «sovuq manoj» oqib ko'ylak-chasining oldini shalabbo qilgan, **boshdan oyog'igacha loy edi**.

— Nimaga qarab turibsan? — dedi onam menga to'satdan.—Yo sen ham bolamisan? Bor, olib kel mashinangni. Hozir utaga boramiz. Di-ditga tushamiz-a?

**Rostini aytsam**, bolani shu ahvolda mashinaga o'tqazgim kelmadi. Chet eldan keltirilgan yangi parolon g'ilof olgan edim. Hammasini **rasvo qilib yuboradi** endi. Noiloj mashinani tislantirib olib keldim, qovog'imdan qor yog'ayotganini o'zim ham sezib turardim. Onam yoniga o'tirgan juvonga tushuntirdi:

— Bunaqada bola xuyli bo'lib qoladi, qizim. **Aldab-suldab ovuting-da**. Ana, di-ditga tushdik.

Bola endi yig'lamas, ammo o'pkasi to'lib to'xtovsiz hiqillar edi.

— Qayoqqa ketayotgan edinglar, o'rgilay? — dedi onam ayolni ham **yupatuvchi ohangda**.

Meni ona-bolaning qayoqqa borishi emas, o'rindiqning qancha joyi **loyga belangani ko'proq o'ylantirardi**.

Ayol chimirilib o'tirganimni sezdi shekilli, xijolat chekib shosha-pisha qo'l siltadi.

— Mana, keldik. Rahmat. Shu yerda trolleybusga chiqamiz.—U ovunib qolgan o'g'ilchasini ko'tarib shosha-pisha mashinadan tushdi.

— Katta rahmat, baraka topinglar.

Qarasam, xuddi **o'zim o'ylagandek**: o'rindiqning yarmi loyga belanibdi.

— Qiziqsiz, — dedim jahlimni bosolmay, — hammaning ishiga aralashaverasizmi?

— Nima hammaning ishi?

— **Birovning bolasi bo'lsa...** Yig'lasa, sizga nima? Yig'lab - yig'lab ovunadi.

— Nimaga birovning bolasi bo'larkan! — To'satdan onamning jahli chiqib ketdi. — Yig'lab turgan bolaning **begonasi bo'ladimi?** Uyalmasanmi shunaqa degani? Yig'lab turgan **norasidaga rahmi kelmagan odam** — odammi?

Indamadim. Ammo bari bir o'shanda onamni nohaq hisoblagan edim. Yo'q, chamamda, onalarning biz tushunmaydigan, bizning o'lchovimizga sig'maydigan **o'z olami borga o'xshaydi**.

## **Insho yozish talablari**

Insho so'zi "bayon qilmoq", "fikir bermoq" ma'nolarini anglatib, ikki turga bo'linadi: 1. Yaratilgan asar yuzasidan fikr bildirib yozilgan insholar. 2. Erkin fikr bildiruvchi insholar.

Shunga ko'ra insho rejaları ham ikki turli bo'ladi: sodda va murakkab rejalar.

Mavzuga doir sodda reja 4-5 qism bo'lishi mumkin:

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.

Murakkab reja 3 qismga bo'linib:

- I. Kirish
- II. Asosiy qism
- III. Xulosa bilan yoziladi.

### **13-mashq. Matni o'qing va qayta hikoya qiling.**

-Og'irlik va yuvoshlik insonning yutug'idir, uni tark etishlik esa ziyonkorlikdir.

Hayo to'g'risidagi hadislar, ayniqsa ibratlidir. Ularda hayo insonning ziynati ekanligi, iymonli bo'lish, odob-axloqqa zid xislatlardan saqlanish kabilar talqin etiladi:

-Hayo doimo yaxshilik keltiradi.

-Iymon qanchalik kuchli bo'lsa, hayo ham shunchalik kuchli bo'ladi.

-Hayo bilan kamsuqumlik iymonning ikki bo'lak qismidir.

-Ilmi hikmatda yozilganki, viqor ham, vazminlik ham hayo bilan bog'liqdir.

-Hayo yaxshiliksiz kelmagay (ya'ni, hayo bor yerda yaxshilik bor).

-Behayo ersang, istaganingni qil.

-Qaysi bir ishni odamlar oldida qilish uyat deb bilsang, uni yolg'iz qolganingda ham qilma.

### **7-mashg'ulot**

#### **Oraliq nazorat -1**

### **8-mashg'ulot**

#### **Qayerda yashaysiz?**

**14-mashq.** O'rin-joy nomlari ifodalagan so'zlardan lug'at tuzing.

1. Посреди комнаты стоит большой стол. 2. Поставьте этот телевизор посреди (на середину) стола. 3. На шкафу есть несколько

книг. 4. Положите эти вещи на шкаф. 5. Возьмите Ваши книги с этого стола. 6. Они взяли из-под кровати ковер и расстелили его посередине комнаты. 7. Этот стол мы поставим около двери. 8. В моем шкафу (внутри моего шкафа) хранятся разные бумаги, письма и книги. 9. Все бумаги я положил в новый шкаф. 10. Он взял из Вашего шкафа несколько книг. 11. Вокруг нашего предприятия (есть) много новых домов. 12. Почему вы не поставили все стулья вокруг большого стола? 13. В таких шкафах хранятся все книги вашей библиотеки? 14. В ее комнате справа стоит диван, (а) слева две новые кровати. 15. Сейчас Вы идите направо, (а) я пойду налево. 16. Машина подойдет сюда с левой или с правой стороны? С какой стороны придет сюда машина? 17. На нашей улице (у нас на улице) (есть) много больших новых домов. 18. На какой улице ты сейчас живешь? 19. Мы живем на улице Адылходжаева. 20. У Вас во дворе (в Вашем дворе) есть место для машины?

*15-mashq. Gaplardagi belgisi va belgisiz kelishiklar haqida ma'lumot bering.*

1. Xona(ning) o'rtasida katta stol ttribdi. 2. Bu televizorni stol(ning) o'rtasiga qo'ying. 3. Shkaf ustida bir necha kitob bor. 4. Shu narsalarni shkaf ustiga qo'ying. 5. Bu stoldan kitoblaringizni oling. 6. Ana u shkaf(ning) tagida nima bor? 7. Men katta gilamni divan oldiga solib qo'yaman. 8. Ular karovat(ning) ostidan gilamni oldilar va uni xonaning o'rtasiga solib qo'yidilar. 9. Divan yonida tumbochka turibdi. 10. Bu stolni biz eshik yoniga qo'yamiz. 11. (Mening) shkafimning ichida har xil qog'ozlar, xat(lar) va kitoblar saqlanadi. 12. (Men) hamma qog'ozlarni shkaf ichiga solib qo'ydim. 13. (Sizning) shkafingizning ichidan u bir necha kitob oldi. 14. Bizning korxonamiz atrofida yangi uylar ko'p. 15. Nega siz hamma stullarai katta stol(ning) atrofiga qo'ymadingiz? 16. Ikki deraza orasida, kichik stol(ning) ustida, televizor turibdi.

### **Ergashgan qo'shma gap**

(Сложноподчиненное предложение)

Сложноподчиненным называется такое сложное предложение, в котором одна из частей синтаксически подчинена другой части при помощи подчинительных союзов или союзных слов, относительных слов и грамматических форм. При этом подчиняющая (независимая) часть называется главной (*bosh gap*), а подчиненная (зависимая)—придаточной (*ergash gap*). Синтаксически зависимая часть называется придаточным предложением (*ergash gap*); часть, подчиняющая себе



придаточную, называется главным предложением (*bosh gap*). Обе части образуют структурно-семантическое единство, выражающее определенный тип семантических отношений.

### **Ergashgan qo'shma gap turlari** (Типы сложноподчиненных предложений)

В сложноподчиненном предложении придаточные могут относиться или к одному из членов главного предложения, или к нескольким членам, или к главному предложению в целом. При этом и образуются подчинительные отношения.

Основными видами подчинительных отношений между частями сложноподчиненных предложений являются отношения изъявительные, определительные, обстоятельственные. Такие подчинительные отношения в узбекском языке придаются следующими 14 типами придаточных предложений: *ega ergash gap* (придаточное предложение-подлежащее), *kesim ergash gap* (придаточное предложение-сказуемое), *to'ldiruvchi ergash gap* (придаточное предложение-дополнение), *aniqlovchi ergash gap* (придаточное определительное предложение), *payt ergash gap* (придаточное предложение времени), *o'rin ergash gap* (придаточное предложение места), *sabab ergash gap* (придаточное предложение причины), *maqsad ergash gap* (придаточное предложение цели), *shart ergash gap* (придаточное условное предложение), *to'siqsiz ergash gap* (придаточное уступительное предложение), *natiija ergash gap* (придаточное предложение следствия), *o'xshatish-chog'ishtirish ergash gap* (придаточное сравнительно-сопоставительное предложение), *daraja-o'lchov ergash gap* (придаточное предложение меры и степени), *ravish ergash gap* (придаточное предложение образа действия).

**16-mashq.** *Gaplarni ko'chiring. Bosh va ergash gaplarni namunadagidek ko'rsating, ular o'rtasidagi struktural-semantik bog'lanishga e'tibor bering.*

Namuna:

Agar ega bo'lsam yuz-ko'zga,  
Bari bilan qarardim sizga. (Pushkin)  
Chizmasi: 1.           -sam           2.

1. Agar Quyosh Yer yuzini isitsa, har bir ona o'sha xonadonni isituvchi va yoritguvchi quyoshdir. 2. Gapni cho'zma, chunki hayot qisqadir. 3. Oradan bir necha yillar o'tgach, o'sha oshnam bilan tasodifiy

uchrashib qoldim. (Shukrullo.) 4. Kim mehnatdan qochmasa, u e'tiborli bo'ladi. 5. Shu narsa esdan chiqmasinki, bir yigitga qirq hunar ham oz.

**17-mashq.** *Berilgan soddaga gaplardan ergashgan qo'shma gaplar tuzing. Biriktiruvchi vositalarni, ergash gap va bosh gapni aniqlang.*

1. Shoirning tovushi qahrli edi. Navkarlar qo'rqqanlaridan duduqlanib qoldilar. 2. Saodat she'ri chiroyli oqidi. Nodira sehrlangandek undan ko'zini uzolmay qoldi. 3. U keksaygan. Ko'zlarining o'ti so'nmagan. 4. Aka bilan uka qo'lni qo'lga berdi. Har mushkul oson. 5. Hammamiz bir yoqadan bosh chiqarib ishga kirishdik. Reja oshirib bajarildi.

## 9-mashg'ulot

### Ozodalik

*Topshiriq.* Rasmdagi tasvirni ta'riflab bering.



**18-mashq.** *Quyidagi so'z va so'z birikmalarini rus tiliga tarjima qiling va shular ishtirokida gap tuzing.*

Ozodalik garovi, ta'mirlash ishlari, yozuvchilar uyushmasi, yodgorlik, kutubxona ishlari, kitobxonlar, ijod davri, yaratildi, badiiy tarjima, o'ziga xos, ozodalik, mahorat.

**19-mashq.** *Qavs ichidagi ruscha so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qilib o'qing.*

1. Ilg'orning dadasi yozuvchilar (союз) a'zosi: 2. Kecha kutubxonada (книгалюбителей) yig'ilishi bo'ldi. 3. Usmon Nosirning (творческий период) juda qisqa bo'lgan. 4. Juda ko'p yozuvchilar va shoirlar (творческий перевод) bilan shug'ullanganlar. 5. Har bir o'quvchi (своеобразный) xususiyatga ega. 6. 9-«А» sinf o'quvchilari kechada (высокое мастерство) ko'rsatdilar. 7. Ular bobolariga (памятник) qo'ydilar.

**20-mashq.** *Quyidagi gaplarni o'qing, bosh bo'laklarni ajrating.*

1. O'zbekistonda tarixnavis olimlarimiz ko'p. 2. Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida Shirin obrazi vafodor, ijodkor, vatanparvar kabi fazilatlariga ega bo'lgan mukammal shaxs sifatida aks ettirilgan. 3. Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonuni» asari juda noyob asarlardan biridir. 4. Abu Rayxon Beruniyning «O'tmish zamonlarda qurilgan yodgorliklar» asari tengi yo'q ilmiy manbadir. 5. 1428-yil Ulug'bek qurdirgan rasadxona bizga meros bo'lib qoldi. 6. Boburning 122 ilmiy va adabiy merosini o'rganish, buyuk Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy davri va ijodini o'rganish bilan uzviy bog'liqdir. 7. O'rta Osiyolik mashhur olimlarning ko'p asarlari xorijiy tillarga tarjima qilingan.

**Ergashgan qo'shma gapning bog'lanishi**

Части сложносочиненного предложения соединяются в сложное целое с помощью:

1) подчинительных союзов chunki (так как), shuning uchun (поэтому), shu sababli (по этой причине); go'yo, go'yoki (как будто, будто); toki (до того), agar (если), -ki (-ким);

2) послелогов bilan, uchun, kabi и т. д.;

3) разных грамматических показателей;

4) относительных слов (местоимений);

5) подчинительной интонации. *Например:* Shunday odamlar bor-ki, o'zlarida hech nima yo'q, boshqaning mulkiga hasad qiladi...(O.)—  
Есть такие люди, которые сами не имеют ничего, но завидуют чужому добру. Oradan yarim soatcha o'tgandan keyin, Qalandarov kabinetdan qir-qizarib chiqdi. (A.K.) — Когда прошло полчаса времени, красный и злой Каландаров выскочил из секретарского кабинета.

В первом примере главная часть (bosh gap)—shunday odamlar bor (qanday odamlar?); а придаточная часть (ergash gap) — o‘zlarida hech nima yo‘q, boshqaning mulkiga hasad qiladi, присоединяемая к главному союзом—ki и относительным словам **shunday**. Во втором примере главная часть — Qalandarov kabinetdan qip-qizarib chiqdi (qachon?); а придаточная часть — oradan yarim soatcha o‘tgandan keyin, присоединяемая к главной грамматическими формами — gan + dan keyin.

Первое сложноподчиненное предложение выражает определительные, а второе временные отношения.

## 10-mashg‘ulot

### Vatan mahalladan boshlanadi

Mahalla— O‘zbekiston ma‘muriy hududiy birlik; o‘zini o‘zi boshqarishining xalqimiz an‘analari va qadriyatlariga xos bo‘lgan usuli.

Mahalla tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, jez davrining yodgorligi bo‘lgan Sopollitepada 8 ta oila yashagan. Ularni faqat ulug‘ jamoasigina emas, balki ichki manfaatlari ham birlashtirib turgan. Keyinchalik ularning safiga patriarxal tizim asosida 100 dan ortiq oilalar kelib qo‘shilgan. Katta oilalar jamoasini ular orasidan saylangan oqsoqol boshqargan. Oqsoqollar o‘z navbatida oily oqsoqollar kengashiga birlashgan. Oqsoqollar odatda, jamoa-qishloq hayoti bilan bog‘liq barcha masalalarni oily kengash orqali hal qilishgan.

“Mahalla” atamasi arabcha so‘z bo‘lib, “o‘rin-joy” degan ma‘noni anglatgan. U turli mintaqalarda mahallot (joy) , guzar, jamoa, elat, elod nomlarda atalib kelingan. Adabiyotlarda mahallalarning ko‘p ming yillik tarixga ega ekanligi haqida ma‘lumotlar uchraydi.

Mahalla hokimiyatning rasman quyi yuridik organiga aylandi. Mahalla vazifalari ancha kengaydi, u demokratik davlatning eng muhim bo‘g‘inlaridan biri.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov mahallaning hozirgi zamon jamiyatidagi mohiyati va ahamiyatiga quyidagi bahoni beradi: “O‘z-o‘zini boshqarishning xalqimiz an‘analari va qadriyatlariga juda xos bo‘lgan usuli—mahallalar tizimi so‘nggi yillarda juda katta nufuzga ega bo‘lib bormoqda. Ular amalda o‘z huquqlaridagi barcha ishlar uchun ma’suldurlar. Zero, mahallaning qo‘lidan kelmaydiga ish yo‘q. Uning nufuzini ko‘tarish, bilingki, nafaqat iqtisodiy, nafaqat ijtimoiy, balki bu siyosiy, tarbiyaviy, ulkan ma‘naviy masaladir. Biz mahallalarga shu nuqtai nazardan qarashimiz lozim”.

Har bir mahalla aniq tashkiliy tuzilmaga ega. Unga mahallaning umumiy yig'ilishida saylanadigan mahalla kengashi rahbarlik qiladi.

Mahalla rahbarligi 2,5 yilga saylanadi va har yili aholi oldida hisobot beradi.

**Topshiriq.** Matnga doir savollar tuzing.

### **O'rin ergash gapli qo'shma gap**

(Придаточное предложение места)

Придаточное предложение места указывает на место действия, события, выраженного в главном предложении. Придаточное места связывается с главным предложением с помощью условной

-sa qayerda? Qayerga? Qayerdan? Qayoqqa? U yerda, o'sha yerda, u yerga

Qayerda? Qayerga? Qayerdan? Sen qayerga borsang, said ham o'sha yerga boradi.

**21-mashq.** *O'ng tomonda berilgan ergash gaplardan foydalanib, 5 ta o'rin ergash gapli qo'shma gap tuzing. Bunda qayerda u yerda, qayerdan u yerdan, qayoqqa — o'sha yoqqa so'zlaridan foydalaning.*

**Namuna:** Shogirdi ham ishlardi. Usta ishlasa. — Usta qayerda ishlasa, shogirdi ham o'sha yerda ishlardi.

1. Said borar edi. — Ali borsa.
2. Madina kelardi. — Sodiq kelsa.
3. Hurmat ham bo'ladi. — Sadoqat bo'lsa.
4. Uning nomi aytiladi. — Ma'qul ish bo'lsa.
5. Mehr ham bo'ladi. — Ko'z bo'lsa.

**22-mashq.** *Maqollarni ovoz chiqarib o'qing va yod oling.*

Munozara haqiqat chirog'i.

Rostlikda najot,

Yolg'onda halokat.

Haqiqatning zahri yolg'onning asalidan yaxshi.

Haqiqat o'tda ham kuymas.

Suvda ham cho'kmas.

Nohaq ishga rivoj yo'q.

Haq ishni xalq qo'llar.

Oilada hamjihatlik bo'lmasa, uni baxt tashlab ketar.

Eshik ochiq bo'lsa bo'laversin, ruxsatsiz kirma.

### *Qo'shimcha o'qish uchun matn* **Jaloliddin Manguberdi**

Olis tarix sahnasiga nazar tashlagan chog'imizda, har doim tarixiy shaxslar qatorida olis yillar ortidan ko'zimizga yosh va navqiron, shu bilan birga, jasur shahzoda Jaloliddin Manguberdi ko'zga chalinadi. Ko'p ming sonli Chingiz lashkarkarini 12 ta jangda maglubiyatga uchratgan Jaloliddin Manguberdi 1199-yilda Xorazmda tavallud topgan. Mamlakatda siyosiy tang vaziyatlar yuzaga kelib turgan vaqtda Ghingizxon qo'shinlari Xorazm davlati tinchligiga xavf sola boshlaydi. 1220-yil 20-dekabrda Sulton Muhammad Xorazmshoh vafot etadi. **1221-yilning boshida Jaloliddin Manguberдини Xorazm sultoni deb e'lon qilinadi.** U mamlakatni mo'g'ullar bosqinidan mudofaa qilishga jiddiy kirishadi. U Temur Malik bilan birga fitnani bostirish uchun Xurosonga jo'nab ketganda, vaqtdan unumli foydalangan Chingizxon qo'shinlari mudofaa zaifligi tufayli Urganchga kirib oladilar. Lekin, Jaloliddin undan keyin ham dushmanga qarshi kurashib, bir necha marta g'alaba qozonadi. Faqatgina 13-jangda Jaloliddin qo'shinining beklari orasidagi ichki nizolar sabab, ularning tarqoqligi natijasida, Xorazmshoh g'alabaga erisha olmaydi. Yosh va navqiron, jasoratli shahzodaning o'tyurakli ekanligiga Chingizxon qoyil qolib, uni ta'qib etmaslikni afzal ko'radi. Jaloliddin ona yurt ozodligi va hurligi yo'lida to'xtovsiz kurash olib boradi. Matonatli sarkarda 1231-yilda Kurdistan tog'larida halok bo'ladi.

## 11-mashg'ulot Ona yurtning — oltin beshiging



*Shu aziz Vatan barchamizniki. Uning baxt-saodati, porloq istiqloqli, yorqin kelajagi uchun yashash, kurashish, kerak bo'lganda jon fido etish shu zaminda yashayotgan har bir inson uchun ham farz, ham qarzdır.*

*Islom Karimov*

### **O'zbekiston – Vatanim manim**

*Vatan, Vatan der edilar, na der edim bilmay oni,  
Endi bilsam, Vatan erksan bu tanlarning shirin joni.  
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlarning joni Vatan,  
Sensan bale, bilganlara jonlarning jononi Vatan!*

Ha, haqiqatdan ham, ona yurt - oltin beshik. Vatan esa ostonadan boshlanadi. Ostonadan hatlab o'tar ekanmiz, beixtiyor Vatan isini his qilamiz. Endi nish urib ko'karib chiqqan ko'kat ham, asrlar osha o'z taftida qizdirilgan quyosh ham, bir parcha tuproq ham bu – Vatan, bu kindik qonimiz to'kilgan qadamjo. U har bir inson uchun muqaddasdir. Vatan inson uchun misli Ka'ba, u doimo shunga sig'inadi va unga sajda keltiradi. Vatan bu – moziyning qoni ila sug'orilgan zamin. Bulbul

gulsiz yashay olmaganidek, Vatan ham elsiz bo'lmaydi. Elsiz Vatan xiyobondir.

Mening Vatanim bu O'zbekiston. U- quyosh farzandi.

Shuning uchun uning yeri oltin, havosi beg'ubor, suvi shirin, xalqi ulug'vordir. O'zbekistonning so'lim bahori, jazirama yozi, mevalari dur va serhosil, kuzi iliq, qishi insonning bahri dilini ochadi. O'zbekiston boylikka kon diyor. Uning bitmas-tuganmas zahiralari bizning fahrimizdir. Xalqi esa ulug'vor, buyuk va donishmanddir. O'zining bir piyola choyi va bir og'iz shirin so'zini yerda qoldirmaydigan bu xalq azal-azaldan o'zining mehnatsevarligi va mehmondo'stligi bilan butun dunyoga dong taratib kelmoqda. O'zbekistonni Tangri Taolo havas bilan yaratgan. Bugungi kunda O'zbekiston jahon siyosiy hayotiga komil ishonch bilan kirib kelmoqsa. Bu shahdam qadamlar kelajakda, albatta, meva beradi.

**22-mashq.** *Quyidagi so'z birikmalarini o'qing va rus tiliga tarjima qiling.*

O'rta Osiyo, joylashgan, yuzdan ortiq, millat vakillari, rivojlangan, sanoat, yuksak qishloq, xo'jaligi, ilg'or madaniyat, yuzlab obod shaharlar, qadimiy va navqiron, ko'plab tarixiy yodgorliklar, o'nlab millat vakillari, inoq, yashamoq, poliz ekinlari.

**23-mashq.** *Quyidagi gaplarni ko'chirib yozing. Kesimni tagiga chizing, uning qaysi zamon, shaxs va sonda ekanini ayting.*

1. O'zbekistonda yana ko'p obod shaharlar quriladi. 2. Respublikamizning ko'plab zavod va fabrikalarida ko'p sonli ishchilar ishlaydi. 3. Oliy uquv yurtlarida, maktablarda minglab o'quvchilar, talabalar o'qiydi. 4. Biz ham O'zbekiston Respublikasida yashaymiz. 5. Do'stim O'zbekiston Respubli-kasining Farg'ona viloyatida yashaydi.

**24-mashq.** *Nuqtalar o'rniga mos so'z va so'z birikmalarini qo'yib, gaplarni ko'chirib yozing.*

1. Farg'ona shahri juda ... shaharlardan biri. 2. Shahrimizda eski binolar o'rniga ko'p qavatli binolar qurish yuzasidan ... tasdiqlandi. 3. Keyingi yillarda respublikamizning ko'p shaharlarida ko'rkam bimolar..... . 4. Shunisi quvonarliki, biz bu yil yangi maktab ...o'qiyimiz. 5. Botirning akasi universitetning ... fakul-tetida o'qiydi.



Nuqtalar o'rniga qo'yish uchun so'zlar: *ko'rkam, qad ko'tarmoqda, yangi loyiha, binosida, tarix.*

**25-mashq.** *O'qing, o'zbek tiliga tarjima qiling.*

1. Отец Наташи работает на историческом факультете университета. 2. Телевидение нашего города, кроме своей программы, передает и московскую программу. 3. Города нашей республики очень красивые. 4. Отраднo то, что в нашем районе построили большую больницу. 5. Кроме английского языка, мы изучаем и узбекский язык. 6. Все ребята нашего района учатся в общеобразовательных школах.

**26-mashq.** *Savollarga javob bering.*

1. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi qacarda joylashgan?
2. Nukus qanday shahar?
3. Sizning shahringizda qanday institutlar bor?
4. Sizning shahringizda universitet bormi?
5. O'zbekistonning qanday ko'rkam shaharlarini bilasiz?

**Topshiriq.** *O'zingizni sinab ko'ring.*

1. Ulug'bek kim?
2. Uning to'liq ismi qanday?
3. Ulug'bek qachon va qacarda tug'ilgan?
4. Ulug'bekni butun dunyoga tanitgan eng katta asari qaysi?
5. Shahrimizdagi Ulug'bek nomi berilgan inshootlarni aytib bering.

**Maqsad ergash gap**

(Придаточное предложение цели)

Придаточное предложение цели объясняет целевое назначение действия, выраженного в главном предложении. Придаточное цели связывается с главным при помощи союзов *deb, uchun, maqsadda, toki*. Оно отвечает на вопросы *nima maqsadda? Nima uchun?* (с какой целью? зачем?) и, обычно, стоит перед главным предложением. *Например:* *Ko'mir boshga tushib turmasin deb, uni balandga — uzoqroqqa tashladi.*— Уголь приходилось таскать наверх и бросать подальше, чтобы он не катился на голову.

**27-mashq.** *O'qing, ergash gapli qo'shma gaplarga e'tibor bering. Maqsad ergash gapli qo'shma gaplarni ko'chiring va maqsad ergash gapni xarakterlang.*

1. Qaysi yerga odam oyog'I yetsa, u yerda bog'u bo'stonlar yaratiladi.  
2. Toza barglar solamiz, qurtimizga yoqsin deb. (Qo'shiq) 3. Vatan uchun jangga bor deb, qurol berding qo'limga. (H.O.) 4. Chang chiqsin uchun derazalarni ochdi. (As. M.) 5. O'z hunaringizni Vatanga sarflang, toki u sizdan rozi bo'lsin.

**28-mashq.** *Matni o'qing, ergashgan qo'shma gaplarni ajratib, turini ayting. Matn mazmunini qisqacha so'zlab bering.*

Halol ham, harom ham aniq bo'ldi. Ularning o'rtasida shubhali narsalar bor. Ko'p odamlar buni bilmaydilar. Kimki shubhali narsalardan saqlansa, dinini ham, obro'sini ham pok saqlagan bo'ladi. Kimki shubhali narsalarga tushib qolsa, haromga o'tib ketishi ham mumkin. Agar cho'pon qo'ylarini zaharli o't atrofida o'tlashiga yo'l qo'ysa, podasidan ayriladi.

## **12-mashg'ulot**

### **Oy borib, omon kel**

#### **Vatan uchun qurbon bo'lganlar**

*Yurtim, ado bo'lmas armonlarim bor.*

Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor,  
Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor.  
O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim,  
Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor.

Bag'rim o'rtar bir o'y bahor ayyomlar,  
Oy botgan yoqlarga termilib shomlar.  
Aybin bilmay ketgan Akmal Ikromlar,  
Fayzullodek mard-u maydonlaring bor.

Yurtim, ko'nglingdek keng osmonlaring bor,  
Yulduzni yig'latgan dostonlaring bor.  
Osmonlaringdan ham diydoringga zor,  
Jayrondek termulgan Cho'lponlaring bor.

Qurboning bo‘layin, ey onajonim,  
Sening faryodlaring, mening fig‘onim.  
O‘tmishingni o‘ylab o‘rtanar jonim,  
Aytsam ado bo‘lmas armonlaring bor.

*Muhammad Yusuf.*

### **Topshiriq.**

1. She‘r matnini so‘zlab bering.
2. Atoqli otlarni ajrating. Har biriga tavsif bering.
3. She‘rni ifodali o‘qishda qanday taassurot olganingizni so‘zlab bering.

## **Payt ergash gapli qo‘shma gap** (Придаточное предложение времени)

Придаточное предложение времени указывает на время действия выраженного сказуемым главного предложения и ставится перед главным. Придаточное времени связывается с главным предложением с помощью *-gan, -r+paytda, zamonda, vaqtda, ekan, sayin, -g‘uncha, -gach,* или *-may* и отвечает на вопросы *qachon? Qachongacha? Qachondan beri?(когда? До каого времени?, с какого времени?).* *Например:* O‘qish tugagandan keyin, biz televizor ko‘rdik.—После того как закончилось занятие, мы смотрели телевизор. Hamza laboratoriyaga kirgach, Gulnora o‘rnidan turib salom berdi.—Когда Хамза зашел в лабораторию, Гульнора встала с места и поздоровалась.

**29-mashq.** *Nuqtalar o‘rniga berilgan grammatik shakl va vositalardan mosini qo‘yib, savollarga javob qaytaring va gaplarni ko‘chiring. Ergash gaplar bajargan vazifalarni tushuntiring.*

1. Vodiylarni yayov kez...(qachon?), Bir ajib his bor edi menda. (H.O.) 2. Men tovushimni sozla...(qachongacha?), sozandalar lutf aylasinlar. (O.) 3. Mamajonning hikoyasini eshit...(achondan beri?), Holbek o‘sha voqeaning ta‘sirida edi. (P.Q.) 4. U kel...(qachondan?) biz inoq yashar edik. 5. U kel... (qachon?) majlis tugagan edi. 6. Sobir chizmani tugat...(qachon?) vaqt allamahal bo‘lgan edi. 7. Men sen kel... (qachonga qadar?) ovqatni pishirib qo‘ydim.


Grammatik vositalar: *-ganda, -ganimcha, -ganimda, -gandan beri, -gan vaqtda, -masdan avval, -gach.*

### 13-mashg'ulot

## Buyuk ipak yo'li bo'ylab

Buyuk ipak yo'li— qadimda va o'rta asrlarda Sharq va G'arb mamlakatlarini ilk bor o'zaro bog'lagan qt'alararo karvon yo'li(mil.av.II a.—mil.XV a.). Buyuk ipak yo'li atamasi ushbu yo'ldan tashilgan qimmatbaho Tovar—Xitoy ipagi bilan bog'liq. G'arb mamlakatlari uzoq vaqtgacha ipakchilik sir-asrorlaridan bexabar bo'lishgan.

Buyuk ipak yo'li atamasi qadimda ishlatilmagan. Buyuk ipak yo'lini tarixiy, geografik va madaniy jihatlarini ilmiy o'rganish amal-da ko'plab mamlakat olimlari tomonidan XIX asrning 2-yarmidan boshlangan. Uni tadqiq etishga G'arbiy Yevropa, Rossiya va Yaponiya olimlari salmoqli hissa qo'shdilar. Xususan, Yaponiyada «Buyuk ipak yo'li ensiklopediyasi» nashr qilindi. 1877-yil mashhur nemis olimi Karl Rixtrofen o'zining «Xitoy» nomli yirik ilmiy asarida ulkan Yevroosiyo materigining turli qismlarini bog'lovchi yo'llar tizimini «Ipak yo'li» deb atagan, keyinchalik «Buyuk ipak yo'li» atamasi qabul qilingan.



Ba'zi bir Sharq mamlakatlarida (Xindiston, Xitoy, O'zbekiston, Shri Lanka, Yaponiya) Buyuk ipak yo'lini o'rganish bo'yicha maxsus ilmiy institutlar barpo etilgan. Masalan, BMT va YUNESKO qaroriga ko'ra, Samarqand shahrida Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti

ochilgan. 1997-yil mayda O'rta Osiyoni Eron bilan bog'lagan Saraxs - Mashhad temir yo'l uchastkasi qurilishi tugallandi, bu bilan O'rta Osiyo mamlakatlari Fors qo'ltig'iga, Yevropa mamlakatlari esa O'rta Osiyoga chiqish imkoniga ega bo'ldilar. Ilmiy va madaniy dasturlardan tashqari Buyuk ipak yo'lini tiklash bo'yicha jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan loyiha amalga oshirilmoqda.

1994-yil Toshkent va Samarqandda Jahon sayyohlik tashkilotining "Ipak yo'l" loyihasini ishlab chiqish bo'yicha xalqaro yig'ilish bo'lib, unda O'zbekiston mazkur qadimiy yo'nalish markazi deb belgilandi. 1995-yil 2-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti «Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekistonning ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro sayyohlikni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida» farmon qabul qildi. Shu asosda «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi «Ipak yo'li» o'tgan tarixiy manzillar bo'ylab 200 dan ortiq yo'nalishlar ishlab chiqdi. Ular asosiy sayyohlik zonalarini qamrab oladi va Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva hamda Farg'ona vodiysi shaharlari bo'ylab o'tadi. «Ipak yo'lining tarmoqlari hisoblangan Andijon, Namangan, Fargona, Termiz, Nukus shaharlari orqali o'tuvchi yo'nalishlar ishlab chiqilmoqda.

Farg'ona vodiysi bo'ylab o'tuvchi yo'nalish - «Farg'ona oltin xalqasi» Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Namangan shaharlarini o'z ichiga oladi. Bu sayyohlik yo'nalishlari o'z maqsad va vazifasiga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi: ixtisoslashgan va sarguzashtli sayyohlik, qishloq sayyohligi, suvda va avtomobilda sayyohlik, kemping va karvonsaroylarda dam olish bilan davom etuvchi sayyohlik, etnik, diniy, o'quv va yoshlar sayyohligi. «Buyuk ipak yo'li»da sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga namunali xizmat ko'rsatish maqsadida yangi shinam mehmonxonalar, kempinglar, motellar, umumiy ovqatlanish va dam olish maskanlari bunyod etilmoqda. Shu sababli bu yo'nalishlar bo'ylab safar qiluvchilar soni yil sayin ortib bormoqda.

### **Eslab qoling:**

*Buyuk ipak yo'li Sariq dengiz sohilidan O'rtayer dengizi sohiligacha cho'zilib ketgan. Bu yo'l 12 ming kilometr uzunlikda bo'lgan.*

*Buyk ipak yo'li miloddan avval II asrda vujudga kelgan. U "Buyuk meridional yo'l" deb atalgan. Bu yo'lgā "ipak yo'li" degan nom 1877-yilda nemis geografi F. Rixtgofen tomonidan berilgan.*

*Chian Syanning yurgan yo'li Buyuk ipak yo'liga asos bo'ldi.*

*Buyuk ipak yo'li Sharq va G'arb mamlakatlari xalqlarini o'zaro madaniy aloqalaridan bahramand bo'lish imkonini berdi.*

**Buyk ipak yo‘lining ahamiyati.** Buyuk ipak yo‘lining tarixi Sharq va G‘arb xalqlarining keng miqyosdagi madaniy aloqalari va savdo ayirboshlasi tarixidir. Bu tarix o‘zaro hamkorlik va madaniyatlar boyitishi tarixi bo‘lib, tinchlik va taraqqiyot asosini tashkil etadi. O‘zbekiston hududi bu yo‘ning chorrahasida joylashgan. O‘rta Osiyo xalqlari Buyuk ipak yo‘li tufayli Sharq va G‘arb mamlakatlari iqtisodiyoti va madaniyati bilan oshno bo‘lganlar. G‘arb mamlakatlari xalqlari esa O‘rta Osiyo xalqlarining yuqori darajada rivojlangan madaniyatini o‘zlari uchun kashf qildilar. O‘zbekiston aholisi Xitoy shoyisini qadrlasa, Xitoyda So‘g‘diyona gilamlari, hunarmandchilik buyumlariga talab katta bo‘lgan.

Buyuk ipak yo‘li Sharq va G‘arb mamlakatlari xalqlarini o‘zaro madaniy aloqalaridan bahramand bo‘lish imkonini berdi.

O‘rta Osiyo bu yo‘ning asosiy yo‘nalishlari kesib o‘tadigan markazida joylashgan. Bu yerga turli mamlakatlardan savdogarlar, hunarmandlar, olimlar va musiqachilar tashrif buyurar edilar. Buyuk ipak yo‘li sharofati bilan O‘rta Osiyo xalqlari G‘arb va Sharqning iqtisodiy va madaniy yutuqlari bilan tanishdilar.

### **Tayanch konspekt**

Buyk ipak yo‘li (mil.avv.II asr-XVI asr)	1877—F.Rixtgofen
	12 ming kilometr
	Xitoy, O‘rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya, Old Osiyo
	Sian—Dunxian—Yorkent—Samarqand—Buxoro—Marv
	<p>yonalishlar</p> <p>→ Marv—Bog‘dod—Damashq</p> <p>→ Samarqand—Termiz—Balx—Hindiston</p>
O‘zaro aloqalar: madaniy va savdo	

**Topshiriq:** Savollarga javob bering

1. Jahonning ko‘plab mamlakatlarini bog‘lab turuvchi karvon yo‘llari tarmog‘ini birinchi bo‘lib kim “Ipak yoli” deb atadi?
2. Buyuk ipak yo‘lining uzunligi qancha?
3. O‘zbekistonning qaysi shaharlari Buyuk ipak yo‘lida joylashgan edi?
4. Yozuvsiz xaritada Buyuk ipak yo‘lining O‘zbekiston hududidagi tarmoqlarini belgilang.
5. Savdogarlar Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab qaysi mamlakatlardan nimalarni keltirishgan?
6. Buyuk ipak yo‘li jahon mamlakatlari va ayniqsa O‘zbekiston tarixida qanday ahamiyat kasb etgan?

## Sabab ergash gapli qo'shma gap

(Сложноподчиненное предложение причины)

Придаточное предложение причины указывает на причину действия, выраженного в главном предложении. Придаточное причины связывается с главным при помощи подчинительных союзов *chunki*, *shuning uchun* и грамматических форм *-gandan*, *-gach*, *-ganlikdan*, *-gani uchun*, *-ganligi sababli*, *tufayli*, *natijasida*, *-gandan keyin* (*so'ng*).

Придаточное причины, связанное посредством *chunki*, стоит после главного предложения, во всех остальных случаях — перед главным предложением и отвечает на вопросы *nima sababdan?*, *nega?*, *nima uchun?* (почему?). *Например*: *U badiiy asarlarni o'qishni yaxshi ko'radi, chunki unda foydali va qiziqarli voqealar ko'p.* — Он любит читать художественную литературу, потому что в ней много полезного и интересного.

*Ali kechikkanligi tufayli majlisni boshlay olmadik.*— Мы не могли начать собрание, потому что Али не пришел.

**30-mashq.** *Ko'chiring. Bosh va ergash gaplarni ko'rsating. Sabab ergash gapning bog'lanishi, vazifasi, so'rog'i va o'rnini ayting. Rus tiliga og'zaki tarjima qiling.*

1. *Qorong'i tez tushdi, shuning uchun biz yo'ldan adashdik.* 2. *Nuri gapga e'tibor qilmaganidan, Yormat endi qiziga qarab so'zlay boshladi.* (O.) 3. *Adiba juda xursand bo'ldi, chunki uchrashuv u kutgandan ziyod bo'ldi.* 4. *Ikromjon sovqotganidan bir piyolagina achchiq ko'k choyga zor bo'lgan edi.* 5. *Meni taklif etishmadi, shuning uchun majlisga bormadim.*

**31-mashq.** *She'riy parchani ifodali o'qing, sabab ergash gaplarga e'tibor bering. Satrlarni yod oling.*

Shodlik yo'lga boshladi meni,

Baxtiyorlik bo'ldi odatim.

Shoir bo'lib shodlik va baxtni

Kuylamaklik zo'r saodatim.

Chunki elim qayguni bilmas,

Chunki yo'qdir Vatanda motam.

Ozod xalqim boshiga kelmas,

Endi sira musibat va g'am.

Shuning uchun shodman bir umr,

Shuning uchun shodlik hamdamim.

Har kun ortar ko'zlarimda nur,  
Shuning uchun yo'q aslo g'amim.


Men bilaman dushmanim kimlar,  
Sergak bo'lib boqdim yo'limga.  
Chunki xalqim barcha tilsimlar  
Kalitini berdi qo'limga.

*(H.Olimjon)*

## **14-mashg'ulot** **Oraliq nazorat -2**

## **15-mashg'ulot** **O'zbekistonning tarixiy me'morchilik** **obidalari bo'ylab**

*Xiva*




Xiva Markaziy Osiyodagi yagona muzey-shahar hisoblanadi. Xivaning arxitektura qiyofasi asosan 18-asrning oxiridan 20-asrning boshlarigacha shakllangan. Ansamblning yaxlitligi jihatidan Xiva O'rta Osiyoda yagona hisoblanadi. Unda eng qadimiy (14 asr) yodgorligi Said Aloviddin maqbarasi, eng muhim obidalari Ko'hna ark, Juma masjid, Oq masjid, Uch avliyo maqbarasi, Sherg'ozixon madrasasi, 163 xonadan iborat Tosh hovli saroyi, Islom xo'ja minorasi, Kalta minor, 94 masjid va 63 madrasa qayd etilgan. Xiva shahri hozir 2500 yoshda.

Buxorodagi Ko'hna Ismoil Somoniy maqbarasi taxminan 892-907 – yillarda Somoniylar sulolasining vakili Ismoil Somoniy tomonidan



to'rtburchak shaklida bunyod etilgan. Har burchagida bittadan kichik gumbaz, o'rtasida esa eng asosiy katta gumbaz joylashgan. Maqbara devorlari ichkari-tashqarisidan bo'rtiq-bo'rtiq shakllar o'ziga xos badiiy bezak sifatida ko'zga tashlanadi. Kunning turli vaqtlarida, quyosh nurlari ta'sirida ular rang-barang ko'rinish kasb etadi. Bu hol, ayniqsa, kechasi oy shu'lasida yaqqol seziladi. Bunday uslub dunyo me'morchiligining birona yodgorliklarida uchramaydi.

### *Buxoro*



Buxoro O'zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri. U Zarafshon daryosining quyi oqimida, O'zbekistonning janubi-g'arbida joylashgan. Toshkentdan 616 kilometr uzoqlikda. Aholisi 400 mingdan oshiq.

Buxoro milodning boshlarida barpo etilgan. Buxoro nomi hindcha "Buxara" (qadimgi budda dini rohiblarining yig'lish joyi), eroncha "Bixar" termini bilan aloqador. Qadimda u Numijqat, Bumijqat va Bumisqat hamda Bohira deb atalgan.


Buxoroda jahonga mashhur Abu Ali Ibn Sino (930-1037), Bahautdin Naqshband, shoir Rudakiy, tarixchilardan Daqiqiy, Bal'amiy va boshqa yuzlab ulug' allomalar yashaganlar.

Buxoro qadimdan katta savdo-yo'li ustida joylashgan. U eng yirik hunarmandchilik, savdo-sotiq, madaniyat markazi hisoblanadi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoroda 12 mahalla, 360dan ortiq guzar, 250dan ortiq madrasa, 390 ta masjid, 150 ga yaqin karvonsaroy, 350 ta hovuz bo'lgan.

So'nggi yillarda Buxoroning qiyofasi tubdan o'zgardi. U O'zbekistonning madaniyat markazlaridan biriga aylandi. Buxoroda bir qancha o'rta va oliy o'quv yurtlari ishlab turibdi. Buxoroda zamonaviy binolar qad ko'tarmoqda.

## Samarqand



Samarqand O'zbekistondagi eng go'zal shaharlaridan biridir. U 1925-1930 yillarda O'zbekistonning poytaxti bo'lgan.

Samarqand 2500 yildan oshiq tarixga ega. Samarqand Hindiston, Eron, Misr va Vizantiya davlatlari bilan savdo-sotiq qilgan. XIV asrgacha Samarqand turli mamlakat bosqinchilarining hujumiga duch keldi va qo'ldan qo'lga o'tib turdi.

Samarqand XIV asrning oxiri va XV asrda Temur davlatlarining poytaxti sifatida jahonga mashhur bo'lgan. Ulug'bek hukmronligi davrida Samarqandda ilm fan va madaniyat taraqqiy etdi.

Samarqand shahridagi sanoat rivojlangan, ilmiy va madaniy markazlardan biriga aylanib bormoqda.

1970 – yili Samarqandning 2500 yilligi tantanali nishonlandi.

Hozirgi vaqtda Samarqandda 17 ta o'rta maxsus o'quv yurti, 6 ta oliy o'quv yurti ishlab turibdi.

Samarqand tarixiy obidalariga boyligi, yangi me'morchilik inshootlarning ko'pligi jihatidan O'zbekistonning eng ko'rkam va obod shaharlaridan biriga aylandi.

Munis ona bo'lsa  
agarda olam,  
Uning dilbar qizi  
Samarqand!  
Go'zal chehra bo'lsa  
agarda olam,  
Uning chaqnoq ko'zi  
Samarqand!  
Sirli kitob bo'lsa  
agarda olam,  
Uning tillo so'zi  
Samarqand!  
Tilsim qudrat bo'lsa  
agarda olam,  
Sohibqironning izi  
Samarqand!  
Agarda osmon bo'lsa  
bu olam,  
Chaqnoq bir yulduzi  
Samarqand!  
Ikki olamning jannati  
desak,  
O'shal jannatning o'zi  
Samarqand.

### Suhbat

-O'zbekistonning viloyatlarini bilasizmi?

-Ha, bilaman.

-Ular qaysilar.

-Ular Andijon, Buxoro, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlari.

-O'zbekistonda shaharlar ko'pmi?

-Ha, respublikamizda o'nlab katta-kichik shaharlar mavjud.

-Ulardan eng kattalari qaysilar?

-Ulardan eng kattalari Toshkent, Samarqand, Andijon, Buxoro va Farg'ona shaharlaridir.

-Siz qaysi shaharlarda bo'lgansiz?

-Men Samarqand va Buxoro shaharlarida bo'lganman.

-O‘zingiz qaysi shaharda tug‘ilgansiz?

-Men Toshkentda tugilganman.

*1-topshiriq.* Quyidagi so‘zlarni o‘qing, lug‘at tuzib yozing.

Nomi tilga tushdi, kitoblar, kitobxonlar, ijod, ijod davri yaratildi, badiiy tarjima, o‘ziga xos, mahorat, yozuvchilar uyushmasi, yodgorlik.

**32-mashq.** *Gaplarni o‘qing, 12-jadval asosida yasama so‘zlarni aniqlang, gaplarni rus tiliga tarjima qiling. Har bir gapdan bosh bo‘laklarini aniqlang.*

1. Abdulla Oripov, Erkin Bohidov kabi shoirlarning yangi asarlarini kitobxonlar; katta qiziqish bilan kutiladi. 2. Atoqli adiblar Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhorlar ham badiiy tarjima bilan shug‘ullanganlar. 3. Hozirgi kunda ko‘pgina o‘zbek yozuvchi va shoirlarimiz badiiy tarjima sohasida ham o‘ziga xos tarjimonlik mahoratini namoyish qilmoqdalar. 4. Ko‘pgina yosh shoirlar yozuvchilar uyushmasining a‘zosi. 5. Shoir Turob To‘laga Chig‘atoy qabrstonida yodgorlik haykali o‘rnatilgan. 6. Lermontovning ijod davri juda qisqa bo‘lgan.

*Namuna:* ijod davri (ega) qisqa bo‘lgan (kesim)

**33-mashq.** *Quyidagy so‘z va so‘z birikmalarini rus tiliga tarjima qiling va shular ishtirokida gap tuzing.*

Yozuvchilar uyushmasi, yodgorlik, kutubxona, kitobxonlar, ijod davri, yaratildi, badiiy tarjima, o‘ziga xos, mahorat.

**34-mashq.** *Qavs ichidagi ruscha so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qilib o‘qing.*

## 16-mashg‘ulot

### Sayohat

— Siz sayohatga chiqqanmisiz?

— Ha. Nima edi.?

— Men juda ko‘p joylarga sayohatga borganman.

— Men ota-onam, singillarim bilan toqqa sayohatga chiqqanman. Sinfdozlarim bilan Buxoroga sayohatga chiqqanman. Butun yer yuzini aylanib sayohat qilgim keladi.

— Sayohatga chiqqaningizda o‘zingiz bilan nimalarni olasiz?

— Sayohat uchun zarur asboblarni sayohatning turiga qarab olinadi.

— Qanday qilib?

— Masalan tarixiy shaharlarga sayohatga chiqqanimda, o‘zim bilan albatta fotoapparat, yon daftarchamni, ruchka, ... . Agar toqqa sayohatga chiqsam, sport kiyimlari, sochiq, tish chotkasi, tish pastasi, issiq kunda buzilmaydigan yegulik, tuz, aptechka, gugurt ...

— Masalan tarixiy shaharlarga sayohatga chiqqanimda, o‘zim bilan albatta fotoapparat, yon daftarchamni, ruchka, ... . Agar toqqa sayohatga chiqsam, sport kiyimlari, sochiq, tish chotkasi, tish pastasi, issiq kunda buzilmaydigan yegulik, tuz, aptechka, gugurt ...— Men juda ko‘p joylarga sayohatga borganman.

— Men ota-onam, singillarim bilan toqqa sayohatga chiqqanman. Sinfdozlarim bilan Buxoroga sayohatga chiqqanman. Butun yer yuzini aylanib sayohat qilgim keladi.

— Sayohatga chiqqaningizda o‘zingiz bilan nimalarni olasiz?

— Sayohat uchun zarur asboblarni sayohatning turiga qarab olinadi.

— Qanday qilib?


— Masalan tarixiy shaharlarga sayohatga chiqqanimda, o‘zim bilan albatta fotoapparat, yon daftarchamni, ruchka, ... . Agar toqqa sayohatga chiqsam, sport kiyimlari, sochiq, tish chotkasi, tish pastasi, issiq kunda buzilmaydigan yegulik, tuz, aptechka, gugurt ...

— Masalan tarixiy shaharlarga sayohatga chiqqanimda, o‘zim bilan albatta fotoapparat, yon daftarchamni, ruchka, ... . Agar toqqa sayohatga chiqsam, sport kiyimlari, sochiq, tish chotkasi, tish

**1-topshiriq.** Sayohat uchun zarur asboblarni nomini bildiruvchi so‘zlar yozing.

**2 – topshiriq.** Rasm asosida bayon yozing.

**3 – topshiriq.** Qishki ta’til taassurotlaringizni gapirib bering.



### **Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap** (Определительное придаточное предложение)

Определительное придаточное предложение выражает признак одного из членов главного предложения, выраженного местоимением или существительным.

Определительное придаточное предложение связывается с главным предложением при помощи подчинительного союза **-ki** или условной формы глагола **-sa** и отвечает на вопросы **qanday?**, **qanaqa?** (какой?, какая?, какое?, какие?) или **kimning?**, **nimaning?** (кого?, чей?, чего?).

Придаточное, связанное с помощью -ki, может находиться после главного предложения, а с помощью -sa— перед главным предложением. *Например:* 1. Shunday kunlar keladiki, milliy qadriyatlar tantana qiladi.— Придут такие дни, когда восторжествуют национальные ценности. Yig'ilganlarni qaysi mavzu qiziqтира, lector shu mavzuda ma'ruza qiladi.— Лектор прочтет лекцию на тему, которая интересует присутствующих.

**35-mashq.** *Ko'chiring. Aniqlovchi ergash gap va bosh gaplarni aniqlab, bog'lanishi, so'rog'i, o'rnini tushuntiring.*

1. Kim birovni hurmat qilsa, uning o'zi ham hurmat ko'radi. 2. Axiri ular shunday qarorga keldilarki, bolalarni buviga topshiradigan bo'ldilar. (S. A.) 3. Dunyoda shunday bir aziz zot borki, biz undan hamisha qarzdormiz. 4. Kimning ko'ngli to'g'ri bo'lsa, uning yo'li ham to'g'ri bo'ladi. 5. Qanday o'ylagan bo'lsak, shunday bo'lib chiqdi.(As.M.) 6. Shunday voqealar bo'ladiki, ularning ahamiyati aslo so'nmaydi. 7. Kimning labzi halol bo'lsa, uning yuzi doim yorug' bo'ladi. (Maqol.)

**36-mashq.** *She'rni ifodali o'qing, aniqlovchi ergash gaplarni ko'rsating va mazmunini izohlab bering.*

### Ayol

Ayol borki, o'sish, ulg'ayish bordir,  
Ayol borki, baxtimiz, bahorimiz bor.  
Ayol borki, ahdimiz, ishonchimiz bor,  
Ayol borki, kelajak shod va baxtiyor.  
Istardimki, tabiat ayol zotiga  
Metinday iroda va chidam bersa.  
Sadoqatu vafoni jamuljam bersa.  
Istardimki, ayollar oppoq tong bo'lib  
Poklik gulshaniga chorlasa doim.

(U.Musayeva)

## 17-mashg'ulot

### Xiyobonda uchrashamiz

#### *Памятка:*

Для уточнения местоположения предметов или человека употребляются следующие послелогои:

...ustida - на...  
...ostida - под...  
...tagida- под...  
...ichida- в...(внутри...)  
...oldida - у..., перед..., около...  
...yonida - рядом с ..., возле..., около...  
...orasida - между  
...atroflda - вокруг..., кругом...  
...o'rtasida - посередине  
...orqasida - за..., сзади..., позади....

Все эти послелоги употребляются при ответах на вопрос (где?) и имеют окончание **-da**.

### **Topshiriq.** Matnni tarjima qiling.

Uchrashuvga taklif qilish va uchrashuvga chiqish odobiga amal qilish ham madaniyatdandir. Uchrashuvga taklif qilishda uning vaqti, xohishi va imkoniyatiga e'tibor berish lozim. Chunki do'stingizning xohishi yoq bo'lsa, siz noqulay ahvolga tushasiz, agar vaqti yoq bo'lsa unga noqulay bo'lishi tabiiy. Shuning uchun ham suhbat davomida iltifot bilan o'zaro kelishib, bir qarorga kelish o'rinlidir.

Uchrashuvga chiqish odobiga kechga qolmaslik, kuttirib qo'ymaslik, ozoda kiyinish, jamoat orasida o'zini madaniyatli tutish kabilar kiradi. Ba'zan shu kabi odob sirasiga amal qilmaslik, hijolatli holatga olib kelishi mumkin.

## **To'ldiruvchi ergash gap**

(Придаточное предложение - дополнение)

Придаточное предложение-дополнение уточняет дополнение главного предложения, выраженного местоимением. Придаточное предложение-дополнение связывается с главным предложением при помощи подчинительного союза **-ki** или условной формы глагола **-sa** отвечает на вопрос *nimani?* (что?).

Придаточное, связанное с помощью **-ki**, находится после главного предложения, а с помощью **-sa**, — перед главным предложением. *Например:* Hamma shuni biladiki, yaxshilik also unutilmaydi.— Все знают, что доброе дело никогда не забудется. Ustoz nimani buyursa, O'ktam shuni bajardi.— Уктам выполнял то, что требовал наставник.



**37-mashq.** *Avval -ki, so'ngra -sa vositasida bog'angan gaplarni ko'chiring. Bosh gapdagi izohlanayotgan yoki tushib qolgan to'ldiruvchini toping va qaysi so'z bilan ifodalanganligi, kelishigi, qanday so'roqni qabul qilganligini tushuntiring.*

1. Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi( G'.G') 2. Uydagilar nimani buyursa, shuni bajar!.. (Hamza.) 3. Kimki qastdan olmasa ta'lim, unga urgatolmas hech bir muallim.(Sh. Sa'diy.) 4. Shuni unutmangki, muallimning ko'zida haqiqatsehri bor! 5. Siz kimga ishonsangiz, men shuni sherik qilib olaman.(A Fayziy.)

**38-mashq.** *Gaplarni o'qing, to'ldiruvchi ergash gachlarning mazmunini izohlang va rus tiliga tarjima qiling.*

1. Ogoh bo'lingki, g'azab bamisoli inson ichidagi yonib turgan cho'g'dir.(*Hadisdan*)

2. Bilasizlarki, g'azabi kelgan kishining ko'zlari qizarib, tomirlari shishib ketadi. (*Hadisdan*)

3. Sen ishonkim, sevgi o'utini  
Yolg'iz yillar so'ndira olur.(*H. Olimjon*)

4. Imonim komilki, g'alaba mevalarini terganlar emas, jang maydonida qolganlar g'olibdir.(*M.Gorkiy*)

***Mustaqil o'qish uchun***

**ERKIN VOHIDOV**

(1936-yilda tug'ilgan)

"Mana bir necha o'n yildirki, biz dilbar bir she'riyatning muattar havosidan bahramand bo'lib kelayotirmiz. Bu - Erkin Vohidov she'riyatidir. Ona tilimizning ipakdek mayin, kamalakdek rang-barang shamoyili, g'oyat nozik lutf, beozor qochirimlar, goh hazin, goh samimiy tabassum uyg'otuvchi tashbehtar, o'tkir xulosalar - bular bari ulkan shoirimizning qalamiga mansub betakror fazilatlaridir. Men Erkin Vohidovni she'riyatda o'ziga hos sehr sohibi deb bilaman.

... Men Erkin Vohidovdek ulkan shoir bilan zamondosh bo'lganim uchun faxrlanamän".

*Abdulla Oripov.*

Erkin Vohidov - xalqimizning eng sevimli va ardoqli shoirlaridan. Uning "Yoshlik devoni", "Tirik sayyoralar", "Sharqiy qirg'oq",

"Yaxshidir achchiq haqiqat" kabi o'nlab she'riy to'plamlari, "Nido", "Ruhlar isyoni" dostonlari, S.Yeseninning "Fors taronalari", I.Gyotening "Faust" asarlari tarjimai O'zbekistonning madaniy-adabiy hayotida katta voqea bo'lgan. "Oltin devor" ,"Istambul fojiasi" dramalari Milliy Akademik teatrdan sahnalashtirilgan.

Shoir tarjimai holida shularni yozadi: "Bunday qaraganda bitta shoir qilishi mumkin bo'lgan ishni qilib qo'ygandekman. Lekin hech qachon o'z qilgan ishmdan ko'nglim to'lgan emas. Hamisha yozganimdan yozadiganim muhimroq va azizroq tuyiladi. Men ijodiy mehnatni faol jamoat ishlari bilan qo'shib olib borishdek sharaflil vazifa yukini doimo yelkamda his qilaman. Odamlarga faqat she'ring emas, o'zing ham kerakligingni sezish - bu katta baxt. Shuning uchun ham jamoat mehnatidan hech qachon o'zimni olib qochgan emasman".

**Topshiriq:** G'azalni yod oling

**G'azal**

Ayol! Olam chiroyi –

Nur bo'lib dunyoga kelgansan,

Mehr daryosi ichra

Dur bo'lib dunyoga kelgansan.

Ishonmasman u dunyoning

Pari, g'ilmoni huriga

Farishta sen o'zingsan,

Hur bo'lib dunyoga kelgansan.

Hayotning gulshani sensiz

Muzayyan bilmagan manzur.

Bu gulshanga o'zing

Manzur bo'lib dunyoga kelgansan.

Labingga kulgu, konglingga

Yarashgay erkalik, sho'xlik,

Yaralmoqdan nechunkim,

Nur bo'lib dunyoga kelgansan.

Agar gulg'unchada boqiy –

Tiriklikdan nishon bordir,

O'shal gulg'unchada

Mastur bo'lib dunyoga kelgansan.

Shafiq-u g'amgusor sensan

Zamindek xokisor sensan,

Yana shoshlar kabi

Mag'rur bo'lib dunyoga kelgansan.  
Zamon tinchlikda bo'lsin,  
Sen omon bo'l, bezavol yayra,  
O'zing dunyo kabi  
Ma'mur bo'lib dunyoga kelgansan.  
*(Erkin Vohidov)*

## 18-mashg'ulot

### Jamoat transportida

*Topshiriq.* Matnni o'qing va transport qulayliklari haqida so'zlab bering.

O'zbekiston Respublikasi bo'ylab harakatlanayotgan jamoat transportlari orasida Ispaniyadan keltirilgan Talgo rusumli yuqori tezlikda harakatlanuvchi "Afrosiyob" elektropoyezdi Vatanimiz shuhratiga shuhrat qo'shdi. Soatiga 200-300 km tezlikda harakatlanuvchi ushbu transport hozirda Toshkent – Samarqand yo'nalishi bo'ylab xorijiy sayyohlarga, aholining uzog'ni yaqin qilishga xizmat qilmoqda.

Salondagi qulayliklar jahon talablariga mos ravishda tashkil etilgan. Styuardlar xizmatida o'zbekona odob, xorijiy tillarda keng ma'lumot bera olish, zukkolikni ko'rish mumkin.

Davlatimiz dunyoga tanilishida "Buyuk ipak yo'li" bo'ylab harakatlanayotgan avtotransport va temir yo'llar xizmati beqiyosdir.

**39-mashq.** *"Avtobusda suhbat" mavzusida namuna asosida dialog tuzing.*

- Kechirasiz, o'tirsam bo'ladimi?
- Marhamat, o'tiring.
- Avtobus qanday yo'nalish bo'yicha yuradi?
- Yo'l haqini haydovchi oladimi?
- Yo'q pattachi oladi.
- Yo'l haqi necha so'm?
- Yo'l haqi 800 so'm.
- Bobur xiyoboni yaqinmi yoki uzoqmi?
- Bobur xiyoboni uzoq emas. Keyingi bekatda tushasiz.
- Rahmat, xayr, sog' bo'ling.
- Yaxshi yetib oling.

**40-mashq.** *Poyezdda yolovchilar suhbatini davom ettiring.*

- Siz qayerga ketyapsiz? (borasiz)

- Men ... boraman.
- Derazani ochishni (yopishni) istamaysizmi?
- Marhamat.
- ... qay vaqtda yetib boramiz?
- ... ertalb tongda soat... yetib boramiz.
- Bu qaysi bekat?
- Bu ... bekati.
- Vokzal tunda juda go‘zal ekan.
- Siz vval ko‘rmagan edingizmi?
- Ha, men bu shaharga birinchi marotaba borishim.
- Borayotgan shaharda kimingiz yashaydi?
- U yerda 5 yil avval litseyda birga o‘qigan do‘stim yashaydi. Do‘stimnikiga ketyapman.
- Juda yaxshi.
- Iltimos, chiroqni o‘chiring.
- Marhamat, o‘chirdim.
- Rahmat.
- Hayrli tun.
- Yaxshi yotib turing.

**MUHAMMAD YUSUF**  
(1954-2002)

***Topshiriq.*** Matnni oqing va mazmunini so‘zlab bering.

Samimiy she'rlari, dilrabo qo‘shiqlari bilan xalq ko‘nglidan mangu joy olgan otashin shoir Muhammad Yusuf 1954-yil 26- aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanida Qovunchi qishlog‘ida tug‘ildi.

1978-yilda Respublika Rus tili va adabiyoti institutini tamomlagach, turli yillarda kitobsevarlar Respublika uyushmasida, “Toshkent oqshomi”, “O‘zbekiston ovozi” gazetalarida, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyotida ishladi.

1995-1996 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasida o‘qidi. 1997 - yildan O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisi bo‘lib ishladi.

1985-yili nashr etilgan ilk to‘plami “Tanish teraklar” unga katta shuhrat olib keldi. “Bulbulga bir gapim bor”, “Uyqudagi qiz”, “ishq kemasi”, “Erka kiyik”, “Osmonimga olib ketaman” kabi to‘plamlari she'rxonlar orasida yaxshi ma‘lum.

Shoirning she'rlari bilan qo'shiq aytmagan taniqli o'zbek xonandasini topish qiyin. Uning qatag'on qurbonlari xotirasiga yozgan she'rlariga bastalangan qo'shiqlar xalqimizga ayniqsa manzur bo'lgan edi.

1998 - yilda O'zbekiston xalq shoiri unvoniga sazovor bo'ldi.

Bemahal o'lim 2002 - yilda chinakam xalq shoiri Muhammad Yusufni oramizdan olib ketdi, lekin uning q'ysiqlari har bir o'zbek xonadonida yangrashda davom etmoqda va shunday bo'lib qolaveradi.

### **Samarqand**

Samarqandga borsam men agar,  
Ulug'bekni ko'rib qaytaman.  
U qon yig'lab turar har safar:  
Men dardimni kimga aytaman?!

Bag'rimda bo'y yetgan bo'z bolam,  
Mergan bolam, lochin ko'z bolam,  
Bo'g'zimga tig' urgan o'z bolam...  
Men dardimni kimga aytaman?!

Sezmay qoldim. O'shanda chog'im,  
Yulduzlarda ekan nigohim.  
Bilmadim, ne edi gunohim...  
Men dardimni kimga aytaman?!

Qancha g'amga botmagan edim,  
Qancha ohu yutmagan edim...:  
O'z bolamdan kutmagan edim...  
Men dardimni kimga aytaman?!

Tanim muzlab goh tosh qotaman,  
Men shoh emas axir, Otaman.  
Go'rimda ham o'ylab yotaman,  
Men dardimni kimga aytaman?!

Samarqandga borsam men agar,  
Ulug'bekni ko'rmay kelmayman.  
U menga qon yig'lar har safar,  
Men dardimni kimga aytaman!

*( Muhammad Yusuf )*

### ***Savol va topshiriqlar:***

1. Siz Samarqandda rasadxona oldida joylashgan Ulug‘bek haykalini ko‘rganmisiz?
2. O‘sha haykal bilan bu she‘r orasida qanday mutanosiblik bor?
3. She‘rni ifodali o‘qib, har bir misrasini izohlab tushuntirib bering.
4. Bu she‘rni qo‘shiq qilib kuylagan qaysi san‘atkorlarni bilasiz?
5. She‘rdan olgan taassurotingizni bayon eting.
6. Mirzo Ulug‘bek nomi bilan bog‘liq nimalarni bilasiz?
7. Mirzo Ulug‘bek haqida yaratilgan qanday asarlarni bilasiz?

## **19-mashg‘ulot**

### **Harakat xavfsizligiga amal qiling**

#### ***Savol va topshiriqlar:***

1. Yo‘l harakati xavfsizligi qoidalarini sanab bering.
2. Svetofor chiroqlari qachon kashf etilgan?
3. Harakat xavfsizligi oyligi chora-tadbirlari haqida fikr bildiring.
4. “Chorrahada” mavzusida o‘yin darsi tashkil eting.

**41-mashq.** *Gaplarni ko‘chiring. Bosh va ergash gaplarni aniqlab aytib bering.*

1. Agar Quyosh Yer yuzini isitsa, har bir ona o‘sha xonadonni isituvchi va yorituvchi quyoshdir.
2. Gapni cho‘zma, chunki hayot qisqadir.
3. Oradan bir necha yillar o‘tgach, o‘sha oshnam bilan tasodifan uchrashib qoldik.
4. Kim mehnatdan qochmasa, u e‘tiborli bo‘ladi.
5. Shu narsa esingdan chiqmasinki, bir yigitga qirq hunar oz.

## **20-mashg‘ulot**

### **Yakuniy nazorat**

## **21-mashg‘ulot**

### **San‘at va uning turlari**

#### ***Topshiriq.***

1. San‘at turlarini “klaster” da tasniflang.
2. Musiqa san‘atiga munosabatingiz haqida so‘zlang.
3. Naqqoshlik san‘atining ahamiyati haqida nimalar bilasiz?
4. “*San‘at go‘zallikni asraydi?*” mavzusida matn tuzing.

**42-mashq.** *Quyidagi so'z va so'z birikmalarini to'g'ri talaffuz bilan o'qing va rus tiliga tarjima qiling.*

Gapirib berdi, tanishib oldik, o'z qo'limiz bilan, har xil o'simliklar yig'moq, barglardan, yoqimli ovozi, yoqimli ovozi borligini.

**43-mashq.** *Quyidagi so'z va so'z birikmalaridan gaplar tuzing.*


Qatnashadi, gerbarylar to'playmiz, jonivorlar. qidiramiz, g'alati hodisa yuz berdi, ilon, zaharli ilon emas, yoshliklari haqida.

### **Pul**

Bir necha ming yillar ilgari kishilar pul nimaligini bilishmagan. Ular bir-birlari bilan turli-tuman narsalarni, buyumlarni ayirbosh qilishardi, xolos. Kulol o'zi yasagan ko'zacha va ko'zalarni, temirchilar bo'lsa, bolta, pichoq, nayza uchlarini, dehqonlar don-dun, o'simlik moyi, meva-chevalarni, chorvadorlar qo'y, buqa, jun, teri va shu kabilarni, g'olib jangchilar hatto o'z asirlarini almashar edilar.

Biroq ayirbosh qilish juda murakkab ish. Axir, ayirbosh qilinayotgan buyum va oziq-ovqatning bahosi bir xil emas edida. Buyum yoki mahsulotning bahosi unga qancha mehnat sarf qilingani, ularni yetishtirishda qanday qiyinchilik bo'lgani, ba'zan esa havf-hatarlar yengilgani bilan bog'liq edi. Masalan, bir bosh qo'yga ikkita bolta yoki bitta shim, yoki to'rtta ko'zacha olish mumkin edi.

Qoplon tishidan va tirnoqlaridan yasalgan marjon uchun esa bitta qayiq yoki ikkita buqa olsa bo'lardi.



Almashishni osonlashtirish maqsadida odamlar qaysi buyum buning uchun eng qulay kelishini o'ylay boshlashdi. Ko'p narsani – chorva mollarini ham, oziq mahsulotlarini ham, mo'yna, gazlamani ham pul o'rnida almashtirib ko'rishdi. Biroq ulardan pul o'rnida foydalanish juda noqulay edi. Qo'y va ho'kizlarni asrash uchun boshpana, boqish uchun ozuqa kerak edi. Mahsulotlar esa vaqt o'tishi bilan buzilardi. Mo'ynalarga kuya tushar, gazlama sitilib ketar edi.

Davr o'tishi bilan pul vaqtinchalik emas, doimiy bo'lishi zarurligini tushuna boshlashdi. Sanaganda, qo'ldan-qo'lga o'tganda ular buzilmasligi kerak. Qolaversa, pul yonda olib yurishga qulay bo'lishi, uning oz miqdori, o'z qiymatiga ko'ra ho'kizga ham, uyga ham, kemaga ham, yer uchastkasiga ham teng bo'la oladigan bo'lishi kerak. Pul maydalanish xususiyatiga ham ega bo'lishi zarur, axir hamma ham ho'kiz yoki kema sotib olavermaydi-ku. Inson, odatda, bir bo'lak go'sht, yegulik non, kavush, ko'ylaklik sotib oladi.

Mana shu yerda pulga bo'lgan yangi talab paydo bo'ladi – pul maydalangani bilan uning umumiy qiymati kamaymasligi kerak. Masalan, qorako'l yoki tulkinging terisi mayda bo'laklarga bo'lib tashlansa, bu bo'laklarning qiymati nimaga teng bo'ladi? Hech narsaga!

Janubiy dengizlar tubidan olingan mahsus chig'anoqlar ana shu talablarga oz bo'lsa-da javob bera olgan va dastlabki pul vazifasini o'tadi. Ularni teshib, ipga marjon qilib olishardi. Biroq ularning qiymati uncha baland emasdi, bitta ho'kiz uchun mingta chig'anoq sanab berilardi.



Eng qulayi metal pullar bo'lib chiqdi. Qolaversa, ularni turli qiymatga ega bo'lgan tangalar: misdan - arzonroq, kumushdan - qimmatroq, oltindan – esa eng qimmat tangalarni zarb etish mumkin edi.

Biroq metall pullarning ham juda katta va muhim kamchiligi bor edi: ular nihoyatda og'ir va ko'p joy egallardi. Olis mamlakatlar bilan savdo - sotiqlik qiladigan savdogarlar uchun bunday yukni olib yurish juda noqulay



va xavfli edi: har qancha yashirmasinlar, qaroqchi va bosqinchilar bu pullarni darrov topib olishardi. Kishilar buning ham ilojini topishdi, ular oltin pullarni banklarga topshirib, evaziga o'zlari bilan qog'oz tilxat olib ketardilar.

Shu tariqa birinchi marta qog'oz pullar paydo bo'ldi. Ulardan bu pullar bankda saqlanayotgan qancha oltin miqdoriga teng ekanligi ko'rsatilgan bo'lardi. Buyum, oziq - ovqat, xizmat, xullas inson mehnati singan hamma narsa pul bilan hisob qilinadi. Shuning uchun ham pul muayyan miqdori istalgan boshqa tovarga teng bo'lgan va shu tovarga ayirbosh qilish mumkin bo'lgan o'ziga xos tovar deb hisoblanadi.

### ***Lug'at***

ayirbosh qilmoq-	менять, обменивать	
kulol-	гончар	
temirchi-	кузнец	
cho'rvador-	животновод	
buqa -	бык	
asir-	узник	
murakkab-	сложный	
sarf qilmoq-	тратить	
yetishtirmoq-	выращивать	производить
xavf- xatar-	опасность	
marjon-	бусы	
eng qulay-	самый удобный	
mo'yna-	мех,	
doimiy-	повседневный	
asramoq-	хранить	
mayda-	мелочь	
xususiyat-	свойство	
talab-	требование	
qiymat-	стоимость	
evaziga-	за, взамен,	
buning evaziga-	за это, взамен этого	

### ***Topshiriq:***

1. Matnni o'qing va so'zlab bering.
2. Matndagi so'z birikmalarini aniqlang.
3. Lug'atdan foydalanib pul haqida o'zingiz bilgan ma'lumotlarni og'zaki bayon qiling.

**44-mashq.** *Gaplarni to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapga aylantiring.*

1. Oilamiz a'zolarining ko'pchiligi sayohatni yaxshi ko'radi. 2. Sinfimizdagi 10 o'quvchi «Yosh sayyohlar» to'garagiga qatna-shadi. 3. Yozda ko'pchilik o'quvchilar «Tirik burchak» uchun joni-vorlar qidiradilar. 4. Bobomlarning qishlog'iga tog' yo'li orqali boriladi. 5. Akamdan xat kelganini eshitib, opam suyunib ketdi. 6. Shoir Shukrullo bizga o'z yoshligi haqida gapirib berdi. 7. O'qituvchimiz Botir aka tegirmonning qanday ishlashini ko'rsatdi.

## **22-mashg'ulot**

### **Mohir qo'llar yaratgan mo'jizalar**

Inson - Ollah yaratgan buyuk mo'jiza. Har bir a'zosi: ishbilarmon qo'llari, tiyrak ko'zlari, chaqqon oyoqlari, sezgir quloqlari va kuchli tanasi betakror. Uning ongi, qobiliyati, tafakkuri, ovozi, qalb tug'yonlarini ta'riflashga til ojiz.

Qobiliyatni tarbiyalash mashaqqatli mehnat hisoblanadi.



**Topshiriq.** Berilgan rasm asosida “*Mohir qo'llar yaratgan mo'jizalar*” mavzusida matn tuzing.

**45-mashq.** *Qavs ichidagi so'zlarni tarjima qilib, gaplarni ko'chirib yozing.*

1. Ular (с самого Намангана) Qo'qon qishlog'iga ko'chib kelishgan. 2. O'qituvchimizning (речь) sodda, oddiy va tushunarli. 3. Yosh yozuvchi (произведение) yaratmoqda. 4. Yozuvchi va shoirlarimiz keyingi vaqtlarda ko'p ajoyib (произведения) yaratmoqdalar. 5. Avval bu

yerlarda kichik-kichik uylar (были). 6. Qo-zoqlar o'z (родственников) qiz olmaydilar. 7. Shahar kutubxonasiga (документ) ko'rsatib kirasan.

### **Iltijo**

*(O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasidan parcha)*

Oyi, men keldim... Eshityapsizmi, oyi, men yana keldim...

Qarang, oyi, tag'in ko'klam kirdi. Esingizdami, har yili bahor kirishi bilan sizni dalaga olib chiqardim. Siz charaqlagan oftobni, tiniq osmonni, ko'm-ko'k maysalarni ko'rib quvonardingiz. Esingizdami, nevaralarnigiz terib kelgan boychechaklarni ko'zingizga surtib, "omonlig'-somonli?" qilardingiz...

Bugun... o'zingizning ustingizdan boychechak o'sib chiqibdi... Yo'q, yo'q, oyijon... Yig'layotganim yo'q. Bilaman, men yig'lasam, siz bezovta bo'lasiz. hozir... hozir o'tib ketadi. Mana, bo'ldi...

Ertalab-chi, oyi, yomg'ir yog'di. Qattiq yomg'ir yog'di. Siz bahor yomg'irini yaxshi ko'rardingiz... Keyin oftob chiqib ketdi. Qarang oftob charaqlab yotibdi... Esingizdami, siz menga oftob to'g'risida cho'pchak aytib bergan edingiz. O'sha oftob charaqlab yotibdi... Ko'ryapsizmi...

Esingizdami, oyi, siz ukamga alla aytardingiz. Men allaning ohangiga mast bo'lib uxlab qolardim. O'sha beshikda men ham yotganman. Allangizdan men ham orom olganman. Nima qilay, oyi, men alla aytishni bilmayman. Qabringizni silab qo'ysam orom olasizmi... Mana, oyijon, mana... Yo'q, yo'q. Yig'layotganim yo'q. Hozir, hozir o'tib ketdi.

Esingizdami, oyi, siz bir marta, atigi bir marta, o'shandayam hazillashib: "Meniyam kitob qilib yozsan-chi, o'g'lim", degandingiz. Men: "Sizning nimangizni kitob qilaman, oyi?" degan edim. Xafa bo'lmang, men hazillashgan edim. Mana, o'sha kitob. Yo'q, uni men yozganim yo'q. Uni siz yozgansiz. Men uni qog'ozga tushirib, odamlarga tarqatdim, xolos. Men uni dunyodagi hamma onalar o'qishini xohlayman. Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi. Shundog' bo'lsayam, ularning hammasi Sizga o'xshashini xohlayman...

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Nima uchun asar "Dunyoning ishlari" deb nomlanadi?
2. Adibning onasiga bitgan "Iltijo" sini o'qib, o'zingizda paydo bo'lgan his-tuyg'ularni bayon qiling.

3. Adibning “Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi” degan so‘zlarini izohlab bering.

4. “Onalar mehri beqiyos” mavzusida insho yozing.

### *Mustaqil o‘qish uchun*

#### **Tabiatni tabib derlar**

Sharifboy aka xonadonini mehmon bosadi. Birga jang qilgan quroldosh do‘stlari –Norqul aka bilan Odamboy aka kirib kelib g‘oyat quvontirdi. Do‘stlar suhbatini asosida shunday gap-so‘zlar bo‘ladi:

-Bu qanaqasi?- deb ajablendi Odamboy aka,- Norquldan ikki yosh, mendan uch yosh kichiksizu, elka bilan nafas olib, aso bilan qadam bosasiz.

-Ha, yurakning mazasi qochdi, -deb so‘z boshladi Sharifboy aka, -Ko‘zim tinib boshim aylanadigan bo‘lib qoldi.

-Qarang-a!- dedi Odamboy aka achinib, -shaharning chang, to‘zon havosida yashayverib sarg‘ayib ketibsiz azbaroyi. Bizning archazor, do‘lanazor, serbuloq qishlog‘imizda yiliga biron oy turib kelsangiz bo‘lmaydimi?

-Bo‘ladi-ku.Kelinim sho‘rlikni ham uy havosiga qamab, dimiqtirib yuboribsiz. Ukangiz Ro‘ziboyni qarang, yuzlaridan qon tomadi. Nima uchun?

-Chunki u asalarilarini olib tog‘ma-tog‘, o‘tloqma-o‘tloq kezib yuradi.

-Endi Sharifboyini olib ketamiz!-dedi Norqul aka keskin.

-Qani edi!- dedi Sharifboy aka nadomat bilan, -Afsuski, uzoqqa bora olmayman, ko‘p yura olmayman.

-Yurasiz, borasiz!- dedi Odamboy aka buyruq bergandek.

Gapni qisqasi, ikki o‘rtoq qo‘yarda-qo‘ymay Sharifboy akani ham, o‘g‘li Olimjonni ham tabiat qo‘yniga olib ketishga ko‘ndirishdi. Mashinaga o‘tqazib olib ketishdi. «Qishloqda bir narsa bo‘lib qolsam . . . Sizlarga yuk bo‘lib . . .» deb duduqlandi Sharifboy aka yo‘lda.

-Siz yaxshi odamsiz, yaxshi odam doimo o‘ziga ham, o‘zgaga ham yaxshi niyatda bo‘ladi. Siz bo‘lsangiz o‘laman, o‘olamandan boshqasini bilmaydigan bo‘lib qolibsiz. Qo‘rqmang, bir oydan keyin uyingizga keltirib qo‘yamiz. Balki o‘shanda bizdan xursand bo‘larsiz.

-Balki . . . – deb ikkilandi Sharifboy aka.

Kunlar o'tdi. Otasidan havotir bo'lgan Olimjon dam olishga ruxsat olguncha arang chiqadi. Ertalab jo'nashga hozirlik ko'rayotgan edi, zavqli tabassum bilan xuddi yigitlardek gursillab qadam tashlab otasi Sharifboy aka do'sti Odamboy bilan kirib keldi. Shunisi qiziq edi-ki, ilgari besh kilo narsani ko'tarib besh odim bosa olmaydigan otaning o'ng qo'lida bir **sanoch qimizu chap** qo'lida bir xalta yong'oq. Olimjon ne-ne doktorlar tuzata olmaydigan otaning holatidan suyunib, uni quchoqlab oldi. qizil tortgan yuzlariga qayta-qayta boqdi. Olimjonning g'ayratiga Odamboy aka izoh berdi: « O'g'lim, men ota-bobolardan qolgan hikmatni ishga soldim- do'lana gulidan choy damlab, turli gilyohlardan sho'rvaga soldim, qimiz bilan ichiraverdim. Mana bir oyda otdek bo'lib qoldi- na ko'zi tinadi va na yuragi o'ynaydi: «Tabiat- tabib, deydilar, o'g'lim ».

*(Yoqubjon Shukurov)*

**46-mashq.** *Ko'chiring. Qiyoslov ergash gapli qo'shma gaplarni aniqlang va izohlang.*

1. Tilni yaxshi bilish kerak, chunki tili shirin odamning do'sti ko'p bo'ladi. 2. Go'yo Quyosh Oyni kuzatganday, o't bo'lib orqangdan ketmoqdaman men. 3. Masturaning chehrasi shunday osoyishta va horg'in erdiki, go'yo uyquga ketganga o'xshaydi. (O.YO.) 4. Xuddi elektr toki urganday, u sakrab o'rnidan turdi. 5. Alisher Navoiy shuni yaxshi biladiki, uni Hirotda ajoyib do'stlari kutib turadi.

## **23-mashg'ulot**

### **Ustoz otangday ulug'**

**Topshiriq.** Matnlarni o'qing, buyuk ustozlar haqida bayon yozing.

#### **Muhammad Rizo Ogahiy**

Alisher Navoiydan keyin o'zbek adabiyoti tarixida ijodining ko'lamdorligi jihatidan birorta adib Ogahiy bilan bellasholmaydi. U yigirma ming misradan ortiqroq she'rlar, olti tarixiy asar, o'n to'qqiz tarjima asari qoldirgan. Shoirning ismi Muhammad Rizo bo'lib "Ogahiy" uning adabiy taxallusidir. "Ogahiy" "ogoh" so'zidan olingan bo'lib, ziyrak, har narsadan xabardor ma'nolarini anglatadi.

Muhammad Rizo 1809 - yil 17 - dekabrda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida tug'ildi. Otasi Erniyozbek dehqonchilik, bog'dorchilik bilan shug'ullangan. Erniyozbekning akasi esa mashhur shoir va davlat arbobi Shermuhammad Munis edi. Bo'lajak shoir qiyotda savodini chiqargach,

Xiva madrasalarida o'qidi. Ilm va hunar o'rgandi. Biroq ko'p o'tmay otasi vafot etadi. Ro'zg'or tashvishlari yosh Muhammad Rizo zimmasiga tushadi.

1829-yilda shoir va tarixchi, xonlikning bosh mirobi Sher Muhammad Munis Xiva xoni Ollohqulixon yonida Xuroson g'arbiy safarida edi. Safar davomida vabo kasaliga uchraydi va to'satdan vafot etadi. Xon yigirma Muhammad Rizoni amakisi o'rniga mirob qilib tayinlaydi. Miroblik katta va mas'uliyatli vazifa edi. Xonlikdagi barcha suv ishlarini boshqarish uning zimmasida edi. Faqat miroblik emas sekin-asta Munisning muarrix-tarixchilik vazifasi ham Ogahiy zimmasiga tushdi. U saroy muarrixi bo'lib qoldi. 1839 yilda Munis boshlab qo'ygan "Firdavs ul-iqbol" ("Baxt bog'i") asarini davom ettirdi. Xiva xonligining 1825 - yilgacha bo'lgan tarixini yozib tugatdi. 1844 - yilda "Riyoz ud-davla" ("Baxt-saodat bog'lari") kitobini yozib, xonlik voqealari tarixini o'z davri-1483 - yilgacha olib keladi.

1845 - yilda Ogahiy boshiga ketma-ket tashvish tushadi. Bir tasodif bilan otdan yiqilib, oyog'i sinadi. Singan oyoq ishdan chiqib, qirqaq kirmay shoir to'shakka bog'lanib qoladi. Uning ustiga xotini vafot etadi. 1857 - yilda miroblikdan iste'fo berishga majbur bo'ladi.

Ogahiy 1874 yilda vafot etdi.

Ogahiyning asosiy she'riy merosi ona tilida yozilgan bo'lib, "Ta'viz ul-oshig'in" ("Oshiqlar tumori") devonida to'plangandir.

Ey ko'ngil, kimsakim sani sevmas,  
Qoch, oning tegrasiga aylanma.

Ki nasihat qilurda o'tkanlar  
Dedilar: "Sevmaganga suykanma"

\*\*\*

Kimki, tark aylasa yamonliqni,  
Bo'lur, albatta, yaxshiliqqa sazo.

### ***Izohli lug'at:***

Jalo - vatanni tashlab ketish, qochib ketish, vatandan ajralish.  
G'urbat – g'ariblik, kimsasizlik, musofirlik, o'z vatanidan uzoqda qolish

Sazo – loyiq, munosib, sazovor.

## *Mustaqil o'qish uchun*

### **Abdulla Qahhor**

Abdulla Qahhor adabiyot maydonida unumli ijod qilib, yuzdan ortiq hikoya va feletonlar, bir qancha badiiy ocherk va tanqidiy maqolalar, pesalar va romanlar yaratib, o'zbek adabiyotini durdona asarlar bilan boyitgan o'zbek yozuvchisidir.

Abdulla Qahhor madaniyat olamiga Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Hamza Hakimzoda kabi mohir san'atkorlarni yetkazib bergan Qo'qon shahrida 1907 - yilning 17 - sentabrida kosib-temirchi oilasida tug'ildi.

Bu davrda mehnatkash omma juda og'ir sharoitda yashar edi. Birinchi rus revolyutsiyasi mag'lubiyatga uchragandan keyin ekspluatatsiya yana ham kuchayib ketdi. Xalq harakatidan qo'rqib qolgan chor samoderjaviesi har xil yo'llar bilan mehnatkashlarni zulmda, qorong'ilikda saqlashga zo'r berib intildi. Bu zulm, ayniqsa, O'rta Osiyo xalqlariga nisbatan yana ham zo'raydi. Bu yerda yashagan xalq ommasi ikki tomonlama ekspluatatsiya qilinardi. Birinchidan, u rus kapitalistlari va pomeschiklari zulmi ostida ezilsa, ikkinchidan, mahalliy feodallar jabrini tortar edi.

Abdulla Qahhor tug'ilgan oila ham og'ir moddiy qiyinchiliklarda yashar edi. Otasi (Abduqahhor ota) yosh Abdullani dastlab eski maktabga o'qishga berdi.

Abduqahhor ota adabiyotni sevadigan odam bo'lgani uchun ham yosh Abdullani adabiyot olamiga yetaklashda katta rol o'ynadi, o'g'lining ijodiy ishga havasini uyg'otdi.

Abdulla Qahhor adabiy faoliyatini juda erta boshladi. Qo'qon texnikumida o'qib, devoriy gazetaga she'r va maqolalar yozib yurganida, u o'n besh yoshlarda edi.

Abdulla Qahhor novellachilikda ko'p yozuvchilarimiz kabi murakkab ijodiy yo'lni bosib o'tdi. Dastavval, u mashq hikoyalarni yozdi, keyin asta-sekin mukammal, puxta xarakterlar chizib bera boshladi.

Abdulla Qahhor o'z novellalari bilan o'tmishga "darcha"lar ochadi. Bu "darcha"lardan yozuvchining talanti bilan yog'dirilgan nurdan zolimlik, razillik, qabihlik asosida qurilgan tuzumning mohiyati ko'z oldimizda yorqin gavdalanadi.

Yozuvchi o'zining "O'g'ri" hikoyasida kambag'al chol Qobil boboning uyiga o'g'ri tushish voqeasi tasvirlanib, bu kamlik qilganday uning amaldorlar tomonidan pora olish orqali talanishi, Qobil boboning

soddaligi, ellikboshi va aminlar tomonidan aldanishi va masxara qilinishi o'z yorqin ifodasini topadi.

O'qituvchi Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi haqida yuqoridagi mazmunda, lekin o'z so'zi bilan jonli qilib so'zlab beradi. Boshqa asarga doir kirish so'zida nimani gapirish zarurligini umumiy talablardan kelib chiqqan holda muallimning o'zi belgilaydi.

## OYBEK

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905 - yil 10 - yanvarda Toshkent shahrida hunarmand-bo'zchi oilasida tug'ildi. Eski usuldagi maktabda savodini chiqargan. 1918 - yilda "Namuna" maktabida, 1921 - yildan Navoiy nomidagi Toshkent ta'lim tarbiya texnikumida o'qiydi. 1925 - yilda texnikumni tugatgach, o'qituvchilik qiladi. 1927-1930 - yillarda Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) Xalq xo'jaligi institutida va O'rta Osiyo davlat universitetida tahsil ko'radi. 1930-35 yillarda oliy o'quv yurtlarida siyosiy iqtisod fanidan dars beradi.

Yillar o'tgan sayin siyosiy iqtisod va badiiy ijodning har biri butun vaqtni bag'ishlashni talab eta boshladi. Ammo uning qalbida ijod mehri kuchliroq edi. Shuning uchun ham Oybek 1935 - yildan Til va adabiyot institutiga ilmiy xodim bo'lib ishga o'tdi. Bu vaqtda uning "Tuyg'ular"(1926), "Ko'ngil naylari" (1929), "Mash'ala" (1932), "Baxtigul va Sog'indi" (1933) she'riy to'plamlari nashr etilgan va Oybek shoir sifatida o'zbek adabiyotidan mustahkam o'rin olgan edi.

Oybek 1938 - yilda 1916 - yil qo'zg'oloniga bag'ishlangan "Qutlug' qon" romanini, 1942 - yilda "Navoiy" romanini yozib tugatadi. Oybekning temuriylar davri madaniyati tarixi, xususan, Navoiy ijodini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlari uning 1943 - yilda yangi tashkil etilgan O'zbekiston Fanlar akademiyasiga haqiqiy a'zo bo'lib saylanishiga to'la huquq berdi. Oybek o'z siymosida olim va adibni mujassamlashtirgani sababli 1945 - yildan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi rayosatining raisi (1949 - yilgacha) va 1943 - yildan e'tiboran respublika Fanlar akademiyasi gumanitar bo'limining boshlig'i (1951 - yilgacha) lavozimlarida faol ijtimoiy, ijodiy va ilmiy faoliyat bilan shug'ullandi.

Oybek urushdan keyingi yillarda "Oltin vodiyan shabadalar", "Quyosh qoraymas", "Ulug' yo'l" romanlari, talaygina she'r va dostonlari bilan o'zbek adabiyotini boyitdi.

Oybekning ko'plab asarlari qardosh xalqlar tillariga hamda chet tillarga tarjima qilingan, Uning o'zi esa A.S.Pushkinning "Yevgeniy



Onegin”, M.Yu.Lermontovning “Maskarad” asarlarini, arman eposi “Sosunli David”ni, V.G.Belinskiyning “Poeziyaning jins va turlarga bo‘linishi” asarini, Rim mumtoz adabiyoti namunalari va boshqa asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. U o‘z asarlari orqali kitobxonlar ommasiga tanildi. Uning “Navoiy” romani Davlat mukofotiga, “Bolalik” qissasi Hamza nomli respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Atoqli adib 1968-yil 1-iyulda vafot etdi. Uning qabri Toshkent-ning Farobiy qabristonidadir.

**47-mashq.** *O‘qing. Daraja-miqdor ergash gapli qo‘shma gaplarni toping va ko‘chiring.*

1. Qor qancha ko‘p yog‘sa, suv shuncha mo‘l bo‘ladi. 2. To‘rtovlari yig‘ilganda, telegramma kelib qoldi. 3. Uzun daryolar ham kamar bo‘lolmas, qo‘shilib cho‘lg‘onsa sening belingga. (H.O.) 4. Oshnamiz qancha ortsa, yotlar bo‘lar shuncha kam. (M.Shayxzoda.) 5. So‘zlovchi qancha ko‘p gapirsa, tinglovchi shuncha bezovta bo‘ladi.

**48-mashq.** *O‘qing. Ko‘chiring. Ravish ergash gapli qo‘shma gapni toping.*

1. Sevinchlarim daryoday toshib, yuragimda havas ortadi. (Uyg‘un.) 2. Vujudini qoplagan onalik mehri g‘olib kelib, tun bo‘yi tortgan azobi ham esidan chiqdi. (P.Tursun.) 3. To‘qson o‘tib, kunlar isiy boshladi. 4. Gulga to‘lib bahor kelganda, yuragimda bahor uyg‘ondi. (H.O.) 5. Yashil barglar oralab, bog‘da pishdi uzumlar. (P.Mo‘min.)

## 24-mashg‘ulot

**Topshiriq.** Murakkab qo‘shma gaplar ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring.

### JASUR QIZ

*(Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanidan parcha)*

Vaqt juda qiyinlik bilan o‘tar, tashqarida „tiq“ etgan tovush uni bir alanglatar edi. Bir xo‘roz qichqirig‘i o‘tganiga talay vaqt bo‘lsa ham, hamon Ra‘no daraksiz. Yuragi siqilgan Anvar goh o‘tirib, goh yonboshlar, sovuqda muzlab ketgan mahsilik oyog‘ini turli vaziyatga solib ko‘rar edi. Shu azob ichida yana talay vaqt kechdi. Ma‘shuqa mahbasiga tushgan Anvar o‘ltirib chidolmadi. Kafshini kiyib, o‘rnidan turdi, muzlagan oyog‘ini isitish va og‘riqqa kirgan a‘zosini harakatlantirish uchun uy

bo'yicha kezina boshladi. Necha vaqt sahn aylanib yana o'tirdi. Oy ham bota boshlagan, chunki chetdagi daricha tirqishi orqali tushib turgan kuchsiz oydin izi ham yo'qolib, uyni qorong'ilik bosgan, tevarakda chalingan dovullarning "gum-gum" ohangi ichida xo'rozlar ikkinchi marta qichqirib yuborgan edilar. Ko'kda durkum-durkum yulduzlar sayr etar edilar. Tom boshidan, botishga yaqinlashgan oy nuri arang-arang ko'zga chalinar edi. Anvar toza havo iskab, uzun nafas oldi.

— Zerikmadingizmi?

Qulog'i ostidagi aytilgan bu so'z Anvarni cho'chitdi va o'z yonida qo'lida bir narsa ko'tarib turgan Ra'noni ko'rdi.

— Ularni uxlatmay chiqolmadim... Uyga kiraylik, Anvar aka. Yuragi orziqqan Anvar Ra'noning orqasidan mashqxonaga kirdi. Ikkisi ko'rpacha ustiga yonma-yon o'tirishdilar.

— Kitob ichidagi xatni payqamaysizmi, deb qo'rqqan edim, — dedi yarim tovush bilan Ra'no. — Payqamasangiz...

— O'zing hamma gappa tushuna turib, yana bunchalik achchiq yozganing nimadir, Ra'no?

— Chunki shunchalik achchiq yozmasam, — dedi Ra'no tovu-shida titroq ohang bilan, — siz kelmas edingiz... Siz ...Siz mirzobo-shiliqni yaxshi ko'rasiz-a?

Anvar bu munosabatsiz savoldan bir oz hayron bo'lib turdi.

— Tushunmadim ... Nima demakchisan?

— Siz mirzoboshiliqni yaxshi ko'rasizmi, deyaqman?

— Yaqinda mirzolikni tashlamoqchiman, Ra'no.

— Mirzolikni tashlagandan so'ng nima ish qilasiz?

— Qo'qondan ketaman, sayohat qilaman.

— Meni... meni ham o'zingiz bilan olib ketmaysizmi? Anvar yana tushunmadi. Ra'noning yuziga ancha qarab turdi:

— Seni... senga mumkinmi, Ra'no?!

— Mumkin! — deb qaltiradi Ra'no, — Mirzoboshiliqni hozir-dan e'tiboran tashlasangiz mumkin...

Bu so'z Anvarni ham qaltiratib yubordi.

— Nima deyapsan, Ra'no!

Ra'no bir necha vaqt javob berolmay turdi. O'zini to'xtatib olish, hayajonini tindirish og'ir edi.

— Haligi, haligi so'zingiz chin bo'lsa, men ham siz bilan ketishni xohlayman... Basharti sizga og'ir oshmasam...

Anvar jim bo'lib qoldi, tushiga ham kirmagan bu taklifga nima deyishini bilmay entikdi...

— Basharti sizga og‘ir oshmasam! — dedi takror Ra‘no.

„Jasur qiz!“ deb o‘yladi Anvar. Chindan ham bu jasurona isyon xotin-qizlar tomonidan Xudoyorning hayvoniy istagiga qarshi birinchi ko‘tarilish edi. Anvar istiqbolda qanchalik mushkulot va xatar ko‘rmasin, bu jasoratni xush qabul qilishga majbur, chunki muhabbatdan ham ilgari yigitlik taqozosi shu edi.

U o‘z yaqinida turgan qora tugunni ushlab qaradi.

— Bu nima, Ra‘no!

— Bu... bu sizning eski kiyimlaringiz.

— Nima uchun bu?

— Basharti siz xohlasangiz.

Anvar paranjimi, deb chamalagan edi. Mantiqsiz bu javob uni shoshirdi.

— Xo‘p, sening rizoliging yo‘lida... — dedi Anvar yarim tovushda. — mening eski kiyimlarim senga nima darkor?

Ra‘no javob berish o‘rniga uzun so‘lish olib yonidagi tugunini yecha boshladi.

— Paranji olmadingmi, axir?

— Hozir... — dedi Ra‘no va qorong‘ida bir narsalar qila berdi.

Paranji ham bordir, deb o‘ylagan Anvar uni o‘z holiga qo‘yib turdi. Biror daqiqadan keyin Ra‘no yerdan bir narsani tutib uzatdi, paranji kabi uzaygan narsa ichidan "taq" etgan bir narsa yerga tushdi.

— Topib oling shuni.

— Anvar yerni timirskiladi.

— Nima edi?

— Ayamga bergan omonatingiz.

Anvar tushgan narsa oltinlar ekanini payqadi, uzoqni o‘ylagan Ra‘noga qarshi yuragida yana haroratliroq muhabbat sezdi.

— Topdingizmi?

— Topdim.

— Turing endi!

Anvar Ra‘no bilan boshlashib hujradan chiqdi va o‘z yonida paranji yopingan qizni emas, telpak va to‘n kiygan yosh o‘spirin bir yigitni ko‘rdi...

— Bu nimasi, Ra‘no?

Ra‘no javob berish o‘rniga yo‘lakka qarab yura berdi. Darvozani ochib ko‘chaga chiqqandan so‘ng, Anvar Ra‘noning oldiga tushib yo‘l boshladi va o‘zida yengillik his etdi. Chunki Ra‘noning yigit suratiga kirishi andozasi ma‘qul; bemahalda paranjilik xotinni boshlab yurish

mirshab va qorovullarda har turli shubha tug'dirgani Anvarning o'zi uchun ham o'ng'aysiz bo'lar edi. Go'yo bir o'rtog'i bilan ketib borgandek parvosiz ko'ringan Anvar burilishga yetganda o'zidan o'n qadam orqadagi hamrohini kutib turdi. Oy Anvar to'xtagan muyulishga ko'lanka kabi zaif nur sochar edi. Ra'no Anvar yoniga yetib, „qayoqqa yuramiz“, degan kabi bir yo'lga va bir hamrohiga qaradi. Soch o'rimlarini telpak ostiga bosib, to'ni to'pig'i ustiga tushayozgan „yosh yigit“ Anvarning ko'ziga yana ham do'ndiqroq ko'rindi. Anvar Ra'noning to'nini bir oz ko'tartibroq ushlatdi, onda-sonda telpagidan chiqib qolgan soch tolalarini yashirdi va „o'ngga“ degan ishora qildi. Ra'no oldinda, undan ikki-uch qadam orqada Anvar yo'lga tushdilar. Yengil bedona mahsisi bilan kala kafshi kichkina oyog'iga juda ham kelishgan Ra'no, go'yo uchgandek tez yurib borar, orqada kelgan Anvar g'oyai omolg'a oshiqqandek undan qolishmaslikka tirishar edi. Uzoq yurdilar. Ellik qadam chamasi narida gulxan va gulxan tevaragida uch-to'rt nafar kishilar ko'rinib, Ra'no to'xtaldi.

— To'xtama, Ra'no, — dedi orqadan Anvar. — Sen pisand qilmagandek, parvosiz gulxan yonidan o'ta ber, men ular bilan so'zlashib qolsam, nariroqda kutib tur.

— Mirshablar bemahalda qo'ymas emish-ku.

— Men bilan seni qo'yar... qo'rqmay boraver!

Ra'no ikkilangansimon yo'lga tushdi, gulxangacha o'n qadam qolganda mirshablardan biri hayqirdi:

— To'xta!!!

*Abdulla Qodiriy.*

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Ra'noni kutayotgan Anvar ruhiy kechinmasini tasvirlab bering.
2. Nima uchun Anvar ichida Ra'noni „Jasur qiz“ deb o'yladi?
3. Ra'no nima maqsadda erkak kiyimini kiyib oldi?
4. Ra'no va Anvar timsolidagi qaysi o'rinlarda sevgiga vafodorlikni ko'rasiz?
5. Asarda tasvirlangan voqealar qaysi davrda yuz bergan?
6. Ra'no timsoliga tavsif bering.

### **Matnga doir lug'at:**

alanglatmoq -

azob-

ma'shuqa-

заставлять оглядываться,

мучение

возлюбленная

mahba-	любимый
kafsh (kavush) (кавуши)-	кожаные калоши
kezinmoq -	бродить
sahn-	площадь
daricha -	окошко
tirqish-	отверстие
oydin -	лунный; освещенный луной
dovul -	ураган
iskamoq-	вдыхать
titroq -	дрожь
mirzoboshiliq-	должность мирзабаши
munosabatsiz-	бесцеремонно

## 25-mashg'ulot

### Ular bilan faxrlanamiz

**49-mashq.** Nuqtalar o'rniga zarur qo'shimcha qo'shib o'qing va ko'chiring.

1. Kamalak — yorug'likning atmosferadagi yomg'ir tomchilarida sinishi, qaytishi, difraksiyasi natijasida yuz ber... optik hodisa. 2. Kanop ekil... yerni kuzda 27— 30 sm chuqurlikda haydaladi. 3. Ipak bir-biriga yopish... ikki toladan iborat. 4. Bodroq — makkajo'xori yoki bug'doydan tayyorlan... taom. 5. Bodroq tayyorlash uchun makkajo'xori doni qizdiril... qozonga solinib, quruq qovuriladi. 6. Dastgoh — ishlan... buyumlarni mahkam ushlab tur... moslama. 7. Chumchuqdan qo'rq... tariq emas. (*Maqol*) 8. Gulni sev... — tikanni ham sevadi. (*Maqol*) 9. Kunda kel... mehmonning qadri yo'q. (*Maqol*)

### Saroy Mulk xonim (Bibixonim)

Saroy Mulk xonim Chig'atoy ulusiga mansub mo'g'ul xonlaridan Qozonxonning qizi bo'lib, 1341-yilda tug'ilgan. Qozonxon taxtdan mahkum etilib, qatl qilingan chog'da Saroy Mulk xonim hali 5 yoshda edi.

Sohibqiron Amir Temur Saroy Mulk xonimni o'z nikohiga kiritgach "Kurag'on" unvoniga musharraf bo'ldi. Qurag'on iborasi mo'g'ulcha so'z bo'lib, "Kuyov" degan ma'noni ifodalaydi. Zero, Saroy Mulk xonim mo'g'ul xonlaridan birining qizi bo'lgani tufayli Sohobqiron Amir Temur mo'g'ul xonining kuyovi, ya'ni "Amir Temur Kuragon" nomini olgan edi.

Sohibqiron Amir Temur malika Saroy Mulk xonimni o‘z nikohiga kiritgunga qadar, haramida boshqa xotinlari ham bor edi. Lekin xon avlodiga mansub Saroy Mulk xonim haramdagi barcha malikalardan ulug‘rog‘ hisoblanib, ”Katta xonim” yohud “Bibixonim” degan unvonga moyil bo‘ladi. Albatta, bunday e‘zozga musharraf bo‘lish uchun aql-zakovat, did-farosat, fikrlash doirasining ulkanligi bosh omil bo‘lgan. Zotan tarixiy manba‘larning guvohlik berishicha, Saroy Mulk xonim zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor va aql-zakovat sohibasi, husn-latofat bobida ham benazir edi. Saroy Mulk xonim insonparvar, vatanni sevguchi, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida yaxshigina xabardor bo‘lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turgan ayol edi. Ayniqsa, ilm-ma‘rifatga alohida e‘tibor ila qarardi, tolibi ilmlarga homiylik qilardi.

Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlarida Saroy Mulk xonim ko‘pincha birga yurgan. Tarixiy manba‘larning yakdillik bilan bergan ma‘lumotlariga ko‘ra, o‘ta ziyarak, tadbirkor Saroy Mulk xonim saltanatni boshqarishda vujudga kelgan ayrim muammolarni hal qilishda, o‘zining oqilona maslahatlari bilan faol qatnashgan. Amir Temur Saroy Mulk xonimga oshkora bo‘ysunmasa-da, biroq uning oqilona maslahatlariga o‘zida qandaydir ehtiyoj sezib turgan. Naql qilishlaricha, Amir Temur Eronga yurish boshlaganda, Isfaxonning qamali ko‘pga cho‘zilib, qo‘shinni ozuqa bilan ta‘minlashga mablag‘ yetishmay qoladi. Nihoyat, Amir Temur Samarqandga chopar yo‘llab, Saroy Mulk xonimga jo‘natadi. Maktub qisqa bo‘lib, ”Qo‘shinning zahirasi tugadi, xazinadan zar yuboring”, deyilgandi. Saroy Mulk xonim maktub mazmunidan ogoh bo‘lgach, maktubning orqa tomoniga ”Ulug‘ amir, zaringiz tugagan bo‘lsa, siyosatingiz ham tugadimi?” – deb yozadi va uni choparga tutqazadi.

Amir Temur maktubni olgach, Saroy Mulk xonimning kinoyali zamzamasini o‘ylab-o‘ylab, nihoyat bir qarorga keladi: lashkarlar so‘yib yeyilgan qo‘y, qoramol, ot va tuya suyaklarini o‘sha kuniyoq yig‘dirib, turli hajmlarga qirqtirib, katta hajmdagisiga katta qiymat, kichigiga kichik qiymat belgilab, unga po‘lat muhrni qizdirib, tamg‘a bostiradi, hamda muvaqqat pul o‘rnida muomalaga kiritishga farmon beradi. Natijada qo‘shni shahar va qishloqlarda suyak pulga qo‘shin uchun oziq-ovqat sotib olinadi. Tez kunda Isfaxon taslim bo‘lgach, suyak pullar zar bilan almashtiriladi.

**Topshiriq.** Matnni o‘qing, so‘zlab bering. Matndan qo‘shma gaplarni aniqlang.

## Nutq uslublari

1. Badiiy uslub
2. Rasmiy uslub
3. Ilmiy uslub
4. So'zlashuv uslub
5. Ommabop uslub

### Abdulla Oripov

"Qarshi shahridan uch-to'rt chaqirim narida Qo'ng'irtog' bor. Geologlarning aytishlaricha, u nihoyatda qari tog' emish. O'sha tog'ning etagida Neko'z degan qishloq bor. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, shu nomda qadimiy o'zbek urug'i bo'lgan emish. Men o'sha qishloqda tug'ildim. Pasportim bo'yicha 1941-yil 21-mart"

O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston qahramoni Abdulla Oripov o'z tarjimai holini shunday so'zlar bilan boshlagan.

Bo'lajak shoir tug'ilgan qishloqda na radio bo'lgan, na televizor. Ammo uning uyida yaxshigina kutubxona bo'lgan. Va u shu kutubxona orqali Navoiyni ham, Pushkinni ham, o'sha yillarda mashhur bo'lgan o'zbek shoirlarini ham tanib, katta bo'lgan. Abdulla 1958-yili o'rta maktabni oltin medal bilan tugatib, Toshkentga oliy ta'lim olish uchun kelganida nafaqat oilaviy kutubxonada o'qigan shoirlarning she'rlarini, balki o'zining dastlabki mashqlarini ham yoddan bilgan. Tug'ma shoir qalbidan otilib chiqqan bu she'rlar talabalar davrasida ko'p o'qigan. Va Abdulla hali Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetini bitirmay turub, umidbaxsh ishte'dodli shoir sifatida e'tibor qozongan.

Bugun Abdulla Oripovni nafaqat O'zbekistonda, balki duhyoning boshqa mamlakatlarida ham o'zbek xalqining katta shoiri sifatida bilishadi va hurmat qilishadi. Ammo u bu darajaga osonlik bilan erishmadi. Shoir tarjimai holida o'z hayotining Toshkent bilan bog'liq davrini eslab, "Men yashamagan ko'cha, mahalla qolmadi. Xizmat yuzasidan ko'p idoralarga kirib chiqqanman", deb bejiz yozmagan.

Abdulla Oripovning "Mitti yulduz" deb atalgan birinchi she'riy to'plami o'zbek she'riyati osmonida yangi bir yulduzning tug'ilganidan darak berdi. Ko'p o'tmay, bu yulduzning yangi-yangi she'riy kitoblari cniqib, iste'dodi chaman bo'lib ochildi. Bugun Abdulla Oripov talaygina she'riy kitoblar, "Jannatga yo'l", "Hakim va ajal" "Ranjkom" kabi dostonlar, shuningdek, Sohibqiron Amur Temur haqidagi pyesaning muallifidir. Ulug' italyan shoiri Dantenning Abdulla Oripov tarjimasidagi

"Ilohiy komediya" (Do'zax) asari shoir ijodiy imkoniyatlarining boyligidan yana bir dalolat beradi.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. Shoir Vatanga bo'lgan muhabbatini qanday tasvirlaydi?
2. U o'z Vatanini nima uchun sevadi? O'sha misralarni topib o'qing.
3. Nima uchun shoir: „Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo!“ deydi?
4. „O'zbekiston — Vatanim manim“ mavzuida matn tuzing.

## **26-mashg'ulot**

### **Xotira maydonida**

Xalqimiz og'ir kunlarni boshidan kechirdi. Ikkinchi jahon urushida 50 ming kishi halok bo'ldi.

Birgina bizning vatanimiz – O'zbekistonning 450 mingdan ortiq yigitlari jang maydonlarida qahramonlarcha halok bo'ldilar. Ming-minglab yurtdoshlarimiz mayib-majruh bo'lib qaytdilar. Necha-necha minglab odamlar dom-daraksiz yo'q bo'lib ketdilar.

Yurtdoshlarimiz o'sha qonli urushda jonajon yurtimiz, uning ozodligi va mustaqilligi, yorug' kelajagi uchun jon fido qildilar. Ularning xotirasini abadiylashtirish maqsadida 1999–yil 2-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni e'lon qilindi. Farmonga ko'ra 9-may “Xotira va Qadrlash kuni” deb ta'sis etildi. Xotira va Qadrlash kuni umumxalq bayrami sifatida O'zbekistonda birinchi marotaba keng nishonlandi.

Xotira kuni... Kimdir xotira maydonida urushdan qaytmagan yaqinlarini eslasa, kimdir qarindoshlari qabrini ziyorat qiladi. Kimdir 16-fevral voqealarining qurbonlarini xotirlaydi. Yana kimdir nuroniy ota-onasini tabarruk buvi-buvalarining holidan xabar oladi, ko'nglini ko'taradi. Chunki bu kun Qadrlash kuni hamdir.

Xotira maydoni bizning baxtli kelajagimiz uchun jon berganlar ruhi yod etiladigan muqaddas qadamjo bo'lib qoldi. U bizga bugungi shirin hayotimiz, totli turmushimiz qanday qurbonlar evaziga kelganligini, ularning qadriga yetishimiz darkorligini eslatib turadi.

*Yoqutxon Rahimova.*



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Ikkinchi jahon urushi qanday oqibatlariga olib keldi?
2. Yurtdoshlarimiz nima uchun kurashdilar?
3. 9-may qanday kun deb e'lon qilindi? Qachon?
4. Xotira va Qadrlash kunlari haqida so'zlang.
5. Sizning mahallangizda Xotira va Qadrlash kunlari uchun nima ishlar qilinadi?

**50-mashq.** *Xotira mavzusidagi hikmatli so'zlarni o'qing va yodda tuting.*

“Xotirasi bo'lmagan, tarixini unutgan, o'z ajdodlarining qadriga yetmaydigan millatning istiqboli yo'q” (*I.Karimov*)

“Kelajakka ishonib yashagan va uning porloq bo'lishi uchun jon fido qilgan har bir odamni toshdan o'yib ishlagan haykalga qiyos qilsa bo'ladi” (*Yu.Fuchik*).

“Hayot— barhayot bo'lish uchun kurashishdir” (*M.M.Prishvin*).

“Yashashdan maqsad o'lgandan keyin ham barhayot bo'lib qolishdan iborat” (*M.Jalil*).

“O'zidan mangu xotira qoldiradigan insonlar uchun tug'ilish chinakam baxtdir” (*Perikl*).

“Hayot qisqa, lekin shuhrat mangu bo'lishi mumkin” (*Ssitseron*).

“Barhayot bo'lib qolishning birdan-bir imkoniyati o'zidan keyin o'lmaydigan bir narsa qoldirishdir” (*U.Folkner*).

“Hech kim o'limga chap berolmaydi, lekin odamlar o'zlarining buyuk ishlari bilan o'zlariga shunday haykal quradilarki, bu haykal quyosh turguncha turadi” (*G.Fabrilius*).

“Inson jisman o'lsa-da, ruhan yo'q bo'lmaydi, u o'z xulq-atvori, qilgan ishlari va ijodi bilan tevarak-atrofdagilar hamda jamoat orasiga singib ketadi, tirik qolganlar ongida yashashda davom etaveradi” (*N. Ya. Marr*).

“Kishi umri oxirlab qolgan paytda mayus tortib, olisdan imlab chaqiruvchi yorqin manzillarni ko'rish menga ham nasib qilarmikin, deya o'z-o'ziga savol beradi. Shunda u o'z ortidan bardam-baquvvat yoshlar kelayotganini, keksalik bilan yoshlik haqiqatni kashf etish yo'lidagi uzluksiz mehnatda qorishib ketajagini o'ylab, tasalli topadi” (*N. Ye. Jukovskiy*).

“Shunday marhumlar borki, ular tiriklardan ko‘ra barhayotroqdir, lekin shunday tiriklar ham borki, ular marhumlardan ko‘ra marhumroqdir” (*R. Rollan*).

“Marhumlar har xil bo‘ladi. Ularning ayrimlari o‘tgan ming yilliklar qa‘rida turib ham bugungi porloq kunimiz yo‘nalishini belgilab beradi” (*M. Prishvin*).

“O‘zidan keyin loaqal bittagina yangi, porloq fikr qoldirgan, insoniyatga nafi tegadigan atigi bittagina jasorat ko‘rsatgan odam bo‘lsa, demak, u dunyodan befarzand o‘tmayapti” (*A. A. Bestujev-Ar-linskiy*).

“Umri boqiylik, to‘la ma‘noda bo‘lmasa ham, shubhasiz, avlodlarda namoyon bo‘ladi” (*L. K. Tolstoy*).

“Umr qisqa, lekin inson o‘z farzandlari timsolida qayta yashay boshlaydi (*A. Frans*).

**51-mashq.** *Manga doir “Yodingiz qalblarda mangu” mavzusida bayon yozing.*

Xotira va qadrlash kuni xalq ozodligi yo‘lida shahid ketgan vatandoshlarimiz xotirasini yod etish nafaqat tarixiy xaqiqatni tiklash, ularning pok nomlarini oqlash, balki ularning ibratli hayoti va kurashi misolida yosh avlodga istiqloq qadriyatlariga hurmat va sadoqat tuyg‘usini tarbiyalash, vatanparvar va xalqsevar ota-bobolarning olijanob an‘analarini ular ongi va shuuriga singdirish buyuk kelajagimiz me‘morlarini voyaga yetkazish ishiga ham xizmat qilajak” — deydi “Shahidlar xotirasi” xayriya jamg‘armasi raisi Naim Karimov.

Inson ma‘naviy hayotida asosiy o‘rin tutgan “Xotira va qadrlash kuni” o‘tmish bilan butun va kelajak o‘rtasidagi doimiy bog‘liklikning vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga “Xotira va qadrlash kuni” Vatan va xalq ozodligi uchun jon bergan, farovonlik yo‘lida halol mehnat qilgan, jamiyatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan kishilarning porloq, xotirasini asrab-avaylash, keksa avlodga izzat-hurmat ko‘rsatish, ilg‘or an‘analarni davom ettirishga da‘vat qiladi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, “Xotira va qadrlash kuni”ni uyushtirish xalqimiz tomonidan keng qo‘llab-quvvatlandi. Uni tashkil etish bo‘uyicha fikr-mulohazalar bildirildi. Ular asosida “Xotira va qadrlash kuni”ni o‘tkazishga oid ilk tajribalar vujudga keldi. Respublikamizning barcha joylarida “Xotira va qadrlash kuni”ni o‘tkazishga tayyorgarlik ishlarini samarali uyushtirish uchun oldindan Tashkiliy qo‘mita tuzildi, umumiy reja ishlab chiqildi, ba‘zi joylarda xotira haftaligi e‘lon qilindi.

Xotira haftaligi davomida aholiga “Xotira va qadrlash kuni”ning mohiyati va maqsadi tushuntirildi, o‘tgan ajdodlar hayoti, faoliyati haqida materiallar, esdaliklar to‘plash ishlari amalga oshirildi. Marxumlarning oilalaridan xabar olindi va ularga yordam berildi, tadbir o‘tkaziladigan joylarda, qabristonlarda hashar va shanbaliklar uyushtirilib, obodonchilik ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, madaniyat muassasalarida istiqlol uchun kurash tarixiga bag‘ishlangan kechalar, o‘quv muassasalarida fahriylar bilan uchrashuvlar va boshqa tadbirlar o‘tkazildi.

## **27-mashg‘ulot** **Oraliq nazorat -3**

### **28-mashg‘ulot**

*Topshiriq.* Matn asosida “Bilimini dunyo tan olgan” mavzusida bayon yozing.

## **O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi** **akademigi A. D. Glushenko**

Aleksey Danilovich Glushenko 1934-yil 10-oktabrda Ashxobod shahrida ishchi oilasida tavallud topdi.

1948-yil - Ashxobod shahridagi yetti yillik maktabni tugatdi.

1948-1953 yillar – Ashxobod temir yo‘l transporti texnikumida tahsil oldi.

1953-1958 yillar - Toshkent temir yo‘l transporti muhandislari institutida o‘quv davri.

1953-1959 yillar - Toshkent teplovoz va vagonlarni ta‘mirlash zavodida master.

1959-1960 yillar - UzRFA mexanika institutida kichik ilmiy xodim.

1960-1963 yillar – Toshkent temir yo‘l transporti muhandislari institutining aspiranti.

1964- yil – Texnika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun “Tik shpindelli paxta terish mashinasi shpindellaridagi tebranishlar natijasida tayanch nuqtalarga tushuvchi kuchlar ta‘sirini o‘rganish” mavzusida dissertatsiya himoya qildi.

1964-1971 yillar – Toshkent temir yo‘l transporti muhandislari institutida assistent, dotsent va katta ilmiy xodim lavozimlarida xizmat qildi.

1971- yil – Texnika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun “Paxta terish mashinalaridagi tik tushgan terish apparatining asosiy qismlarida sodir bo‘ladigan dinamik jarayonlarni o‘rganish” mavzusida dissertatsiya himoya qildi.

1971-1979 yillar - Toshkent temir yo‘l transporti muhandislari institutining “Harakatlanuvchi tarkib” kafedrasini mudiri.

1973 - yil - “Mashina detallari” kafedrasini professori ilmiy unvoni berildi.

1979-1984 yillar - Toshkent temir yo‘l transporti muhandislari instituti “Mexanika “ fakulteti dekani.

1984 - yil - O‘zFA Prezidiumining a‘zosi, O‘zFA mexanika va mexanika jarayonlarni boshqaruv bo‘limining akademik – kotibi.

1986-1990 yillar – Sohalararo ilmiy-texnikaviy markazning ilmiy rahbari.

1990-1998 yillar - O‘zFA MISMI’dagi “Paxta terish mashinalari” bo‘limi rahbari.

1994- yil - O‘zbekiston Respublikasining “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi.

1998-2004 yillar – ToshTYMI “Mashinalarni loyihalash asoslari kafedrasini mudiri.

1994-2004 yillar – O‘zRFAning MISMI va O‘zMEI himoya qilishga ixtisoslashgan kengash a‘zosi.

2000-2003 yillar - “O‘ztemiryo‘lmashta‘mir” ishlab chiqarish birlashmasida yangi vagon va sisternalar ishlab chiqarish loyihasida eksport a‘zosi:

O‘zbekiston uchun sotib olinayotgan yangi elektrovozlarni baholash komissiyasi a‘zosi;

“Dizel lakomotivlarini modernizatsiyalash” loyihasi bo‘yicha komissiya a‘zosi.

2003- yil -“Dizel lakomotivlarini modernizatsiyalash” davlat tendr komissiyasi a‘zosi.

**51-mashq.** *Quyidagi fe'llarni kelasi zamon maqsad fe'li shaklida qo'llab, shu fe'llar ishtirokida gap tuzing.*

Shakllanmoq, gullamoq, o‘qimoq, isbotlamoq, yaratmoq, rivojlanmoq, bajarmoq, tugatmoq.

**52-mashq.** *Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilib o'qing. Muallif munosabatini bildiruvchi gaplarga aylantiring.*

1. Летом я хочу поехать с отцом на Восток. 2. Олим собирается поступить на математический факультет педого-гического университета. 3. Мы хотим записаться в спортивную секцию. 4. Он хочет поехать в Самарканд. 5. Мой друг завтра собирается идти на работу.

**53-mashq.** *O'qing, avval so'zlarni, so'ngra gaplarni rus tiliga tarjima qiling.*

1. Nigora, avval kutubxonadan kerakli kitoblarni olib, so'ngra u yga ketamiz. 2. Bizning o'zbek tili o'qituvchimiz nutq o'stirishga katta ahamiyat beradi. 3. O'zbek yozuvchilari juda ko'p asarlar yaratishgan. 4. O'rta Osiyoda ma'lum davrgacha arab yozuvi bilan birga uyg'ur yozuvi ham mavjud bo'lgan. 5. Bobur, xujjatlaringni ol, samolyotga chiqishda tekshirishadi. 6. VII asr oxirida O'rta Osiyo-da arablar hukmronligi boshlangan. 7. Arab yozuvi asta-sekin O'rta Osiyo xalqlarining o'z yozuvini siqib chiqara boshladi.

**54-mashq.** *She'rni ifodali o'qing. Ma'nosini izohlab bering.*

### **SIZ – MURABBIY**

Yo'llagayman behad salom,  
Ey, mehribon muallimlar.  
Ta'zim sizga qalbimizdan  
Jahon-jahon muallimlar.

Hayotimiz intizomi,  
Bani bashar ehtiromi,  
Sizdan to'lar maqsad jomi,  
Jonga darmon muallimlar.

Siz murabbiy inson uchun,  
Har bir ilmu urfon uchun,  
Rahnamosiz vijdon uchun,  
Qalbi bo'ston muallimlar.

Ko`klar sari parvozimiz,  
Dong taratgan ovozimiz  
Siz tufayli, ustozimiz,  
Dil – guliston, muallimlar.

Ma'rifatning keng quchog`i,  
Tinmay qaynar fan bulog`i,  
Inson baxtin – siz – chirog`i,  
Yo`qdir armon, muallimlar.

Siz bog`bon, biz bog`ingiz,  
Hamisha ko`z qarog`ingiz,  
To`tiyo ko`z tuprog`ingiz,  
Bizga har on muallimlar.

Men mardumi Farg`onangiz,  
Qalbi tig`la taronangiz,  
Charxiy bo`lib parvonangiz,  
Yozar doston muallimlar.

*Charxiy.*

## **29-mashg`ulot**

### **Xalq xotirasida mangu qoladi**

Chinakam shoirning qalbida allaqanday sohir qush doimo sayrab turadi, degan gapni ko`p bora eshitgandik. O`sha qush aynan Muhammadjonning, Muhammad Yusufning yuragida oshyon qurganiga men astoydil ishonaman. Uning ko`zlari ham, chehrasi ham hamisha latif bir kuyni xonish qilganday edi.

Vatan haqida juda ko`p yozilgan. Yozilgani yaxshi, albatta. Biroq yozmoq bilan yozmoqning farhi bor. Muhammadjon ukamiz bir she'rida «Yurtim, seni iddaolar qilmay sevaman» deb aytganda qanchalar haq edi. Darhaqiqat, u o`z elini, xalqi, Vatanini chin far-zandday, beg`araz, sidqidildan yaxshi ko`rar edi. Shu mehrning natijasi o`laroq, uning she'riyati ham xuddi shundoq beminnat va beg`araz she'riyat sifatida maydonga keldi. Va bu oq ko`ngil, osmonqalb ukamizdan xuddi shunday she'riyat yodgor qoldi.

Men Muhammadjon bilan uzoq yillar mobaynida yonma-yon yashadim, yonma-yon ijod qildim, yonma-yon ishladim. Hali yoshlik yillaridayoq bunchalik ko'p muxlis orttirgan, do'st-og'aynisi bisyor ijodkorni kam ko'rganman. San'atkorlar-ku, uning har bir misrasini sozga solishga tayyor edilar.

Bularning sababi nimada? Birinchi navbatda, Muhammadjon yaxshi inson edi. Yaxshi insonlarga esa boshqalar doimo talpinadilar. Odamdan odam uzoqlashishini hudoyim hech kimga ko'rsatmasin .

U obro' talashmas, izzatini so'roqlab yugurib yurishdan or qilardi. Xuddi shundoq yaxshi odamgina ijodkor bo'lishi tabiiy va qonuniydir. Shu kabi yuksak fazilatlarini tufayli Muhammad Yusufni xalqimiz ardoqladi, Yurtboshimiz otalarcha mehr ko'rsatdi. Uning xizmatlarini davlatimiz munosib baholadi. U O'zbekiston xalq shoiri edi.

Muhammad Yusuf qisqa umr kechirdi. Undan chinakam, betakror ijodiy meros qoldi. Haqiqiy ma'nodagi barhayotlik, zavol bilmaslik Muhammad Yusuf ijodiga ham taalluqli bo'lgay desam , inshoolloh, xato qilmagaydirman.

(A.Oripov)

### ***Topshiriq.***

1. Matnni qayta so'zlab bering.
2. O'zbek adabiyoti tarixida yaxshi nom bilan qolgan yana kimlarni bilasiz?
3. Ota-onangiz ajdodlari bo'yicha shajara tartibini tayyorlang.

**55-mashq.** *Matnni o'qing, so'zlab bering. Matn mavzusiga doir savollar tuzing.*

### **Ibn Sino shogirdlari**

Tabiblarning tabibi, ulug' hakim Ibn Sino kunlardan bir kuni qattiq og'rib, ko'rpa - to'shak qilib yotib olibdi. Ibn Sinoning eng yaqin do'st – birodarlari yaxshi so'zlar aytib, ulug' tabibning ko'nglini ko'tarishga, kayfiyatini yaxshilashga harakat qilishsa, shogirdlari ustozlarini dori-darmonlar bilan davolashga kirishibdilar.

Ibn Sino do'st-birodarlariga rahmatlar aytib, shogirdlariga esa shunday debdi:

—Ey, shogirdlarim, mening kunim bitgan ko'rinadi. Shu boisdan meni davolayman deb behuda harakat qilmanglar. Bordi-yu, kunim bitib, vafot etsam, yig'i-sig'i, oh-voh qilib o'tirmanglar. Faqat haqqimga duo qilib, onda-sonda qabrimni ziyorat qilsanglar bas. Va

yana, ustoz olamdan o'tdi, endi tabobat oqsaydi, deb ham qayg'urmanglar. O'rnimga besh zo'r tabibni qoldirib ketmoqdaman. Shu tabiblarning maslahatlariga o'zinglar ham doim amal qilinglar, boshqalarni ham ularga da'vat etinglar,- debdi.

Ibn Sinoning shogirdlaridan biri:

—Ustoz, siz aytgan tabiblar kimlar?- deb s o'rabdi.

Shunda Ibn Sino debdi:

— Men qoldirib ketayotgan zo'r tabiblarimning biri – tozalik, ikkinchisi - parhez, uchinchisi – badan tarbiyadir. Va qolgan ikkisi mijoz bilan kayfiyatdir. Doimo pokiza, ozoda bo'lishlik, ko'ringan narsani, ya'ni ovqatni eyabermaslik, apil- tapil ovqatlanmaslik, ovqatlanishda parhez, me'yorni bilishlik, ichkilikka ruju qo'ymaslik, ba'dan a'zolarini harakatsiz qoldirmaslik, mijozni unutmazlik va nihoyat, kayfiyatni yaxshi tutishga harakat qilish – mana shu aytganlarimga amal qilinsa, kasallanish u yoqda tursin, bevaqt o'lim ham orqaga chekinadi.

*Topshiriq.* “Sog'lom turmush tarzi” mavzusida bayon yozing.

### **30-mashg'ulot**

#### **Xorazm Ma'mun Akademiyasi**

Xorazm Ma'mun Akademiyasi 1004-1005 – yillarda Xorazmda tashkil etilgan bo'lib, O'rta Osiyo tarixidagi ilk akademiyadir. Akademiyaning “Ma'mun” deyilishi sababi Ma'mumiy xorazmshohlar davrida (997-yillar) ularning homiyligida tashkil qilingan. 1017-yilda Xorazmshoh Mamunning isyonchilar tomonidan o'ldirilishi Akademiya faoliyatining yakunlanishiga sabab bo'ldi. Shundan so'ng akademiya homiysiz va qarovsiz qolib, akademiya olimlari ilmiy ish uchun tinch sharoit qidirib, tarqalib ketdilar.

Mustaqillik sharofati bilan 1997-yilda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov “Ma'mun Akademiyasini qayta tiklash to'g'risida” Farmon chiqardi. Bu Faronga ko'ra, ming yillar avval Xorazmda tuzilgan mazkur Akademiya qayta tashkil qilindi. 2006-yilda Akademiyaning 1000 yillik yubileyi rejalashtirildi. YUNESKO Bosh konferensiyasining 32-sessiyasida Xorazm Ma'mun Akademiyasining ming yilligini nishonlash bo'yicha yubiley tadbirlarida YUNESKOning ishtiroki haqida qaror qabul qilinganligi ham bu tadbirning dunyo miqiyosida o'tkazilishini ko'rsatib turibdi.



Xorazm Ma'mun Akademiyasini qayta tashkil etish va uning faoliyati samaradorligini oshirish masalalari katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mazkur Akademiyada o'sha davrning eng yetuk ilm kishilari qatoridan joy olgan yana ko'plab allomalarning asarlari ham ilmu fan ahli e'tiboriga havola qilinmoqda.

Akademiyaning mashhur olimlari qatorida joy olgan yana bir a'zosi mashhur olim Abu Sahl Masihiydir. Allomaning turli sohaga oid 40 dan ortiq asari mavjud bo'lib, bizgacha ularning sakkiztasi yetib kelgan. Bu asarlar hozirgi kunda Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Ular orasida "Tabobat haqida yuz san'at" asari alohida ahamiyatga ega.

### **56-mashq.**

1. Matnga doir savollar tuzing.
2. Notanish so'zlar asosida lug'at tayyorlang.
3. Buyuk allomalardan yana kimlarni bilasiz?
4. Beruniy asarlari yuzasidan klasster tayyorlang.

### **Ikki buyuk alloma**

O'lkamiz geologiyasi va foydali qazilmalariga oid dastlabki ma'lumotlar o'z zamonasining buyuk allomalari bo'lgan Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sino asarlarida o'z aksini topgan .

Beruniyning foydali qazilmalarning paydo bo'lishi, tog' jinslarining emirilishi va yer qobig'ida og'irlikning muvozanatlashib turishi uchun eer osti tog' jinslarining joylashish holatlari kabi masalalar hasida fikrlari yer osti foydali qazilma boyliklarini sidirish ishlarida juda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Uning bu sohadagi eng qimmatli xizmatlaridan biri-minerallarning fizikaviy xossalarini ta'riflab, ularning tarqalgan joylari haqida ma'lumotlar beradi. Farg'ona vodiysidan asfalt, neft, qora mum, mo'miyo, simob, temir, mis va boshqa foydali qazilmalar olish mumkinligini isbotlaydi.

Beruniyning xulosalari O'rta Osiyo yer osti boyliklarini sidirish yo'lida qimmatbaho manba bo'lib kelmosda.

Ibn Sinoning «Kitob ush -shifo» asarida turli tibbiyot ilmlari qatori geologiya va mineralogiyaga oid ma'lumotlar keltirilgan.U tog'larni tashkil etuvchi toshlar uzoq vaqt davom etuvchi turli tabiiy jarayonlar (sotish, birikish, erish) natijasida asta-sekin vujudga kelishini ko'rsatadi.


Ibn Sino mineralogiya fanining rivojiga ulkan hissa qo'shadi. U minerallarni 4 guruhga: Toshlar; Eriydigan jism; Oltin gugurtli yonuvchi jismlar; Tuzlarga ajratadi.

Kon sidirish va qazib olishga urunishlarning eng rivoj topgan davri ham shu ikki alloma-Beruniy va Ibn Sino yashab ijod qilgan IX-XI asrlarga to'g'ri keladi.


### 31-mashg'ulot

**Topshiriq.** Matndagi ajratilgan so'zlarni sinonimlar bilan almashtiring.

#### Olimning topqirligi



1880-yili Rossiya xarbiy dengiz floti vazirligi D.I.Mende-leyevga Fransiya ishlab chiqarilayotgan tutunsiz portlovchi modda poroxning tarkibini bilishni topshirdi. Ammo u yerga borgan Mendeleevdan **kashf qilgan** fransuz olimi MBertlo sirni yashirdi. Bertlo rus olimiga zavodni ko'rsatishga ko'rsatdi-yu, **biroq** unga ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni yozib olishga va hech bir narsani olib chiqib ketishga **ruxsat bermadi**.



Shunga qaramay o'tkir zehni Mendeleev porox ishlab chiqarish sirini mana bunday **ochib berdi**: temir yo'l orqali zavodga tashib keltirilayotgan ximiyaviy moddalar va **zavoddan** chiqarib tashlanayotgan

chiqindilar haqidagi ma'lumotni o'rganib chiqdi. So'ngra esa ula'r orasidagi miqdoriy tenglikni hisoblab chiqish olimga ko'p mehnat talab qilmadi. **Keyinchalik** bu haqda u Bertloga so'zlab berganda, u o'zimi qo'yarga joy topa olmay, olimning **topqirligiga** tasannolar aytgan edi.

Alfred Nobel 1833-yili Shvetsiyaning Stokgolm shahrida iqtidorli kashfiyotchi Emmanuel Nobel oilasida tug'ilgan. Bola 9 yoshga to'lganda, Nobellar oilasi Sankt-Peterburgga ko'chib keladi. Ota **o'g'lini** o'qitish uchun mablag'ini ayamaydi. Irodasi kuchli, mehribon ona esa o'g'liga har tomonlama g'amxo'rlik ko'rsatadi. Til o'rganishga **ishtiyogi** baland, o'tkir zehn egasi bo'lmish Alfred 17 yoshida Ovropa tillarining beshtasida **bemalol** so'zlasha olardi. **Ustozlardan** biri Peterburg universiteti professori Nikolay Zinning bergan darslari Alfredda kimyo faniga bo'lgan muhabbatni yanada oshirdi. XIX asrning 30-yillari oila boshlig'i Emmanuel Nobelning suv osti minasi kashfiyotida Rossiyada katta **qiziqish bildirildi**. O'sha paytda "Nobel va o'g'illari" kompaniyasi gullab-yashnayotgan, rus armiyasida esa zamonaviy texnikaga **ehtiyoj** oshib borayotgan edi. Shu bois **buyurtmalarning** keti uzilmas edi. Qrim urushidan keyin hammasi chappasiga o'zgardi: kompaniya **bonkrotlik** yoqasiga kelib qoldi.

Kompaniya inqirozga uchragach, Alfredning ota-onasi Shvetsiyaga qaytib ketadi. Alfred esa akalari Lyudvig va Robert bilan birga Rossiyada qoladi. 70-yillarning boshlarida aka-ukalar Ijevsk shahridagi **qurol-aslaha** zavodlari ustidan nazorat qilishar edi. Keyinchalik ular Bokuda (1879) "Aka-uka Nobellarning neft ishlab chiqarish shirkatini" tuzadilar. Bu kompaniya mahsulotlari juda **tez fursatda** o'z xaridorlarini topadi. Shirkat neft qazib chiqarish, kerosin, benzin, paraffin, **soda mahsulotlari** yetkazib berish bilan shug'ullanar edi.

**Aka-uka** Nobellar tinmay izlanadilar, kashfiyotlar qiladilar. Lyudvig dunyodagi eng birinchi tankerni loyihalashtirdi, birinchi sisternani qurdi, birinchilardan bo'lib neft quvurlarini ishlatdi. Alfred esa dinamit (1867), portlagich detanatori ballistitni (1888) **kashf qildi**.

Shvetsiyada Boltiq dengizi bo'yida tankerlar quriladigan korxonada ishga tushadi. Astraxanda verf quradilar. Aka-ukalar Ovropani va Amerikaning **eng ilg'or** texnika kashfiyotlaridan **unumli** foydalana olardilar.

XIX asrning oxiriga kelib Nobellarning mablag'i sezilarli darajada oshadi. Rossiya neftining 90 foizi ular nazoratida edi. Bu borada aka-

ukalar Rokfellerlarning “Standard oyl” kompaniyasidan ilgari borardilar.

Alfredning mehnatsevarligi, tashabbuskorligi, uddaburroligi o‘z mevalarini berdi: o‘limidan oldin (1896) Italiya, San-remoda u 335 patent, dunyoning yigirma mamlakatida 90 ga yaqin korxonaga egasi edi.

Garchi Nobel hayoti davomida **atrof-muhitni** xarob qiluvchi ko‘pgina har xil portlovchi moddalarni kashf etgan bo‘lsa-da, u **tinchlik tarafdori edi**. Olim bo‘lishi bilan birga, u yaxshigina shoir ham edi. “Faqatgina adabiyot va fan **insoniyat** rivojining omili bo‘la oladi”, deb hisoblardi Alfred. Nobel o‘limidan so‘ng undan to‘qqiz million dollarlik **mablag‘ qoldi**. Uning vasiyatiga binoan pullardan kelgan foyda kimyo, fizika, meditsina, adabiyot borasida ulkan hissa qo‘shgan olimlarni mukofotlash uchun mo‘ljallangan (keyinchalik **iqтisod** va tinchlik sohasida erishilgan **ulkan yutuqlar** uchun ham Nobel mukofoti beriladigan bo‘ldi). Mukofot 1901-yil 10-dekabrda boshlab (Nobel o‘limining besh yillik munosabati bilan ) topshirilib kelinmoqda. Har yil shu kuni Stokgolm konsert zalida Shvetsiya qiroli Nobel mukofotiga sazovor bo‘lganlarni mukofotlaydi. Nobel mukofoti laureatlari qanday aniqlanadi? Bu ishni quyidagi tashkilotlar amalga oshiradi:

Fizika va ximiya sohasi bo‘yicha – Shvetsiya fanlari akademiyasi.

Meditsina bo‘yicha – Shvetsiyaning Karalina instituti.

Adabiyot bo‘yicha – Shvetsiya akademiyasi.

**Tinchlikni o‘rnatish** borasida – Norvegiya parlamenti orqali saylangan besh kishidan iborat komissiya.

*(Vaqtli matbuot materialidan)*

**57- mashq.** *Quyidagi gaplarni o‘qing, bosh bo‘laklarni ajrating.*

1 O‘zbekistonda tarixnavis olimlarimiz ko‘p. 2. Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida Shirin obrazi vafodor, ijodkor, vatanparvar kabi fazilatlariga ega bo‘lgan mukammal shaxs sifatida aks ettirilgan. 3. Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonuni» asari juda noyob asarlardan biridir. 4. Abu Rayxon Beruniyning «O‘tmish zamonlarda qurilgan yodgorliklar» asari tengi yo‘q ilmiy manbadir. 5. 1428-yil Ulug‘bek qurdirgan rasadxona bizga meros bo‘lib qoldi. 6. Boburning 122 ilmiy va adabiy merosini o‘rganish, buyuk Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy davri va ijodini o‘rganish bilan uzviy bog‘liqdir. 7. O‘rta Osiyolik mashhur olimlarning ko‘p asarlari xorijiy tillarga tarjima qilingan.

**58-mashq.** *Qavs ichida berilgan rus tilidagi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qilib, gaplarni ko'chirng.*

1. Ukam bu yil (с большим старанием) o'qiyapti. 2. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi ko'p yoshlar (исторические исследователи) bo'lib, katta ilmiy ishlar qilyaptilar. 3. Boburning «Boburnoma» asaridan boshqa fanlar qatori til va adabiyot ilmini o'rganish mumkinligini butun ilm ahli (признает). 4. Mashhur O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning she'rlari boshqa shoirlarning she'rlaridan (отличается в корне). 5. Boburning «Boburnoma» asari (самых крупных) sharqshunoslik markazlarida qayta-qayta bosilgan. 6. Bobur o'z zamonasining (общественной жизни) muhim ro'l o'ynagan mutafakkir va tarixnavis olimdir.

**Topshiriq.** Quyidagi so'z va so'z birikmalarini «Bobur» matnidan topib o'qing, ma'nosini izohlang.

O'zida aks ettirgan, asarlari ichida, yirik sharqshunoslar, ravon va sodda tili, eng noyob, shug'ullanganlar, zo'r ixlos bilan, uzviy borliqdir.

**59-mashq.** *Quyidagi aforizmlarning rus tilidagi muqobilini toping.*

Aqliga (oqilga) –ishorat, nodonga kaltak.

Yoki, Aqlli o'zini ayblar, aqlsiz - do'stini.

O'z aybini bilgan - mard.

Bolta kelguncha to'nka dam olar, qassob kelguncha - qo'y.

Bulbulga tilla qafasda tutqun bo'lgandan ko'ra,

Tikandan qurilgan uyasi ming marta afzal.

### **32-mashg'ulot**

#### **Matnni rus tiliga tarjima qilish**

#### **Qirg'iz xalq ertagi**

Qadimda donishmand bir chol o'tgan ekan. Uning yetti o'g'li bor ekan. Lekin ular otalarining so'ziga kirmas, har qaysisi o'zicha ish tutar ckim, Kattalari kichiklarini do'pposlar, kichiklari esa akalarini hurmat qilmas ekan.

Odamlar, aqqli cholning o'g'illari xo'p axmoq bo'lib o'syapti-da, deb yolg'iz uchratganda ularga tanbeh berisharkan.

Kunlardan bir kun chol o'rmonga boribdi-da, yo'g'onligi bosh barmoqday keladigan novdalardan yettitasini qirqib kelibdi. So'ng o'g'illarini chaqiribdi:

—Bolajonlarim,— debdi u, —sizlarning kuchingizni sinab ko'rmoqchiman. Mana shu yettita novdani bir dasta qilib sindiringlar-chi, — debdi.

O'g'illari navbat bilan urinib ko'rishibdi, lekin uddasidan chiqisha olmabdi. So'ngra otasi o'g'illariga bittadan novda beribdi, o'g'illar ularni birpasda sindirishibdi. Shundan keyin ota o'g'illariga :

— Mana, ko'rdingizmi, bitta novdani tez sindirdingiz, dastalanganiga esa kuchingiz yetmadi. Agar, birlashib, ahil yashasanglar, hech qanday dushmanning kuchi sizlarni daf qilolmaydi, —debdi.

Chol oradan sal o'tmay dunyodan o'tibdi. O'g'illari esa inoq yashay boshlashibdi. Kichiklari kattalarining so'ziga quloq soladigan, hammalari ishlab, bir-birlariga ko'maklashadigan bo'lishibdi.

Shundan keyin qirg'iz xalqi "Ahillik – ulug' baxt" degan naqlni tez-tez takrorlaydigan bolibdi.

### **Topshiriq:**

1. Ertakning boshida cholning o'g'illari haqida nima deyilgan?
2. Chol novdalarni o'g'illariga nima uchun dastsalab berdi?
3. Ertakdan qanday xulosaga keldingiz?
4. Ertakni so'zlab bering.

**60-mashq.** *Qo'shma gaplarni biriktirib, zidlov, ayiruv, qiyoslov munosabati turlarga ajratib ko'chiring. Har bir qo'shma gapdagi bosh bo'laklarni topib, bog'lovchilarning vazifasini tushuntiring.*

1. Ko'ngil xazinasining qulfi tildir va ul xazinaning kaliti so'zdir. (Navoiy) 2. Vali Isoy boboga qo'zi boqishda yordam bermoqda, hamda bobo uni ovchilik san'atiga o'rgatmoqda. 3. Ba'zan mehmonlar so'zlaydii, ba'zan mezbonlar. 4. Mehmon oz o'tirar, lekin u ko'p ko'rar. (Maqol) 5. Ochi.1 davomini kutdi, lekin Zamira gapini aytib bo'lgandi. 6. Goh qizlarning qahqaqasi uzoqdan chalinar, goh qandaydir mungli kuy eshitilar edi. 7. Dam men unga ish o'rgataman, dam u menga.

**61-mashq.** *Quyidagi sodda gaplardan tegishli bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplar fuzing, kerakli finish belgilarini qo'ying.*

1. Biz turli millat vakillarimiz. Hech birimiz urushni istamaymiz. 2. Tuni bilah yomg'ir yog'di. Ertalab qor. 3. Bugungt majlisda sen gapirasan. Toshbolta gapirmaydi. 4. Quyosh chiqdi. Borliq nurga to'ldi. 5.

Dugonalarim yugurib yetib keldilar. Sofiya Borisovna hali ham yo‘q. 6. Eshikdan shamol urar edi. Botayotgan quyoshning so‘nggi yorug‘i tushib turar edi.

### 33-mashg‘ulot

#### Tinish belgilar va ularning qo‘llanilishi

##### *Nuqta o‘zbek tilida quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:*

1. Nuqta his-hayajonsiz aytilgan darak, buyruq va undov gaplardan so‘ng. *Farzandlarimiz doimo sog‘lom bo‘lsin.*
2. Atov gaplardan keyin. *Ilk bahor. Kunlar isiy boshladi.*
3. Ism, otasining ismi (ba‘zan, familiya ham) qisqartirilganda, ularning birinchi harfidan so‘ng nuqta qo‘yiladi. *A.S.Pushkin.*
4. Nashriyot ishlarida, lugat va ma‘lumotnomalarda shartli ravishda qisqartirilgan ayrim so‘zlarning birinchi harfi yoki bo‘g‘indan so‘ng nuqta qo‘yiladi.
5. Nuqta ba‘zi bir hollarda yil ,oy, kunni ifodalovchi raqamlardan so‘ng ham qo‘yilishi kuzatiladi. 21.03.2007.
6. Hisob-kitob ishlarida nuqta belgisidan ko‘paytiruv alomati sifatida ham foydalaniladi  $2 \times 2 = 4$  (ikki marta ikki to‘rt)

##### *Vergul va uning qo‘llanilishi*

Vergul tinish belgisi sifatida G‘arbiy Ovroqada XV asrdan boshlab ishlatila boshlangan. O‘zbekcha matnlarda XX asr bosqlaridan boshlab uchraydi. Undan quyidagi o‘rinlarda foydalaniladi.

1. Uyushiq bo‘laklar orasida: *Bolalarning xulqi, odobi, yurish-turishi, ko‘cha-ko‘yda, mahallada, o‘zini tutishi, do‘stlari orasidagi mavqei, hurmati, oila yumushlariga qo‘shayotgan hissasi bilan doimo qiziqib turish lozim.*
2. Undalmalar vergul bilan ajratiladi: *Uka, o‘qishning erta-kechi bo‘lmaydi.*
3. Kirish so‘z va kirish birikmalardan so‘ng: *Shubhasiz, Vatanimiz jahonning rivojlangan mamlakatlari qatorida o‘rin olajak.*
4. Tasdiq, ta‘kid, inkor va shu kabi ma‘nolarni bildiruvchi ha, yo‘q, rahmat, xo‘sh, qani, xayr, ofarin, salom kabi so‘z-gaplardan keyin kelgan bo‘laklarni ulardan ajratish uchun: *Ha, hushyor bo‘lish har bir fuqaroning Vatan oldidagi muqaddas burchidir.*
5. Ajratilgan bo‘laklar orasiga ham: *Onaga, eng ulug‘ zotga, ehtiroim chinakam insoniylik sanaladi.*
6. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni tashkil qilgan soda gaplar orasiga: *Do‘sting mingta bo‘lsa ham oz, dushmaning bitta bo‘lsa ham ko‘p.*

7. Bog'langan qo'shma gaplarda: *Bilimli va tadbirkor bo'ling, lekin bu xislatlaringiz sizni xudbinlikka sira yetaklamasin.*

8. Undov so'zlar his-hayajon bilan aytilmasa: *O, yoshlik, sening qadringni yoshi qaytganlar bilar.*

9. Ko'chirma gap darak, buyruq gap bo'lsa: *"Inson qalbi javohirlardek toza, pok bo'lmog'i lozim", - deb aytgan edi Abu Rayhon Beruniy.*

### ***So'roq belgisi va uning qo'llanilishi***

1. So'roq belgisi gaplarning oxirida: *Yomonlik jazosiz qolmasligini bilasanni?*

2. Kim, nima, qanday, qanaqa, qaysi kabi so'roq olmoshlaridan keyin: *Nima qilmoqchisan?*

3. Gap yoki matn ichidagi birorta so'z yoki jumla mujmal, noaniq, tushunarsiz bo'lsa, undan so'ng qavs ichiga so'roq belgisi qo'yiladi.

*-Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" qissasida (?) (Bu yerda qissa emas roman) o'zbek xalqining yaqin o'tmishi haqida hikoya qilinadi.*

### ***Undov belgisi va uning qo'llanilishi***

1. Undov belgisi kuchli his-hayajon bilan aytilgan gaplardan so'ng: *Oqposhsha yerdan bir siqim tuproq oladi.*

*-Ana tuproq, mana tuproq! -deydi. Bo'rsildoq tuproq, mag'isdor tuproq, hosildor tuproq. Tuproqmisan-tuproq!(Tog'ay Murod).*

2. Buyurish, ilinish, istak-xohish va shu kabi ma'nolarni ifodalovchi gaplarning oxirida: *Siz ham oyoqni ishlating! - deb buyurdi. Suv ostida o'pqnolar ko'p. Tortib ketmasin! (P.Qodirov).*

3. So'z boshida kelib, kuchli his-hayajon bilan aytilgan undalmalardan so'ng: *Ey arslonlar arsloni! Mening yozuqlarimdan o't, mening qo'limni tut, belimni bog'la, muqaddas fotihangni ber! (A.Fitrat).*

4. Ha, yo'q, uzr, mayli, xayr, salom kabi so'z - gaplar hayajon bilan aytilganda: *Yo'q! Borolmayman, - dedi qayrilib.*

5. Matn ichida alohida ta'kidlangan, ajratib ko'rsatilgan so'zlardan keyin qavs ichida so'roq belgisi berilishi mumkin. *"Boburnoma"da tarix, etnografiya, til, adabiyot, geografiya, biologiya, botanika, hatto tabobatga(!) oid g'oyat qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.*

6. Aytilishi lozim bo'lgan fikr o'ta kuchli his-hayajon bilan aytilganda, ketma-ket uchta undov belgisi qo'yiladi.

*Charos kafti bilan yuzini to'sgancha o'zini orqaga tashladi.*

*-A-a-a!!! -dedi chinqib. (O'.Hoshimov)*



### **Qavs va uning qo'llanilishi**

1. Qavs kirish gaplarda: *O'zbekiston paxta ihlab chiqarish bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblananib, Xitoy, AQSH, Hindiston va Pokistondan keyin beshinchi o'rinda turadi, eksport bo'yicha AQSGdan so'ng ikkinchi o'rinda turadi.*

2. Remarkalarda: *Xon(yolg'iz) – Shu tiriklikdan-da bezdirdilar meni (Turib yuradur). Bir dushmanimning qoni quramayin yana bittasi chiqib qoladur (A.Fitrat).*

3. Olingan misollar yoki gaplar manbaida: *Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir (Abdulla Avloniy).*

4. Izoh ma'nosidagi so'z yoki so'z birikmalarida: *Ro'za hayiti (Iyd al Fitri) va Qurbon hayiti (Iyd al-Adha)ning birinchi kuni dam olish kuni deb belgilangan.*

5. Qisqartirilgan ism, familiyalar yoki taxalluslarda: *1992-yil O'zbekiston Parlamenti Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT).*

6. Shaxs, joy, asar, hodisa va shu kabilarning ikki xil varianti (hozirgi va ko'hna yoki aksincha) berilganda, ulardan biri qavsga olinadi. *"Qutadg'u bilig" ("Baxt keltiruvchi bilim").*

### **Ko'p nuqta va uning ishlatilishi**

1. Ko'p nuqta mazmunan tugallanmay qolgan gaplar oxirida,

2. So'zlovchining his-hayajoni ifodalaganda,

3. Matn, jumla qisqartirilganda,

4. Fikr bo'lib-bo'lib ifoda qilinganda,

5. Suhbatdoshining gapi javobsiz qoldirilganda,

6. Tushirib qoldirilgan harf, so'z yoki boshqalar o'rnida ishlatiladi.

**Topshiriq.** Har bir qoidaga misol toping.

### **Tire va uning qo'llanilishi**

Tire quyidagi o'rinlarda qo'llaniladi:

1. Dialoglardagi har bir gapning boshida.

-Siz qayerda o'qiysiz?

-ToshTYMI qoshidagi akademik litseyda.

2. Bog'lamasiz kelgan ot kesim bilan ega orasida: *Til - millatning qalbi.*

3. Uyushiq bo'laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin: *O'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik – barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz.*

4. Muallif gapi bilan ko'chirma gap orasida: *"Oddiylik axloqiy barkamollikning bosh shartidir", - deb yozgan edi L.N.Tolstoy.*

5. Ma'lumot mazmunidagi asosiy gapdan so'ng tartib bilan sanalgan har bir gap boshida:

- "Amir Temur" ordeni;

- "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni 1996-yil 26-aprelda ta'sis etildi.

6. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda ikkinchi gapning kesimi tushirilganda: *Olamni quyosh yoritadi, insonni – ilm.*

7. Ayrim so'z yoki gaplar izohlanganda: *Veksel – qimmatbaho qog'oz, pul qarz olganlik haqidagi tilxat, qarz xujjati.*

8. Zid ma'noli qo'shma gaplar orasida: *Vaqting ketdi – baxting ketdi.*

9. Kirish gaplar va ajratilgan bo'laklar har ikki tomonidan tire bilan asosiy bo'laklardan ajratiladi. *Biz – yoshlar millatning tayanchi, Vatanning ishongan tog'larimiz.*

10. Tenglik, taqqoslik va hakoza ma'nolarni bildiruvchi so'zlar orasida: *Toshkent – Andijon "Oltin vodiy" poyezdi 6-yo'lga kelib to'xtadi.*

**62-mashq.** *Diktant tariqasida o'qib turib yozing va tinish belgilarga ahamiyat bering.*

1. Eng muhimi, mustaqillik tufayli odamlarimizning dunyo-qarashi va tafakkuri, ma'naviy qiyofasi o'zgardi, jamiyatimizda ahillik, muruvvat, mehr-oqibat, tinchlik va osoyishtalik qaror topdi.

2. Yurgan – daryo, o'tirgan – bo'yra. Yaxshiga yondosh, yomondan qoch. Mard bir o'lar, nomard – ming.

3. -Bu senmi, qizim?

-Men, otajon! (*A. Qodiriy*).

4. Pastda, yigirma metrcha quyida naq oyoqlari ostida Chuqursoy quyosh nurida tasmaday yaltirab oqib yotardi (*I. Hasanov*).

5. Illat izlaganga illatdir dunyo,

G'urbat izlaganga g'urbatdir dunyo,

Kim neni izlasa topgan begumon

Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo. (*E. Vohidov*).

6. -Ha, xola, uyda nima qilasz?

-Uxlayin, bolam, men qari narsa yarim kechagacha o'tira olamanmi? Sizlar, yosh-yalang o'ynab-kulib ko'ngillarni yozinglar. Men orom olay. (*A. Cho'lpon*)

7. Siddiqjon gap boshlamochi bo'lib:

-Qalay, - dedi va sap-sariq qamishzorning u tomonida oqarishib turgan daryoni ko'rsatdi, - bahavo joylar ekanmi? (*A. Qahhor*).

## Jaloliddin Manguberdi

Olis tarix sahnasiga nazar tashlagan chog'imizda, har doim tarixiy shaxslar qatorida olis yillar ortidan ko'zimizga yosh va navqiron, shu bilan birga, jasur shahzoda Jaloliddin Manguberdi ko'zga chalinadi. Ko'p ming sonli Chingiz lashkarkarini 12 ta jangda maglubiyatga uchratgan Jaloliddin Manguberdi 1199-yilda Xorazmda tavallud topgan. Mamlakatda siyosiy tang vaziyatlar yuzaga kelib turgan vaqtda Ghingizxon qo'shinlari Xorazm davlati tinchligiga xavf sola boshlaydi. 1220-yil 20-dekabrda Sulton Muhammad Xorazmshoh vafot etadi. 1221-yilning boshida Jaloliddin Manguberдини Xorazm sultoni deb e'lon qilinadi. U mamlakatni mo'g'ullar bosqinidan mudofaa qilishga jiddiy kirishadi. U Temur Malik bilan birga fitnani bostirish uchun Xurosonga jo'nab ketganda, vaqtdan unumli foydalangan Chingizxon qo'shinlari mudofaa zaifligi tufayli Urganchga kirib oladilar. Lekin, Jaloliddin undan keyin ham dushmanga qarshi kurashib, bir necha marta g'alaba qozonadi. Faqatgina 13-jangda Jaloliddin qo'shinining beklari orasidagi ichki nizolar sabab, ularning tarqoqligi natijasida, Xorazmshoh g'alabaga erisha olmaydi. Yosh va navqiron, jasoratli shahzodaning o'tyurakli ekanligiga Chingizxon qoyil qolib, uni ta'qib etmaslikni afzal ko'radi. Jaloliddin ona yurt ozodligi va hurligi yo'lida to'xtovsiz kurash olib boradi. Matonatli sarkarda 1231-yilda Kurdiston tog'larida halok bo'ladi.

**Topshiriq.** Matnni o'qing, so'zlab bering. Matndan qo'shma gaplarni aniqlang, tinish belgilariga e'tibor bering.

### 34-mashg'ulot Oraliq nazorat -4

### 35-mashg'ulot

**Topshiriq.** Matndagi gaplardan bosh bo'laklarni aniqlang.

### Sir ochildi

*(A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan parcha)*

Shomdan so'ng qutidor endigina mehmonlardan bo'shab ichkariga kirgan edi, mehmonxonani yig'ishtirayotgan To'ybeka qutidor yoniga kelib dedi:

- Sizni bir kishi chaqiradir.
- Qanaqa kishi, tanidingmi?

— Tanimadim.

Qutidor erinibgina tashqariga chiqdi-da, mehmonada o'lturg'uchi tanish bo'lmagan kishi bilan sovuqqina ko'rishib so'radi:

— Xizmat?

Usta Alim qutidorga kulimsirab olgach:

— Ruxsatsiz mehmonxonangizga kirganim uchun kechirasiz, — dedi.

— Aybi yo'q, mulla, — dedi qutidor va qarshima-qarshi o'lturishdilar.

— Yomonlar suiqasdidan salomat qutilishingiz muborak bo'lsin!

— Tangriga qulluq bo'lsin!— dedi qutidor. Mehmonxona qorong'ilanib ketkani uchun havli supirib turg'uchi To'ybekaga darichadan turib buyurdi: — Sham yoqib chiq, To'ybeka!

Sham chiqishini kutkandek usta Alim boshini quyi solib o'lturar edi. Qutidor «nima yumishing bor menda» degandek qilib unga savol nazari bilan ko'z tashlar va qur'on tinglovchi kishidek bo'lib o'ltirg'uchi majhul kishidan taajjublanar edi. Nihoyat, sham kelib tokchaga qo'ndirilg'ach, usta Alim muroqabadan boshini ko'tarib qutidorg'a qaradi:

— Mendan taajjublandingiz, — dedi va qo'ynidan maktublarni chiqarib bittasini qutidorga uzatdi. — Mendan ham bu maktub ajabliroqdir, — deb kuldi. Qutidor xatning unvoniga ko'z yugirtirib chiqqach, usta Alim aytkandek taajjub ichida xatni ochdi... O'qub bitirgach, ul daxshat va taajjub ichida toshdek qotib qolg'an edi... Agarda uning yonida usta Alim bo'lmag'anda edi, ehtimol ul qay va qatlarg'acha serrayib qolar edi.

— Jon va oilangiz dushmani bo'lgan bir badbaxt endi o'z qilmishining jazasini ko'rdi, burodamim Otabek ularning totiqclarini xo'b boplab berdi, — dedi usta Alim va davom etdi: — shuning bilan sizning najib oilangiz daxshatlik fojia davrlarini kechirib, endi ma'sud kunlar arafasiga yetdi. Xatni o'qub sizning daxshatlanishingiz emas, quvonishingiz, dushmaningizning yuz tuban qilg'ani uchun haq taolog'a shukur aytishingiz kerakdir!

Qutidor hushini boshig'a yig'ayozdi va uflab tin olgach, hayajon ichida so'radi:

— Men bilan Otabekni qamatdirg'an va dor ostlarig'a yuborg'an Homidmi?

— Homid.

— Taloq xati yozg'uchi Otabek emasmi?

— Hosho va kallo, Otabek munday gapdan xabarsiz. Uning otidan taloq xati yozg‘uchi ham shu badbaxt Homid.

Mundan so‘ng qutidor turib ichkariga yugirdi, yarim yo‘ldanoq tanchada o‘lturg‘uchi Oftob oyim bilan Kumushka qichqirdi:

— Sir ochildi!

Ikkisi ham sachrab qutidorg‘a qaradilar-da, birdan so‘radilar:

— Nima, qanday sir?

Qutidor tanchaga borib o‘lturmadi-da, ayvon peshonasidan turib, qo‘lidari xatni yuqori tovush bilan o‘qub chiqdi:

*«Muhtaram qayin otamizg‘a!*

*Siz bilan meni qorong‘u zindonlarga tushirib, dor ostlarig‘acha tortkan, buning ila o‘zining vahshiyona tilagiga yeta olmagandan keyin manim tilimdan soxta taloq xati yozib darvoza yonidan haydattirishka muvaffaq, bo‘lgan va bir g‘unohsizni shahid etkan Homid ismlik bir to‘ng‘uzni nihoyat, ikki yillik sargardonligim so‘nggida yordamchilari bilan tuproqqa qorishtirishg‘a muvaffaq bo‘ldim... Sizing shonli havlingiz yonida voqia bo‘lg‘an bu kurash albatta sizni va uy-ichingiz ham yor-do‘stlaringizni anchagina tinchsizlikka qo‘yg‘an bo‘lsa kerak. Na choraki, yomonlarni sizning havlingiz orqasida rafiqam qasdida bo‘lg‘anlari paytida uchratishg‘a to‘g‘ri keldi va men bu ishka majbur qoldim. Buning uchun albatta meni kechirarsiz umididaman. Faqat sizning tinchsizlanishingiz va mardumning yuqori-quyi so‘zi bo‘lmasa sizga boshqa zarar bo‘lur, deb o‘ylay olmayman. Sizdan bu ulug‘ gunohim uchun afu so‘rab, haydalg‘an o‘g‘lingiz Otabek Yusufbek hoji o‘g‘li».*

Ammo qutidor “haydalg‘an” so‘zini tashlab o‘qidi. Maktub o‘qulib bitkanda Oftob oyim, ayniqsa, Kumush qutidorning boyag‘i holig‘a tushg‘an edilar. Kumushning bu daqiqadag‘i holini qalam bilan chizib ko‘rsatish albatta mumkin emas edi. Ul titrar edi, ko‘karar edi, to‘lg‘anar edi... Hozirgi eng kuchlik hissiyotoni hissiyotning a‘lo ifodachisi bo‘lg‘an yosh bilan to‘kar edi.

Qutidor o‘z tomonidan ham izoh berib chiqdi:

— Men bilan Otabekni qamatib dor ostig‘a yuborg‘uchi, Otabek tilidan soxta taloq xati yozib bir-birimizdan judo etkuchi, Komilbekni o‘ldirguchi, uyimiz orqasini teshib Kumush qasdida bo‘lg‘uchi — hammasi ham shu battol Homid ekan... Ammo badbaxtni ikki kishisi bilan tuproqqa qorishdirib ketkuchi Otabek ekan!

Oftob oyim titragan tovush bilan:

—Uyatsiz Homid, — dedi.

Kumushbibi:

— Bechora begim, - deb qo‘ydi.

Uchchavi ham yurakni to‘xtatib olish uchun anchagacha jim qoldilar.

— O‘zi esonmikin? - deb so‘radi oxirda Kumush.

— Xatig‘a qarag‘anda sog‘, — dedi qutidor.

Oftob oyim so‘radi:

— O‘zi qayerda emish, xatni sizg‘a kim kelturdi?

Bu savoldan qutidorning esiga mehmonxonada o‘lturgan usta Alim to‘shkan edi. O‘rnidan irg‘ib turdi-da, xotinig‘a javob bermasdan tashqarig‘a chiqdi. Ul usta Alimning qarshisig‘a o‘lturganda, mehmonxonaning yuqori darichasi ostig‘a Oftob oyim bilan Ku‘mush xat keltirg‘uchining so‘zini eshitish uchun kelib to‘xtag‘an edilar.

Qutidor uzr aytdi:

— Kelturg‘an xabaringiz ta‘sirida sizni unutayozibman...

### *Mustaqil o‘qish uchun*

#### **Akbar shoh**

Hind xalqining erki, ozodligi va baxti uchun kurashgan jahonga mashhur davlat arbobi Neru nomini tinchliksevar kishilar hurmat bilan tilga oladilar. Uning qizi Indira ta‘kidlaganidek, ham tarix yaratgan, ham tarix yozgan tarixiy arboblardan biri edi. Quyida siz o‘qiydiganingiz ham u yaratgan tarixdan hamda ajoyib mutaffakirning Bobur, Akbar kabi tarixiy shaxslarga hurmatidan dalolat.

Akbar Bobur boshlab bergan sulolaniy uchinchi hukmdori edi. Ammo mo‘g‘ullar mamlakatda hamon ajnabiy hisoblanar, ular hokimiyati harbiy kuchga tayanar edi. Ayni Akbar hukmronligi zamonida mo‘g‘ullar ko‘rina boshladi. Xuddi shu Akbar davridan Yevropada Buyuk Mo‘g‘ul degan unvonni qo‘llash rasm bo‘ldi. Bu davrda Hindistonda hukmdorlar hokimiyatini cheklash to‘g‘risida, aftidan hech kim bosh qotirmagan bo‘lsa kerak. Hayriyatki, Akbar dono mustabil bo‘lib chiqdi, u hind xalqi farovonligi yo‘lida ko‘p kuch-g‘ayrat sarflaydi... Milliy his-tuyg‘u mamlakatda kam o‘sgan, din esa tarqoqlik omili bo‘lgan bir vaqtda Akbar umumhind millatining idealini dinning separatchilik da‘volaridan atayin ustun qo‘ydi.

Bobur sarkardaga xos mahorat ko‘rsatib, Shimoliy Hindistonning ko‘pchilik qismini fath etdi. U Dehlining afg‘oniy sultonini, keyinchalik esa chigoralik Ra‘no Sing qo‘l ostidagi raxpul qabilalarini mahv etadi. Ammo Bobur o‘g‘li Humoyun hammasiga og‘ir bir vazifani qoldirib ketgandi. Humoyun madaniy o‘qimishli kishi edi, ammo u otasi kabi jangchi emasdi. Shuning uchun yangi mamlakatning hamma yerida tartibsizliklar sodir bo‘lib turmoqda edi. Nihoyat, 1540-yilda Bobur vafotidan 10 yildan so‘ng Bixarning Sherxon otlari afg‘oniy hukmdori Humoyunni yengib, Hindistondan surib chiqaradi. Shu tariqa

Buyuk Mo'g'ullarning ikkinchi hukmdori darveshga aylanib, yashirinishga majbur bo'ldi. Shu jahongashtalik vaqtida 1542-yil noyabrida xotini bir o'g'il ko'radi. Rajastxon sahrosida dunyoga kelgan o'g'il Akbar shoh bo'lib yetishdi...

Akbar 1556-yil boshidan to 1606-yil oxirigacha qariyb ellik yil davomida Hindistonda hukmronlik qildi. Bu – Yevropada Niderlandiya qo'zg'oloni sodir bo'lgan, Angliyada Shekspir yashagan davr edi. Akbar nomi Hindiston tarixida ulug' nom bo'lib, ba'zi bir jihatlari bilan Akbar Ashokani eslatadi. Shunisi qiziqki, Hindistonning eramizdan avvalgi uchinchi asrida yashagan buddoyi imperatori bilan Hindistonda eramizning o'n oltinchi asrida yashagan musulmon imperatori deyarli bir xil so'zlarni ishlatishgan. Bugun Hindiston shu ikki biyuk farzandining tilida so'zlagan bo'lsa ajab emas...

**63-mashq.** *Ko'chiring. Bosh va ergash gaplarni ko'rsating. Sabab ergash gapning bog'lanishi, vazifasi, so'rog'i va o'rnini ayting. Rus tiliga og'zaki tarjima qiling.*

1. Qorong'i tez tushdi, shuning uchun biz yo'ldan adashdik. 2. Nuri gapga e'tibor qilmaganidan, Yormat endi qiziga qarab so'zlay boshladi. (O.) 3. Adiba juda xursand bo'ldi, chunki uchrashuv u kutgandan ziyod bo'ldi. 4. Ikromjon sovqotganidan bir piyolagina achchiq ko'k choyga zor bo'lgan edi. 5. Meni taklif etishmadi, shuning uchun majlisga bormadim.

**64-mashq.** *Ko'chiring. Ergash va bosh gaplarni aniqlang. Shart ergash gapning bosh gap bilan aloqaga kiritgan vositasini, so'rog'ini, o'rnini tushuntiring.*

1. G'allang mo'l bo'lsa, qo'shiq ham og'izdan tushmaydi. 2. Agar hayot karvon bo'lsa, sarbon muallim. (Shuhrat.) 3. Agar g'amsiz bo'lmoq tilasang, hasadlik bo'lma. 4. Masalaning mohiyati avval o'ylab olinsa, so'zlar quyilib kelaveradi. 5. Mehnat qilsang, rohat ko'rasan. (Maqol.)

### **36-mashg'ulot**

#### **Men sevgan qahramon**

#### **Trening dars uchun mavzular**

1. Qahramonlarga xos fazilatlar.
2. Asarlardagi tipik obrazlar.
3. Men yoqtirgan qahramon.

**Topshiriq.** "Men sevgan qahramon" mavzusida insho yozish.

## Namuna:

*Otabek — chin muhabbat egasi*  
(A. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani asosida)

### Reja:

*I Kirish. Asarning yaratilish tarixi.*

*II Asosiy qism. Otabek timsoliga tavsif:*

*a) Otabek- mustaqil fikrli shaxs;*

*b) Otabek—chin oshiq;*

*s) Otabek—isyonkor;*

*d) Otabek — o‘zbek millati vakili.*

*III Xulosa. Otabek timsolining tarbiyaviy ahamiyati.*

*Abdulla Qodiriy—o‘zbek romanchilik maktabining asoschisi. U rus adabiyoti vakillari ijodi bilan yaqindan tanishgan sari nasrda ko‘p ijod qila boshladi. “Yozganlarim bir urinish, qiziqish edi, xolos” deya birinchi o‘zbek romaniga qo‘l urdi, “O‘tkan kunlar”ni yoza boshladi.*

*A. Qodiriy yaratgan timsollar zamon bilan hamnafas, milliy g‘urur, qadriyat, o‘zbek mintaliteti namunasi edi. Birgina Otabek timsolida biz yaxshi tarbiya ko‘rgan farzand, mustaqil fikrga ega shaxs, o‘z sevgisi uchun kurasha oladigan yor va Vatan uchun qayg‘uradigan chin insonni ko‘ramiz. Uning Xasanali bilan muloqatida samimiylik, Kumushni uchratganda chin oshiqlik, dor ostiga borganda, vatanparvar ekanligini isbotlaydi.*

*Otabek timsoliga tavsif berishda bir so‘z bilan uni o‘zbek millati vakili desak yanglishmaymiz. Chunki har bir millatning maqtovga loyiq chin millat farzandi, tipik vakili bo‘ladi. Otabek ham ana shunday qahramon timsoli.*

*Otabekning Kumushga bo‘lgan chin muhabbati Xomid kabi yovga qarshi yakka borishga undadi. Yolg‘on, tuxmat, taloqni uyushtirishlar uni bukdi, lekin yenga olmadi.*

*Haqiqat doimo g‘alaba qiladi. Asar rivojida ham haqiqat qaror topdi. Yovuz niyat qilganlar yer tishladi.*

*Otabek timsoli kitobxonda ona —Vatanga muhabbat, o‘z yoriga sadoqat, yigillik g‘ururini baland tutish fazilatlarini tarbiyalaydi. Yosh avlodning bu kabi asardan olgan taassurotlari tarbiya maktabi o‘rnini egallaydi.*



### 37-mashg'ulot

#### Mening hayotdagi o'rnim

1. Hayotda tutgan o'z o'ringizni ta'riflashga urinib ko'ring.
2. Hayotdagi uchraydigan sinovlarga tayyormisiz?
3. Ma'suliyatli topshiriqni bajarishda to'siqqa bardosh bera olasizmi?
4. Hayotiy tajribangiz haqida so'zlab bering.
5. Fikringizni xulosalang. Sizning hayotdagi o'ringiz qanday deb hisoblaysiz?
6. "Mening hayotdagi o'rnim" mavzusida insho yozing.

#### Mening orzularim

Men maktabda o'qib yurganimdayoq tarix faniga juda qiziqardim.



Qadimiy davlatlar, shaharlar, xalqlar haqida ishtiyok bilan o'qir edim. O'zbekiston Milliy universitetining tarix fakultetida o'qiyapman. Biz o'rganayotgan fanlar juda qiziqarli: arxeologiya, etnografiya, qadimgi dunyo tarixi va boshqalar. Kelajakda men yaxshi mutaxassis bo'lishni orzu qilaman. O'lkamiz tarixining ochilmagan sahifalarini o'rganishni istayman.

Jumladan, Toshkent, Buxoro, Samarqand, Xorazm shaharlaridagi qadimiy obidalarni o'rganishni, yer ostidagi madaniyat qoldiqlarini izlab topishni istayman.

#### Topshiriq.

1. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
2. Bugungi kundagi yer yuzida sodir bo'layotgan ekologik muammolar haqida so'zlab bering.

### 38-mashg'ulot

#### Yakuniy nazorat.

## ILOVALAR

**Ish qog'ozlari ustida ishlash uchun namunalar:**

*ToshTYMI qoshidagi  
Mirobod akademik litsey  
direktori S.M.Alimovga  
FM-17 guruh o'quvchisi  
S.D.Karimovdan*

### **Ariza**

*Ota-onam Andijon temir yo'l DATKda ishlayotganligi munosabati bilan menga shu imtiyozdan foydalanib, "o'quvchi-yoshlar turar joyi" dan joy berishingizni so'rayman.*

*Zaruriy hujjatlar ilova qilinadi.*

28.08.2008. (imzo)

---

*ToshTYMI qoshidagi  
Mirobod akademik litsey  
FM-17 guruh rahbari  
M.D.Saidovga  
FM-17 guruh o'quvchisi  
S.D.Karimovdan*

### **Tushuntirish xati**

*16.02.2009-yil uchinchi juflikda tarix darsiga betobligim sababli kira olmadim. Shifokor L.M.Popova huzurida bo'lganligim haqida ma'lumotnoma ilova qilinadi.*

18.02.2009. (imzo)

---

*ToshTYMI qoshidagi Mirobod akademik litsey FM-17 guruh majlisi  
bayonnomasi № 4*

*Toshkent shahri  
19.02.2009-yil*

*Majlis raisi: M.D.Saidov  
Majlis kotibi: S.H.Hakimova  
Qatnashdilar: 24 ta guruh o'quvchilari*

***Kun tartibi:***

- 1. O'zlashtirishi qiyin bo'layotgan o'quvchilar bilan ishlash.*
- 2. Tog' bag'riga sayohat tashkil etish.*

***Eshitildi:***

*So'zga guruh rahbari M.D.Saidov chiqib, guruh o'quvchilarining qishki semestr yakunlari natijasiga ko'ra o'zlashtirishi qiyin o'quvchilar haqida gapirdi. O.Botirov, S.Mahkamova va Sh. Naimovlarning matematika fanidan qoniqarsiz baholarini tuzatish uchun guruh a'lochilari: K.Otajonov, L. Mannopova va A.Alimovlar biriktirilishi taklif etildi. O'zlashtirishi qiyin bo'layotgan o'quvchilar darsdan tashqari vaqtlarida do'stlari bilan matematikadan qo'shimcha shug'ullanishga va'da berdilar.*

***Qaror qilindi:***

- 1. O'zlashtirishi qiyin o'quvchilarga guruh o'quvchilari tomonidan yordam ko'rsatilsin.*
- 2. O'zlashtirishi qiyin o'quvchilar: O.Botirov, S.Mahkamova va Sh. Naimovlarga K.Otajonov, L. Mannopova va A.Alimovlar biriktirilsin.*

***Eshitildi:***

*So'zga guruh sardori N.Xolmatov chiqib, yillik reja asosida tog' sayliga chiqishni taklif etdi. O'quvchilar bir ovozdan Chimyon tog'iga borishni ma'qullashdi. L.Mavlonovga sayohat harajatlari ro'yxatini tuzish topshirildi.*

***Qaror qilindi:***

- 1. Chimyon tog'iga sayohat tashkil etish uchun 5000 so'mdan mablag' to'plash tashkil etilsin.*
- 2. Ota-onalar qo'mitasi a'zolaridan to'rt kishi sayohatda ishtirok etishi ta'minlansin.*

*Majlis kotibi: (imzo)*

*S.H.Hakimova*

## Qo‘shimcha foydalanish uchun qo‘shimcha grammatik jadvallar

### Fe‘l shakllari (Глагольные формы)

1-jadval

shakl	ma‘nosi	misollar
-yotgan edi, -ayotgan edi	Запечатлевается совершаемое действие	Do‘stimning boshi qattiq og‘riyotgan edi. -У моего друга сильно болела голова
-adigan bo‘ldi, -ydigan bo‘ldi	Приняте решения о выполнении действия	Shuning uchun bu gal Shokir qatnashadigan bo‘ldi. - Поэтому ре- шено, что на этот раз будет участвовать Шакир.
-ganday bo‘ldi	Неточность восприятия	...Yo‘lchi akamni ko‘rganday bo‘ldim. – Будто увидел своего брата Юльчи.
-ganda edi	Сильное желание исполнения действие	Shu paytda mening u bilan gaplashgim keldi. – В это время мне захотелось поговорить с ним.
-gisi keldi	Твердое намерение совершить действие	Shu paytda mening u bilan gaplashgim keldi. – В это время мне захотелось поговорить с ним.
-sa bo‘ldi	Возможность совершения Действие	Bugun sizning oldingizga borsam bo‘ladimi? – Можно ли сегодня мне пойти к вам ?
-sa kerak	Предположение	Bu yerlar qorong‘ida qo‘rqinchli bo‘lsa kerak. – Вероятно, эти места в в в темноте бывают страшными.

## Fe'l nisbatlari

2-jadval

Fe'l nisbatlari	o'zak (negiz)	shakl	misollar
Majhul (страдательный)	После конечного: гласного звука согласного Исключения: После последнего слога «ла» конечного согласного «л» .	-l -il  -n -in	sinamoq- испытываться o'tkazmoq- проводится xisoblanmoq- считаться hal qilinmoq- решаться
Ortirma (понудительный)          Birgalik (взаимный)	После гласного звука глухого согласного.  Сонорных (м,н,л,р), если основа состоит из двух и более слогов. Звонкого согласного и сонорных если основа односложная. после гласного звука согласного	-t -tir  -tir  -dir  -sh -ish	agralatmoq- заставить пилить. O'qitmoq – заставить читать, обучать. uortirmoq- заставить закрывать. orttirmoq- заставить грузить. rivojlantirmoq- развивать. oldirmoq- заставить взять. yozdirmoq- заставить писать.

**Ko'makchi fe'llar**  
(Вспомогательные глаголы)

3-jadval

ko'makchi fe'llar	yetakchi fe'lning shakli	ma'nosi	misollar
boshlamoq	-a, -y	начало действия	yigira boshladi (начал прясть)
Olmoq, bilmoq	-a, -y	означает «моч»	siqa oldi (может жать)
olmoq	-b, -ib	действие для себя	maydalab oladi (размельчит для себя)
qolmoq	-(i) +ib -b, -ib -a, -y -a, -y	стояние внезапность согласие быстрату выполнения	osilib qoldi (повис) uchib qoldi (погас) purkay qol (ну, опрыскивай) Qani pisha qolsa (быстрее созрел бы)
bermoq	-b, -b -a, -y -a, -y	действие для другого отсутвие препятствия продолжитель- ность от начатого действия	Hisoblab berdi (подсчитал для) Puflay berdi (дул, продолжал дуть) Pardozlay berdi (pardozlayverdi) (отделявал, про- далжал отделку)
O'tirmoq, turmoq, yotmoq, yurmoq, turmoq	-b, -ib -b, -ib	длительность, продолжитель- ность  настоящее время отказ от выполнения, не утверждать	O'qib o'tiribdi (читает) Ishlab turibdi (работает) Parmalab yotibdi (сверлит) Gapirib yuribdi (говарит) Yozib o'tirmadi

		себя	(не стал писать) Kutib o'tirmadi (не стал ждать)
Bo'lmoq	-b, -ib	Завершение действие	Ortib bo'ldi (погрузил)
ketmoq	-a, -u	быстрое начало	Bo'yuq ketdi (быстро начал красить)
Qo'ymoq, yubormoq	-b, -ib -b, -ib	внезапность завершенность быстрату совершения действия безпрепятствен- ность	Yurib ketdi (зашагал) Tushirib qo'ydi (спустил) Qo'yib yubordi, Qo'yvordi (отпустил)

### Harakat nomi (Имя действия)

4-jadval

affiks	rus tilida ifodalanishi	misollar
-ish -sh -maslik	1) отглагольное имя существительное: 2) неопределенная форма глагола	kirish-вход o'lchash-измерение bajarmaslik- невыполнение
-uv -v	1) имя существительное: 2) имя прилагательное:	tanishuv-знакомства saylov-выбор yozuv-надпись

## Harakat nomining turlanishi, ko'makchilar bilan qo'llanilishi

(склоние имени действия, употребление  
его с послелогами)

5-jadval

So'roq so'zlar	kelishik qo'shimchasi va ko'makchi	misollar
nima? (nima qilish?) nimaning? (nima qilishning?)	- -ning	Tuzish – создание tuzishning - создания
nimani? (nima qilishning?)	-ni	Tuzatishni – создание, создавать
nimaga? (nima qilishga?)	-ga	Tuzishga - в создание
nimada? (nima qilishda?)	-da	Tuzishda – создавать
nimadan? (nima qilishdan?)	-dan	Tuzishdan - от создания
nima bilan? (nima qilish bilan)	bilan	Tuzish bilan - с созданием
nima haqida? (nima qilish haqida)	haqida	Tuzish haqida - о создании
nima uchun? (nima qilish uchun?)	uchun	Tuzish uchun - для создания



## Sifatdosh (Причастие)

6-jadval

qo'shimchasi	ma'nosi	misollar
-gan (-kan, -qan)	прошедшее время	Sozladi, sozlagan usta – настраивавший мастер. Мастер, который настраивал
-ayotgan, -yotgan	настоящее время	Ag'darayotgan ishchi – сваливающий рабочий: рабочий, который сваливает. Mudrayotgan o'quvchi- дремлющий ученик, ученик который дремлит
-adigan, -ydigan	настоящее- будущее время	Ip yigiradigan dastgoh – прядильный станок Purkaydigan asbob – опрыскивающий прибор, прибор который опрыскивает

### Sifatdoshning turlanishi, ko'makchilar bilan qo'llanilishi

(склонение причастия и употребление его с послелогоми)

7-jadval

So'roq so'zlar	Sifatdoshlarning turlanishi va ko'makchilar bilan qo'llanilishi
Kim(lar)? Kimning?	Sarflangan - тратавшие: те, которые тратили tejaganning - экономившего; того, который экономил
kimni?	Takrorlaganni - повторявшего; того, который повторял.
kimga? kimda?	Charchaganga - уставшему; у того, который устал Tekislaganda - уравнившего; у того, который равнял
kimdan?	Qabul qilgandan –у (от) принявшего; у того, который принял.
Kimlar bilan?	G'alaba qilganlar bilan - с победившими; с тем кто победил
Kimlar haqida	Qo'shimcha qilganlar haqida – о дополнивших; о тех, кто дополнил
Kimlar uchun ?	Himoya qilganlar uchun – для защищавших; для тех, кто защищал

## Ravishdosh (Деепричастие)

8-jadval

Shakli	Vazifasi	Misollar
-b, -ib -may, -masdan (turib)	1) обстоятельство образа действия 2) однородное сказуемое	Kulib gapiryapti O‘ylab yozyapti Bilmay gapiryapti Kulmasdan turibdi . Bir ishni bitirmasdan turib, ikkinchisini boshlama.
-gani -gach	обстоятельство цели 1) обстоятельство времени 2) придаточное предложение времени	Izg‘irin yuzni yalab, ko‘zni ochirmaydi. Men seni sog‘inib, ko‘rgani keldim. Chizmani ko‘zdan kechirgach, bir narsani egovlay boshladi.

## O‘zbek tilida egalik qo‘shimchalari

9-jadval

Kishilik olmoshlari	Egalik qo‘shimchalari		Rus tilida foydalanilishi
	Undoshdan so‘ng	Unidan so‘ng	
mening, men	-im	-m	мой (моя, мое); свой; у меня; мне; я
sening, sen	-ing	-ng	твой (твоя, твое); свой, у тебя; себя; ты
uning, u	-i	-si	его (ее); свой; у него (нее); ему (ей) он , она
bizning, biz	-imiz	-miz	наш (наша, наше); свой; у нас, нам; мы
sizning, siz	-ingiz	-ngiz	ваш (ваша, ваше); свой; у вас, вам, вы
ularning, ular	-i	-si	Их; свой; у них; им, они

**Kesimi shart maylida bo'lgan ergash gaplar**  
(придаточные предложения со сказуемым  
в условном наклонении)

10-jadval

ergash gap turi	misollar
Shart (условия)	- U shoxida yursa, sen bargida yur.
O'rin (места)	- Qayerda urush bo'lsa, u yerda o'sish ham bo'lmaydi.
Payt (времени)	- Sen qachon dam olsang, men ham o'shanda dam olaman.
Aniqlovchi (определятельные)	- Usta qanday tushuntirgan bo'lsa, men ham shunday ish boshladim.
To'ldiruvchi (дополнительные)	- Siz kimga yordam bersangiz, men ham shunga yordam beraman.
O'lchov-daraja (меры и степени)	- Bog' qancha ko'p bo'lsa, hayot shuncha farmoish bo'ladi.
To'siqsiz (уступительные)	- Vaqt oz bo'lsa ham, u ishni to'xtatmas edi.

## L u g ' a t

### A

abjir	ловкий, расторопный
adashmoq	заблудиться, ошибаться
adovat	вражда, злоба
ahillik	единство; дружно
ajablanarli	удивительный
ajralmas	неотделимый
aksincha	наоборот, напротив
aksirmoq	чихать
almashish	обмен
aloqador	связанный
amaliy	практический
andisha	благоразумие; совесть
anjom	оборудование; утварь
an'ana	традиция
arqon	верёвка; канат
asabiy	нервный, раздражительный
asoslamog	обосновывать
atayin	нарочно; специально
atrof	окрестность, вокруг
avliyo	святой, чудотворец
avvalo	сначала, во-первых
ayblamoq	обвинять, находить недостатки
ayblovchi	обвинитель
ayirmoq	разделять; различать; разлучать
aylana	круг, окружность
aynan	точь – в точь, как раз
ayrim	отдельный; особый
ayvon	веранда; навес
ag'darmoq	свергать; переверачивать

## В

bahavo	чистый, свежий (воздух)
bahona	повод, причина
balog'at	совершеннолетие, зрелость
bajonidil	с удовольствием
barakali	обильный; продуктивный
barqaror	устойчивый; прочный
bashorat	предвидеть
bayon	изложение
behuda	напрасный; ерунда
bekorga	без оснований, напрасно
betaraf	нейтральный, воздержавшийся
birikmoq	объединяться
birpas	одно мгновение
birvarakay	сразу, за один раз
borliq	существование; бытё
bosim	давление
bog'liq	зависящий; связанный
buramoq	вертеть; завинчивать; заводить
butunlay	совсем, полностью
buyurnoq	приказывать; назначать; заказывать
bo'hton	клевета, поклон
bo'ylab	вдоль, по

## Д

dabdabali	пышный; высокопарный
dadil	смелый, храбрый
dalil	довод, аргумент; улыка
dalolat	свидетельство
darhol	немедленно; сразу
darmon	сила, мочь
daromad	доход, приход
dastlabki	первичный
da'vat	призыв

da'vo	иск, претенция
dodlamoq	кричать; жаловаться
doimiy	постоянный, регулярный
donalab	штучно
dog'	пятна; печаль
dumaloq	круглый
durang	ничья
duch kelmoq	повстречаться
do'nglik	выкупное место; бугорок
do'q qilmoq	угрожать
do'stona	дружественный

## Е

egallamoq	овладевать; занимать
egizak	двойня; сходный
egiluvchan	гибкий, эластичный
egmoq	гнуть; склонять
ehtiros	страсть
ehtiyotkor	осторожный; расчётливый
ehson	благоденствие; делать добро
ekin	посев
endilikda	теперь, ныне
ensiz	узкий
epchil	ловкий, умелый
ergashish	подчинение; следовать
erkalik	избалованность; баловаться
eskicha	по-старому ; старомодно
eslatma	примечание
eshittirish	передача , трансляция
e'tiqod	убеждение
e'tirof	признание; признавать

## Ф

faol	активный
faqat	только, лишь
farmon	указ

favqulodda	чрезвычайный; необычно
faxr	гордость; почёт
faxriy	почётный
fayzli	прелестный, благодатный
fazo	постранство
fidoyi	преданный
fikrlamoq	мыслить, размышлять
fitna	заговор; интрига
folbin	гадалка, ворожея
foydali	полезный; прибыльный
fosh qilmoq	разоблачать; раскрывать
fursat	время, момент

## G

ganch	ганч (вид алебастра)
gapdon	красноречивый
garchi	хотя, несмотря
gavdali	рослый, крупный
gavjum	людный, густонаселённый
gazlama	ткань; мануфактурный
gilam	ковёр
giyoh	растение; трава
goh(o)	иногда, по временам
guldasta	букет цветов
gumbaz	купол; свод
gumburlamoq	грохотать, греметь
guruh	группа; кучка; шайка
gurung	беседа, беседовать
guvoh	свидетель; очевидец
guvohnoma	свидетельство;
удостоверение	
go'l	наивный, простак
go'yo(ki)	якобы, будто; словно

## Н

hadya	дар, подарок
haftalik	едельный, еженедельный
hajm	объём, ёмкость
hali	ещё, пока что; только сейчас
halovat	покой, спокойствие
halol	четный; дозволенный
halqa	кольцо, круг
hamjihat	совместно, дружно
hamohang	гармоничный, созвучный
haqqo‘y	правдивый
har bir	каждый
harakatchan	подвижный; энергичный
havas	желание; интерес, увлечение
haybatli	грандиозный; грозный
haydamoq	гнать, выгонять; водить, управлять; пахать
haykal	статуя, памятник, монумент
hayo	стыд
hayotiy	жизненный
hayrat	удивление; недоумение
hazm	переваривание, переваривать
hashamatli	пышный, роскошный
hashorot	насекомое, букашка
hech	ни; никак, ничуть; совсем
hech nima	ничто
hech qanday	никакой, никак
hidlamoq	нюхать
hikmat	мудрость; значение сокровенное
his etmoq	чувствовать, ощущать
hisoblamoq	считать; рассчитывать
hissa	доля, часть; вклад
hordiq	усталость, утомление
hosil	урожай
hozircha	пока, пока что



hujjat	документ
hurriyat	свобода, воля
husn	красота, изящество
hushyor	бдительный; трезвый
ho'1	мокрый, влажный

## I

ibtidoiy	начальный, первобытный;
idora	контора, управление,
ifoda etmoq	выражать
ijobiy	положительный
ijrochi	исполнитель
ijtimoiy	общественный, социальный
ikkiyuzlamalik	лицемерие, двуличие
ilgak	крючок; вешалка; петля
ilimoq	теплеть, нагреваться
iliq	тёплый
ilmiy	научный
ilmi	образованный, ученый
imloviy	орфографический
imorat	здание, постройка; дом
imtiyoz	привилегия, льгота
imzo qo'ymoq	ставить подпись, расписываться
indamay	молча, безропотно
ingichka	тонкий
injiq	капризный; щепетильный
inkor	отрицание, отрицать
insoniyat	еловечество
intizom	дисциплина
inshoot	сооружение, строение
ipak	щёлк, волокно
iqror bo'lmoq	признаваться, сознаваться
iqtisodiy	экономический
irodali	волевой
is	запах

isbot	доказательство, подтверждать
isimoq	нагреваться; теплеть
isitma	жар, температура; лихорадка
isloh	реформа, реформировать
isrof	расточительство; растрата,
istak	желание; воля
iste'mol	употребление, потребление
itoatli	послушный, покорный
ixtiyoriy	добровольный; произвольный
ixtiro	изобретение, изобретать
ixcham	миниатюрный; портативный
iz	след, отпечаток; линия
izlamoq	искать, разыскивать
izohlamoq	разъяснять, толковать
izzat	почесть, почтение
izg'irin	холодный ветер, метель
izchil	последовательный
ishonch	доверие; уверенность
ishora	указание; знак, намёк; признак
ishqiboz	любитель; болельщик
ishtirokchi	участник
ishtiyoq	сильное желание, увлечение
ichki	внутренний

## Ж

jadal	быстрый, ускоренный
jahl	гнев, злость
jamiyat	общество; публика
jamg'arma	накопление; фонд
janjal	скандал, конфликт, спор
jarayon	процесс, ход
jarima	штраф, взыскание
javobgar	ответственный; ответчик
javon	шкаф
jazo	наказание, возмездие

jiddiy	серьёзный, важный; солидный
jihoz	оборудование; утварь
jild	том; футляр для книги; чехол
jimlik	тишина, спокойствие
jinoiy	преступный, уголовный
jiplamoq	плотно прикладывать; сплачивать
jismoniy	физический; телесный
jonli	живой; одушевлённый
jusus	шпион
joylamoq	помещать; устраивать
juft	пара
jo'mrak	кран; носик
jo'nash	отправление; уход
jo'rttaga	нарочно; умышленно

## К

kabi	подобно, как, вроде
kafil	поручитель, гарантировать
kaltaklamoq	бить, колотать
kamaymoq	уменьшаться, убавляться
kamgap	неразговорчивый, молчаливый
karaxt	нечувствительный;
	ощеломлённый
karvon	караван, обоз
kasallik	болезнь, заболевание
kasb	профессия; ремесло
katak	клетка; клетчатый
kayfiyat	самочувствие; состояние
kelasi	будущий
kengash	совет; совещание
kerakli	нужный, необходимый
keskin	острый; решительный,
	ожесточённый
kechikmoq	опаздывать; задерживаться
kechirmoq	простить; переносить

kinoya	метафора; намёк; ирония
kovlamoq	копать, ковырять, рыть
koshki	если бы, хотя бы
kuramoq	выгрести, сгрести
kutmoq	ждать; встречать
kuchaymoq	усиливаться, крепнуть
kuzatmoq	проводить; наблюдать
ko'kat	зелень; растение
ko'mak	помощь, поддержка
ko'raymoq	умножаться, расти, плодиться
ko'rik	смотреть, осмотр, показ
ko'chirma	выписка, копия

## L

latifa	анекдот, смешной рассказ
layoqat	способность; пригодность
libos	одежда, платье
loqayd	равнодушно, безразлично
loyiha	проект
loyiq	достойный, подходящий

## M

mablag'	денежные средства
mabodo	если, в случае
madaniy	культурный, цивилизованный
mahalliy	местный
maishiy	жизненный; бытовой
majburiy	принудительный; обязательный
majburiyat	обязательство; повинность
malaka	навык; квалификация
maroqli	увлекательный, занимательный
maslak	убеждение; идея
mavsum	сезон, период
mavhum	абстрактный, отвлечённый
maydon	площадь; арена; поле

mashq	упражнение, тренировка
ma'naviy	духовный; моральный
mag'lub	побеждённый
mensimaslik	пренебрежение, игнорирование
me'moriy	зодческий
miqyos	масштаб, размер
mish-mish	слухи, молва
mohir	искусный
moliyaviy	финансовый
mos	соответственный, подходящий
muhit	среда; условия
mulk	имущество; владение
mo'jiza	чудо

## N

nafis	тонкий; изящный
namunali	примерный; образцовый
naqshli	украшенный узорами
navbat	очередь
nazariy	теоретический
nazorat	надзор; наблюдение
negadir	почему-то
nihoyatda	весьма; очень; чересчур
nisbatan	сравнительно, относительно
noaniq	неточный; неясный;
noiloj	невольно, поневоле
noo'rin	неуместно
nuqul	целиком, сплошь; только,

## O

odatda	обычно, как правило
ogohlantirmoq	предупреждать, осведомлять
ohang	гармония, мелодия; интонация
oid	относящийся
oldingi	передний; прежний; передовой
olis	дальний, далёкий

ommaviy	массовый
omonatchi	вкладчик
oqibat	последствие, конец, исход
oqlovchi	защитник; болельщик
or	стыд, достоинство, совесть
orzu	мечта, желание
ortmoq	увеличиваться; превышать
orqali	через, посредством; по
oson	лёгкий, нетрудный
ovunmoq	утешаться, успокаиваться
oydinlashtirmoq	освещать, выяснять
oz	мало, немного
oziq	пища; продукт
og'irlik	тяжесть; трудность;
	выдержанность
og'rimoq	болеть
ochiq	открытый; ясный; прямой

## Р

panjara	ограда, решётка
pardoz	отделка; косметика
parhez	диета
parvoz	взлёт, полёт
parcha	кусок; клочок; отрывок; обломок
payqamoq	замечать; улавливать
pilla	кокон, коконы
pismiq	скрытый человек
poyma	скачка; пробег
puflamoq	дуть, задуть
pushaymon	раскаяние, сожаление
po'stloq	кора

## Q

qabul	приём; зачисление
qadimdan	издавна, с древних времён
qadimgi	древний, старинный
qalin	толстый; плотный

qamal	окружение, блокада
qaramay	несмотря на, вопреки
qaror	решение, постановление
qasamyod	~ <b>qilmoq</b> давать клятву
qatnov	хождение; движение
qavatli	этажный; слоистый
qaysar	упрямый
qayta	вновь, снова ; опять
qazilma	ископаемое
qisqacha	краткий; вкратце
qiynamoq	мучить; затруднить
qiziqarli	интересный, забавный
qiziqmoq	интересоваться; соблазнять
qolip	форма; шаблон
qorishna	смесь; раствор
quvur	труба
quyidagi	следующий, нижеследующий
qo‘rqinch	страх; ужас; опасность
qo‘shin	войско, армия

## R

rahmdil	милосердный, добрый
raqib	соперник; противник
raqqosa	танцовщица, балерина
rasmiy	официальный; формальный
rag‘bat	склонность, желание
reja	план, порядок
rozilik	согласие, санкция
rostdan	действительно, всерьёз
ruxsatnoma	письменное разрешение, виза
ro‘para	лицом к лицу.

## S

sabzavot	овощи; зелень
sahn	площадь

sakrash	прыжок
sanoat	промышленность, индустрия
sari	к, в, на ; как, по мере того
savdo	торговля
saviya	уровень
savodli	грамотный
sayilgoh	место, где происходят народные гулянья
saylamoq	выбирать, избирать
sayohat	путешествие, поездка
sergak	бдительный, чуткий
sezilarli	ощутимый; заметный
sifatli	качественный
singari	как, точно, подобно
sira	совсем, никак, ничуть
siyosiy	политический
siyqa	гладкий; избитый
soya	тень; опека
soz	музыкальный инструмент; удобный
so'nggi	последний, последующий
sog'lom	здоровый; благополучный

## Т

Taassurot	впечатление
tabib	лекарь
tadqiqot	исследование; исследования
taklifnoma	приглашение, пригласительный билет
talab	требование;
taraf .	сторона, направление
tarixiy	исторический
tasviriy	изобразительный; описательный
tasdiqlamoq	утверждаться; подтверждаться
tavsiyanoma	рекомендация



taxmin	предположение; догадка
tayyorlamoq	готовить, приготавливать
tashvish	заботы, хлопоты
ta'kidlamoq	констатирование; подтверждение
tejamoq	экономить, беречь
tekshirish	обследование, проверка; ревизия
tergovchi	следователь
teskari	изнанка, обратная сторона
tevarak	окружность, окрестность
tibbiy	медицинский
tinmay	неустанно; непрерывно
tugatmoq	кончать, завершать
turlicha	по-разному, различно
tuzalmoq	выздоровливать, поправляться
tushuncha	понятие, представление
to'ldirmoq	наполнять; пополнять
to'ziq	растрёпанный; разбросанный
to'g'risi	правда; впрочем

## U

ulamoq	соединять; связывать
umrbod	пожизненный, вечный
unutilmas	незабываемый
unvon	звание; титул
urf	обычай; нрав
ustun	столб
uyat	стыд, позор
uyqu	сон; спячка
uzatmoq	протягивать, подавать
uzluksiz	беспрерывный, непрерывный
uchrashmoq	встречать, встречаться

## V

vahima	паника, смятение
vakil	представитель, уполномоченный

vakolatxona  
vatanparvar  
vijdonan  
vositachi  
vujud

представительство  
патриот  
честно, по совести  
посредник  
существо, тело

## X

xabar  
xafalik  
xarajat  
xavfsiz  
xazina  
xodim  
xotira  
xususiy  
xususiyat  
xo‘jalik

весть, известие  
огорчение; обида  
расход, затрата  
безопасный, неопасный  
казна; сокровищница; клад  
сотрудник, работник  
память  
частный  
особенность; специфика  
хозяйство

## Y

yagona  
yalpi  
yangidan  
yangilik  
yaqindan  
yarasha  
yasamoq  
yashash  
yetkazmoq  
yerto‘la  
yechmoq  
yirik  
yo‘lak  
yo‘nalish  
yo‘talmoq  
yubormoq

единый; единственный  
общий, сплошной  
снова, заново, вновь  
новость; новинка  
недавно  
соответственно, сообразно  
делать; мастерить  
житьё, существование  
доставлять; наносить;  
землянка; подвал  
развязывать; решать; расстёгивать  
крупный  
проход; коридор  
направление  
кашлять  
посылать, отправлять

yugurish  
yuksalmoq  
yuqori  
yutqizmoq

бег; бегодня  
возвышаться, подниматься  
верх; высший; старший  
проигрывать, терпеть поражение

## Z

zamonaviy  
zararli  
zavqlanmoq  
zimdan  
zirak  
ziyoli  
zo'raymoq

современный  
вредный, убыточный  
восхищаться, наслаждаться  
тайно, исподтишка  
серёжка, серьги  
интеллигент, интеллигентный  
усиливаться; ухудшаться

## O'

o'lchagich  
o'lchamoq  
o'rmonchilik  
o'rnashmoq  
o'smir  
o'xshamoq  
o'ymakor  
o'zaro  
o'zboshimcha  
o'zgarish  
o'shanday

измеритель  
мерить, примерять  
лесоводство  
помещаться; устраиваться  
подросток, отрок  
уподобляться; похоже, кажется  
гравёр, гравировщик  
между собой, взаимно  
самовольный; непослушный  
перемена, изменение  
так же; такой

## G'

g'alaba  
g'alati  
g'altak  
g'arbiy  
g'avg'o  
g'ash  
g'ilof  
g'oyaviy

победа, успех  
необыкновенный; странный  
катушка; клубок  
западный  
скандал; шум  
раздражение  
чехол; футляр  
идейный

g'uncha  
g'o'za

бутон  
хлопчатник

## Sh

shamollamoq  
sharafli  
sharhlamoq  
sharmanda  
shartli  
shavqatsiz  
shayton  
sherik  
shishmoq  
shov-shuv  
shoyi  
shubhasiz  
shudring  
shunchalik  
sho'r

простудиться  
почётный, славный  
объяснять; комментировать  
опозоренный; бесстыдный  
условный  
беспощадный, жестокий  
дьявол; хитрец  
партнёр; соучастник; напарник  
опухать, раздуваться  
шум, гам  
шёлк, шёлковый  
несомненный, бесспорно  
роса  
настолько; пустяковый  
солёный

## Ch

chala  
changimoq  
chanqamoq  
chaqiriq  
chet  
chidamli  
chinakam  
chiqim  
chizma  
cholg'u  
chora  
chuqur  
cho'milmoq  
cho'chitmoq

незаконченный, незавершённый  
пылиться, запылиться  
жаждать, хотеть пить  
вызов, призыв; созыв  
край; предел; иностранный  
выносливый; прочный  
настоящий, искренний,  
расход; издержки  
чертёж  
инструмент  
мероприятие; мера; средство  
яма; глубокий  
купаться  
пугать; заставлять вздрагивать

## **Dastur o'zlashtirilishini ta'minlash uchun zaruriy darsliklar va qo'llanmalar ro'yxati:**

1. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. – T. :O'qituvchi, 1995.
2. J.Jalolov. Chet til o'qitish metodikasi. T. : O'qituvchi, 1996.
3. O'. N. Hoshimov. I. Ya. Yoqubov. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1993.
4. Общая методика преподавания иностранных языков в средних специальных учебных заведениях. Под. Ред. А.А.Миролюбова. – Москва «Восточная школа», 1978.
5. Практикум по развитию речи. Части 1 и 2. Под ред. Г.Г.Городиловой и А.Г.Хмары. – Ленинград. Просвещение, 1988.
6. В.Г.Костамаров, О.Д.Митрафанова. Методическое руководство для преподавателей русского языка иностранцам. – М.: Русский язык, 1984.
7. Методика преподавания русского языка как иностранного. Под ред. А.Н.Хукина. – М.: Русский язык, 1990.
8. Е.И.Пассов. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. М.: Просвещение, 1991.
9. «Orta maxsus o'quv yurtlarining rus gruppasi o'quvchilari uchun o'zbek tilining amaliy kursi»dan metodik tavsiyanoma va programma/ T/: RTM, 1991.
10. E. Shodmonov, A.Rafiyev, S.G'oirov. O'zbek tili darsligi o'rta maxsus o'quv yurtlari uchun. – T.: O'zbekiston, 1994.
11. X.Abdurahmonov, E. Shodmonov, A.Rafiyev. O'zbek tili hunar-texnika bilim yurtlari uchun darslik. 2-nashri. –T.: O'qituvchi, 1995.
12. К.Алликметс, А. Метса. Язык... Ситуации... Общение. – Таллин: «Валгус», 1987.
13. N. Mahmudov va boshqalar. O'zbek tilida ish yuritish. — T.: Qomus, 1990.
14. Qo'chqortoyev, A. Rafiyev. Kundalik muloqot so'zlashgichi — Разговорник повседневного общения. — T.: O'zbekiston, 1994.
15. M. To'xtamirzayev, Yu. Azizxonova. O'zbek tili: rusiyabon o'quvchilar uchun amaliy kurs dasturi. — T.: RTM, 1997.
16. И.У.Асфандияров. Восточная лексика в русском языке. — T.:Фан, 1991.
17. V. I. Krasnix. S. G'oirov. O'zbekcha-ruscha va ruscha-o'zbekcha so'zlashuv kitobi. — M.: Русский язык, 1989.

18. R. Qo'ng'urov va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. — T.: O'qituvchi, 1992.

## 2. QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Sezgin Demirel. İlkeler, yontenler, teknikler. — Ankara, 1993.

2. Reinecke W. Linguodidaktik. — Leipzig, 1985.

3. И.А.Зимняя. Психология общения народному языку. — М.: Русский язык, 1989.

4. A.Rafiyev, T. O'zturk, M. Isoqova. O'zbek tili va adabiyoti fanidan o'quvchilar bilimini reyting usulida baholash. — T.: RTM, 1996.

5. A.G'ulomov, D.Qobilova. Nutq o'stirish. — T.: O'qituvchi, 1994.

6. S.Rizayev. Ish qog'ozlari namunalari. — T.: O'zbekiston, 1995.

7. Л.З.Шакирова, Л.Г.Саяхова. Практикум по методике преподавания русского языка в национальной школе. Санкт-Петербург. Просвещение, 1992.

8. M.To'xtamirzayev. Qo'ng'iroq chalingandan so'ng: o'zbek tilidan sinfdan tashqari ishlar. - T.: RTM, 1996.

9. M.To'xtamirzayev va boshqalar. Dunyoning ishlari. — Дела земные. — T.: RTM, 1997.

10. Davlat tilida sinfdan tashqari ommaviy tadbirlar: o'quv-metodik qo'llanma. M.To'xtamirzayev tahriri ostida. — TV: RTM, 1998.

11. Musiqali o'zbek tili ta'limi. 1- va 2-kassetalar. — T., 1996.

12. «Uzluksiz ta'lim», «Ta'lim muammolari», «Til va adabiyot ta'limi» jurnallari.

13. Matbuot va internet xabarlari.

## MUNDARIJA

<b>Mashg'ulotlar nomi</b>	<b>bet</b>
1- mashg'ulot.....	3
2- mashg'ulot.....	6
3- mashg'ulot.....	11
4- mashg'ulot.....	17
5- mashg'ulot.....	20
6- mashg'ulot.....	21
7- mashg'ulot.....	23
8- mashg'ulot.....	23
9- mashg'ulot.....	26
10- mashg'ulot.....	28
11- mashg'ulot.....	31
12- mashg'ulot.....	34
13- mashg'ulot.....	36
14- mashg'ulot.....	40
15- mashg'ulot.....	40
16- mashg'ulot.....	44
17- mashg'ulot.....	47
18- mashg'ulot.....	51
19- mashg'ulot.....	54
20- mashg'ulot.....	54
21- mashg'ulot.....	54
22- mashg'ulot.....	58
23- mashg'ulot.....	61
24- mashg'ulot.....	65
25- mashg'ulot.....	69
26- mashg'ulot.....	72
27- mashg'ulot.....	75
28- mashg'ulot.....	75
29- mashg'ulot.....	78
30- mashg'ulot.....	80
31- mashg'ulot.....	82
32- mashg'ulot.....	85
33- mashg'ulot.....	87
34- mashg'ulot.....	91
35- mashg'ulot.....	91
36- mashg'ulot.....	95

37- mashg'ulot.....	97
38- mashg'ulot.....	97
Hovalar .....	98
Qo'shimcha foydalanish uchun qo'shimcha grammatik jadvallar .....	100
Lug'at.....	108
Dastur o'zlashtirilishini ta'minlash uchun zaruriy darsliklar va qo'llanmalar ro'yxati.....	125



R.NIYOZMETOVA, J.SAMIGOVA, M.MIRMAXSUDOVA

# O‘ZBEK TILI

(Akademik litsey rus guruhlari  
uchinchi bosqich o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma)

## III

*Muharrir Zuhra Keldiboyeva*

*Texnik muharrir Ilhom Qosimov*

*Musahhah Ozoda Qo‘ldosheva*

**KBK 83. 12 (5 O‘zb)**

**M.40**

**UDK: 515. 10. 2.**

**ISBN 978-9943-381-20-**

“Navro‘z” nashriyoti.

Toshkent, Amir Temur ko‘chasi 19 uy.

Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub> «Times New Roman»  
garniturasida. Ofset usulida bosildi.

Bosma tabog‘i 8. Adadi 300. Buyurtma № 155.  
Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilindi.